

Rus adabiyoti doʻstligimiz

V.V. Mayakovskiy



OO VA  
QORA



VLADIMIR VLADIMIROVICH  
**MAYAKOVSKIY**



OOQ VA  
QORA



*She'rlar, pyesa va dostonlar*

UO'K 821.161. 1-34

KBK 84 (2Ros-Rus)


M 35 ✓

Rus tilidan **Miraziz A'zam, Asqad Muxtor, Maqsud Shayxzoda,  
Jumaniyoz Jabborov** tarjimalari

XX asrning yirik ijodkorlaridan biri, atoqli rus shoiri Vladimir Mayakovskiyning she'rlarini hozirgi kunda ham o'zbek she'riyat ixlosmandlari sevib-suyib mutolaa qilishadi. Zotan, uning she'rlari otashin misralarga to'la, satrlarida qizg'inlik, kuchli ehtiros yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shunday ekan, Mayakovskiyning mahoratli va hassos tarjimonlarimiz tomonidan nozik did va nafosat ila o'zbekchalahtirilgan she'rlarini o'qir ekansiz, qalbingizda shoirning ko'ngil ichtiroblari uyg'onadi, ko'ngil yaratilqlaridan yorqin taassurot qoladi.

Mazkur to'plamga Vladimir Vladimirovich Mayakovskiy ijodining turli bosqichlaridagi qalb ixtirolari – she'rlari va dostonlari jamlangan bo'lib, ular, shubhasiz, kitobxon botinida burilish yasaydi.



ISBN 978-9943-7331-2-1

© Miraziz A'zam (tarj.), 2021.  
© «O'zbekiston» NMIU, 2021.



## G'IJJAK VA SAL-PAL ASABIYLIK

G'ijjak xunob bo'ldi yalina-yalina,  
so'ng birdan  
boladay yig'lab yubordi,  
«xo'p, xo'p, xo'p» dedi-yu daf zaifgina,  
g'ijjak nolasidan  
o'zi ham hordi,  
sho'ng'ib lang'illagan Kuznetskga  
jo'nab qoldi.

G'ijjak ovunguncha  
beso'z,  
beodob,  
yotsirab qarashdi unga kasbdoshlar,  
faqat qayerdadir  
bir telba likob:  
«Ne bo'pti?»  
«Qanday?» deb  
jaranglay boshlar.

Terli mis barkash ham:  
«Tentak,  
yig'loq,  
art!»

deb shovqin solganda  
o'rnimdan turdim,  
notasi qiyshaygan  
tagkursidan shart,  
sakrab o'tib:  
«Xudo!» deya o'kirdim.  
O'zimni tashladim yog'och bo'yniga:  
«Bilasizmi, g'ijjak,

bir xilmiz aynan:  
men ham dodlabman-u,  
bilmayman, nega –  
hech nimani isbot qila olmayman!»  
Mashshoqlar kulishar:  
«Yopish kanadek!  
Yog‘och qallig‘ingga keldingmi?!

Kalla!»  
Tupurdim!  
Yaxshiman.  
«Bilasizmi, g‘ijjak?  
Keling –  
birgalikda yashaymizmi?  
A?»

1914



## MANA SHUNDAY QILIB ITGA AYLANDIM

Endi bunga chidab bo‘lmas mutlaqo!  
G‘ajilab tashladi borlig‘imni kek.  
Jahlim siznikiga o‘xshamas aslo:  
qoqmanglay to‘linoy betiga itdek  
uvlagim keladi,  
uvlab yig‘lagim.

Asablardir, balkim...  
Chiqay,  
aylanay.  
Ko‘chada ham hech kimdan topmadim orom.  
Allakim  
qichqirdi: «Xayrli oqshom!»  
Javob berish kerak:  
u qiz – tanishim.  
Javob bergim kelar.  
Sezyapman ammo –  
javob berolmayman men insonnamo.

Bu qandoq bemazagarchilik o‘zi!  
Uxloqmanmi?  
Ushlab ko‘raman o‘zni:  
oldin qandoq bo‘lsam turibman shundoq,  
yuzim –  
o‘sha, ko‘rib yurgandek o‘zim.  
Labimga ohista tegizsam barmoq,  
lablarim ostida tishlarim –  
so‘yloq.  
Aksirgandek tezroq yuzni berkildim.  
Uyga chopdim, oyoqni olgancha qo‘lga.

Mirshablar joyidan berkinib o‘tdim,  
shu payt quloqlarni birdan garanglab:  
«Mirshab! Dum!» degan sas  
taraldi yangrab.

Qo'limni tegizib – dong qotib qoldim!  
Har qanaqa so'yloq tishlardan sofroq  
bir narsani sezmabman o'lguday yelib:  
pidjagim tagidan bir dumki baroq,  
bir dumki – it dumti, yelpig'ichlanib  
ketimda kelardi hilpirab-yelpib.

So'ng?

Biri o'shqirib, odam chaqirdi.  
Ikkinchiga qo'shildi uchinchi, to'rtinchi.  
Ezib yuborishdi qari kampirni,  
jin debmi, nedir deb sho'rlik baqirdi.  
Yuzga hurpaytirib supurgi-mo'ylov,  
katta,  
yovuz  
to'da yoprildi darrov,  
men esa emaklab  
akillab qo'ydym:  
Vov! Vov! Vov!

1915



## LILYAJON!

(*Maktub o 'rnida*)

Havoni achitdi tamaki dudi.  
Kruchenix<sup>1</sup> do'zaxin bir bobি –  
Xona.

Esla –

shu deraza ortida xuddi  
ilk bor  
qo'llaringni silovdim yona.  
Bu kun o'ltiribsan,  
yuraging qulfloq.

Haydab ham solarsan  
bir kundan keyin.

G'ira-shira qorong'i dahlizda uzoq  
titroqdan singan qo'l  
topolmas yengin.

Yugurib,  
ko'chaga otgum o'zni tik.

Tanglik

meni yo'nar,  
yo'qolar hushim.

Kel, shunday bo'lmasin,  
vidolashaylik  
hozirning o'zida,  
azizim,  
yaxshim.

Og'ir tosh-ku axir  
baribir  
sevgim,  
senga oshiq turar  
qochsang ham qayon.

Ma'yus arzlarimning achchig'in –  
so'nggi

<sup>1</sup> Kruchenix do'zaxnin bir bobи... – A. Kruchenix va V. Klebnikovning «Do'zax-dagi o'yin» dostoni nazarda tutilmoxda.

faryod-la o'kirib qilayin bayon.  
Buqani ishlatib qilsalar halak,  
u sovuq suvlarga yotib,  
olar dam.

Mening dengizim yo'q,  
sevgingdan bo'lak,  
sevging orom bermas  
faryod cheksam ham.

Horgan fil oromni qilganda tilak –  
shohona yonboshlar cho'g' qumlar aro.

Mening quyoshim yo'q.  
sevgingdan bo'lak.

Kim bilan qaydasan, – bilmayman ammo.  
Shoирга shunchalik ko'rsatsang jafo,  
U yorni shon, pulga almashar beshak,  
menga-chi,  
zavq bermas biron kuy, sado,  
sevimli nomingning kuyidan bo'lak.

Jarga otilmayman,  
ichmayman og'u,  
tepkini chakkamga qilmayman tirkak.  
Menga hukmronmas biron pichog'-u  
yo xanjarning tig'i,  
ko'zingdan bo'lak.

Tong-la unutarsan  
seni tojdor qilib,  
ishq-la kuydirganim qalbing qatlarin,  
so'ngra puch kunlarning suronli sayli  
kitobchalarimning yirtar betlarin...

Mening qurib bitgan bu hazon so'zim  
harsillab  
to'xtata olarmi seni?  
Loaqal poyandoz qilay, ber izn,  
ketyotgan yo'lingga so'nggi sevgimni.

MUALLIF BU SATRLARNI  
SUYGAN ODAMIGA, YA'NI O'Z-O'ZIGA  
BAG'ISHLAYDI

To'rt mucha.  
Og'irdir zarba singari.  
«Har kimning tegishi o'ziga tegsin».  
Qayerga bosh suqsin  
menday bir harif?  
Qayerda men uchun hozirlangan in?

Men kichik bo'lsaydim  
Buyuk ummonday, —  
qaytmas to'lqinlarning oyoq uchida  
erkalanar edim yuksalib oyga.  
Qaydan topay  
menday  
suyuk insonni?  
Bundayi sig'maydi  
uvoq samoga!

O, gado bo'lsaydim!  
Milliardersimon!  
Pul cho'tmi?  
Qalb ichra to'ymas o'g'ri bor.  
Mening orzularim bevosh olomon,  
oltin yetkazolmas yuz minglab diyor.

Chuchuktil bo'lsam gar  
Dant,  
Petrarkaday!

Bir juvon ko'yida qalbimni yoqsam!  
She'r bilan kul qilsam uni beomon!  
So'zlar ham,  
sevgim ham —  
zafar arkiday:

hamma asrlarning ma'shuqalari  
undan o'tar  
bashang,  
benom-u nishon.

Momaqaldoqday  
sokin bo'lsaydim, –  
ovloq yerning ko'hna butxonasini  
titroq-la quchardim, ingrardim asta.  
Chunki men  
uning bor qudrati bilan  
ulkan ovozimni o'krab chiqarsam, –  
kometalar yongan qo'llarin baland  
ko'tarib,  
hasrat-la otilar pastga.

Men agar  
quyoshday so'niq bo'lsam, oh,  
tunni g'ajir edim,  
ko'zdan tarab nur!  
Shu'lam bilan  
yerning oriqlab ketgan  
bag'rini sug'ormoq  
men uchun zarur!

O'tarman,  
bahaybat sevgimni sudrab.  
Qaysi alahlagan,

nosog' tun aro.  
qanaqa Alplardan  
yaralganman  
men –  
munchalar kattakon,  
keraksiz balo?

## JAVOBGARLIKKA!

Tiriklarga temir tiqishga chorlab,  
urush nog'orasi yangrar beomon.  
Nechun irg'itilar: «Qani bor, bor!» lab,  
tig'ga ne-ne qullar  
har eldan hamon?

Allaqayerlarda  
allakim  
faqat  
Alban yurtin talab  
boyisin uchun  
bug'lanar qon hammom ichra bashariyat.  
Zamin qaltiraydi  
och hamda yupun,

Kimningdir kemasi  
Bosfordan suzib  
o'tsin uchun faqat  
tekin, beozor  
urishar, savashar, dunyoni ezib,  
insonlar galasi bo'g'ishar qahhor.  
Shom ila Iroqni izmiga solib  
yayrasin deb faqat  
kimningdir yuragi,  
toptarlar,  
joningni sug'urib olib,  
Tezda  
qolmas  
dunyoning butun suyagi.

Kimning sharafiga  
bunday atayin  
g'arch-g'arch bosadilar tuproqni,  
gulni?  
Janglar osmonida kimdir xo'jayin –

ozodlikmi?  
Xudomi?  
Pulmi?

Ey sen,  
ular uchun topguvchi zavol,  
qaddingni rasolab tutasan qachon?  
Nega urushyapmiz, degan savolni  
ularning betiga otasan qachon?

1917



## OTLARGA YAXSHI MUOMALA

Tuyoqlar jaranglar.

Quloqda ohanglar:

– Tiq. Taq. Toq. Tuq –

Shamol yalab ketib,

yaxni shippak etib

Ko'cha sirg'aladi.

Bir ot

sag'risi-la gurssa dumaladi.

Shundan keyin darrov

merovdan so'ng merov

Kuznetskga shimin

klyosh qildirgani

kelganlar to'plandi,

yangroq kulgilarga qah-qahlar ulandi:

– Ot yiqilib tushdi! –

Bir ot quladi! –

Kuznetsk tinmay kuladi.

Faqat men g'avg'o-yu

bu gap-so'zlarga

qo'shilmasdan turar edim jim.

Borsam,

ko'zim tushdi

otning ko'zlariga.

Ko'cha seskanardi,

borardi oqim...

Bordim, boqdim unga –

yirik-yirik ko'zyosh

tumshug'idan sizib

berkinardi junga...

Qandaydir umumiy

hayvoniy g'am ezib

ichimdan to'kildi  
shaloplab shunda:  
«Qulq soling, e ot.  
Qo'ysangiz-chi, e...  
Fikringizcha, ulardan yomonroqmisiz?  
Voy toycham-ey!  
Hammamiz sal-pal otmiz, ot.  
bizning har birimiz bir qadar otmiz».

Qari ot  
enagaga  
zor emasdир ham,  
qabih ko'ringandir fikrim ham balki,  
faqat  
ot  
silkinib turdi-da shaxdam  
kishnadi,  
yo'l bosdi oyog'-u ilki.  
Dumin silkip qo'ydi,  
Saman toyday sho'x.  
Gijinglab keldi-u  
otxonaga kirdi.  
Endi u o'ziga o'zi ko'ngil to'q  
yashargan qulunday ko'rinar edi,  
arzirdi yashasa,  
ishlasa arzirdi.

1918

Miraziz A'zam tarjiması

## ISHCHI SHOIR



Shoirga baqirishar:  
«Seni ko'rsaydik  
Tokar stanogi yonida – ishda.  
She'r yozish nimadir?  
Bir bekorchilik,  
«Ish desa qo'lginang qovushmas hech-da».  
Ehtimoldirkı,  
biz uchun mehnat  
har qanday yumushdan  
eng yaqinroqdir.  
Men ham fabrikaman.  
Trubam yo'q faqat,  
demak, trubasiz –  
ish qiyinroqdir.  
Bilaman,  
Sevmaysiz quruq gapni siz.  
Yog'och qiymalaysiz – bu ham, axir, ish.  
Nima,  
sizday xarrot emasmizmi biz?  
Osonmi – odamlar boshin naqsh etish.  
Albatta,  
sharaflı – baliq ovlamoq,  
agar osetralar  
ilinsa to'rga.  
Lekin shoir ishi  
ko'p sharafliroq,  
u tirik odamni tushirar qo'lga.  
Ulkan ish – qo'rada qizdirib o'zni,  
temirni toblamoq o't qalovida.  
Lekin  
bekorlikda kim ayblar bizni?

Miya pardozlaymiz til egovida.  
Qay biri balandroq –  
shoirmi, texnik,

qay biri insonga berar naf, unum?  
Ikkisi ham.  
Qalb ham xuddi motordek,  
murakkab parrakday jon ham betinim.  
biz tengmiz.  
O'rtoqmiz ishchilararo,  
biz proletarning ruhi va tani.  
Birlashib  
olamga beramiz oro,  
Marshlarni yanada jaranglatgani.  
So'zlar bo'ronidan saqlanib omon,  
yangi, jonli ishga  
tez qo'shaylik bosh!  
Po'kak notiqlarni kutar tegirmon!  
Nutq suvi bilan  
yuritsinlar tosh.

1918

Jumaniyoz Jabborov tarjimasi



## MAJLISBOZLAR

Tun o'tib, ketidan tong otar-otmas,  
har kun ko'ramanki:  
odamlar qator –  
birov komitetga,  
yo mahkamaga,  
birovlar – «boshqar», –  
birovlar «ma»ga –  
xullas, ko'chalarga to'lib yugurishar,  
har xil idoraga oqar kishilar.  
Kirib ketildimi idoraga, boq:  
qog'ozlar yomg'iri yog'ar beomon,  
qirq-ellik qog'ozni g'oyat muhimroq –  
deya xizmatchilar ko'tarib shu on  
tarqalishar tezdan majlislar tomon.

Arz etsang:

«Kattakon qilurmi qabul?  
Ko'pdan ovoraman, soling esiga».  
«O'rtoq Ivan Vanich majlisga ketdi –  
Teo<sup>1</sup> va Gukon<sup>2</sup>ning uyushmasiga».  
Yuz narvon yurasan, seni bosar ter.

Tag'in:

«Bir soatdan keyin keling!»

Der.

«Boshliqning majlisda bor muhim ishi:  
kooperativga bir shisha siyoh  
sotib olishlikni ko'rishar!»

Voh-voh

Ammo bir soatdan

so'ngra na kotib

<sup>1</sup> Teo – Teatralniy otdel (Teatr bo'limi) so'zlarining bosh harflaridan tuzilgan.

<sup>2</sup> Gukon – Glavnoye upravleniye konnozavodstva (Nasldor otlar yetishtirish boshqarmasi) so'zlarining bosh harflaridan tuzilgan so'z.

va na kotiba bor,  
Hamma yoq xoli!  
Chunki to 22 yoshgacha  
hamma xizmatchilar bo'lar ekan band  
komsomol chaqirgan majlisda hali,  
Kech ham bo'lib qoldi, tun kelar ana,  
chiqaman yettinchi qavatga yana.  
«O'rtoq Ivan Vanich keldilarmi-a?»  
«Yo'q, a-be-ve-ge-de-ye-je-ze-komning  
majlisida ular bandlar hamona».  
Darg'azab kiraman  
majlisga birdan,  
bir vulqon singari bosib kiraman.  
Hayqirib so'kaman yo'l-yo'lakay man,  
ammo odamlarni,  
odamlarni-chi:  
nimta-nimta bo'lib qolgan ko'raman.  
Ajabo, yo tavba,  
Bu qanaqa sir!  
Bu bechoralarning yortisi qani?  
«Bularni so'yishgan!  
O'ldirishgandir!»  
Aqlim aynib ketib bo'lurman jinni.  
Dovdirab yuraman na'ralar tortib.  
Birdan eshitaman gapirar kotib  
G'oyatda xotirjam bir ovoz bilan:  
«Ular ikkitadan majlisda birdan  
o'tiribdilar ayni zamonda.  
Kuniga yigirma majlis o'tkazmoq,  
bularga ulgurmoq lozim ekan-da!  
Shu uchun noiloj bo'linmoq kerak!  
Belgacha bunda-yu,  
qolgani – unda».  
Tashvishdan men bedor, o'tadi kecha,

men xayol suraman to sahargacha;  
muntazir kutaman men tongni olis:  
«oh, koshki  
tag'in bir qilib hafsla  
bir kun chaqirilsa so'nggi bir majlis  
va unda ko'rilsa astoydil, xolis,  
«har xil majlislarni shunda butunlay  
yo'q qilish haqida yaxshi masala!»

1922

*Maqsud Shayxzoda tarjimasi*



## O'RTOQLAR, YO'L QO'YMAYMIZ!

Mana,  
zo'r urushga yasaldi yakun,  
Tarix kotiblari yozar  
yilnama.  
Ammo aka-uka,  
qadrdonlar uchun  
hamon  
raqamlarda faryod-u nola.  
O'ttiz  
million jonni  
nishonga oldilar,  
yuz million dillarda  
aza, dod, alam.  
Ammo tayyorlanayotgan  
urush oldida  
bir shaqildoq xolos  
bunday jahannam.  
Asirlikda yag'ir bo'lgan  
yelka,  
xirurg stolida  
qolgan qo'llar, oyoqlar,  
kuz kunlari yallig'langan  
yara,  
shaqir-shuqur etgan  
qo'ltiqtayoqlar,  
ilma-teshik lunjlar...  
Bari, baridan,  
barining nomidan  
qichqir,  
bas, achchiq tovush bilan  
qichqir, ey jahon:  
– Doloy!  
Yo'l qo'yaymiz!  
Yo'q!  
Kerak emas!

Dushman bo‘lmas  
millatga  
millat.  
Irqnini tinchlik yovi  
chiqargan o‘ylab.  
Jahon ishchilari,  
batrag-u qarol,  
adovatga emas,  
kurashga qo‘zg‘ol!  
Olg‘a bos  
proletar qo‘shini bo‘lib,  
so‘nggi shtiklarni  
atakaga sol!  
«Kapitalist sinfi  
jilovlanmay turib  
tinchlik  
haqidagi gap  
quruq xayol».  
Buzingiz  
talanchi burjuyning  
tushin,  
dor tagiga  
sudrang  
shoh-korollarim,  
Millionlarning  
million asr  
tinchligi uchun  
yo‘q qiling  
bir hovuch  
haromxo‘rlarni!

1924

## BLEK END UAYT<sup>1</sup>

Gavanaga

razm solsang mundoq –  
o'lkamisan o'lka,  
jannatning o'zi  
xurmo soyasida  
tovus –  
yolg'izoyoq,  
keta-ketguncha gul  
Vedado<sup>2</sup> yuzi.

Bunda

hamma narsa aniq belgili:  
oqlarda dog'lar bor,  
qoralarda – yo'q.

Intizor

supurgi ushlagan Villi  
ish bermasmikin deb  
«Enri Kley end Bok».

Ko'p axlat supurgan

umrida Villi,  
bir o'rmoncha kelar  
supurgan changi,

Bu ishda

Villinling  
sochi to'kildi,  
ichiga yopishib ketgan ichagi;  
ko'ngilsiz, quvonchsiz o'tadi umri,  
olti soat chala uyqu, och.

Qochayotib

portdan  
inspektor – o'g'ri  
bir sent tashlab o'tsa, negrga – quvonch.  
Loy-changdan qutulib bo'larmi hech vaqt?  
Odamlar bosh bilan yursa – bo'lak gap.

<sup>1</sup> Blek end uayt – oq va qora.

<sup>2</sup> Vedado – shahar chekkasidagi boylar mavzesi.



qo'lidan  
supurgi  
tushadi nochor.  
Xuddi o'sha savol yodga tushgan chog'  
sig'ar qirolining oldiga  
go'yo oq bulutday ko'pirib, oppoq,  
ulug' qand qiroli kelib qoldi-da!  
Negr  
yaqinlashdi beso'naqay go'shtga:  
«Ay beg yor pardon, mister Bregg!  
Qand-ku, oppoq narsa,  
uni chiqarishda  
nega qora negr  
ishlashi kerak?  
Sizga yarashmaydi  
bu qora sigar.  
U qora mo'yabli  
negr uchun bop.  
Qandli choyni  
xush ko'rsangiz agar  
o'zingiz qand yasang,  
marhamat, janob!»  
Bunday gapning  
oqibati yomon.  
Qirolning oq yuzi  
sariq tus oldi,  
astari chiqqanday;  
urgani zamон  
qo'lqopin tashlab,  
jo'nadi-qoldi.  
Atrofda  
ajoyib  
bog' chechak otar,  
bananlar chirmangan – yaxlit soyabon,  
negr poychasiga qonli qo'lin artar,  
negrning

burnidan tinmay oqar qon.  
Negr  
    qiya boqyai  
        pachoq buringa,  
supurgisin oldi, ushladi belin.  
Bu masala bilan  
    Moskvaga,  
          Kominternga  
murojaat qilishlikni  
              qayoqdan bilsin?

1925



## SHOIRLARGA MAK TUB

(Parcha)

Poeziyada

bo‘lmas oshna, qarindosh  
hech vaqt

kelmas qofiyada

oshnachilik qo‘l,

yo‘qolsin

ulashmoq

orden, mukofot,

tamg‘a yelimlashni

tashlaylik butkul.

Yangi fikr bilan

maqtanish emas,

lekin shuni takror

qilaman jo‘shib.

Kommuna shunday joy –

mansabdar bo‘lmas,

aksincha, ko‘payar she‘r bilan qo‘shiq.

Ba’zan

qofiyaga

qolamiz hayron,

shoirchasin ataymiz,

birdan geniy deb,

birini ataymiz –

bu qizil Bayron,

birini aytamiz –

qizil Geyne deb.

Sizga ham,

menga ham

xavfli bir narsa –


maydalashib qolmasa

deyman qalbimiz,



komunistik qasrga  
olib kirmasak  
bema'ni lapar-u,  
alyorlarni biz.  
Biz ruhan bir kishi,  
yaxshi bilasiz.  
Farq-u tafovutdan  
xolidir yurak. Agar,  
siz biz bilan  
va siz bilan biz –  
bo'lmasak,  
ishlamak o'zi ne kerak?  
Vaqt kelib; sizlardan  
o'tib ketsam gar,  
sizlarga o'qtalsa  
qalamim-qo'lim.  
demak,  
zahmat-la keldi menga bu zafar,  
sizdan ko'ra ko'proq qofiya yo'ndim.  
O'rtoqlar,  
tashlaylik savdo gaplarni, –  
mening poeziyam –  
mening kapponim!  
Nimaiki qilibman,  
sizniki bari –  
tema-yu, qofiyam,  
yangroq dostonim!  
Shuhratdan injiqroq,  
mo'rtroq, nima bor?  
Go'rga eltamanmi shuhratni o'lgach?  
O'rtoqlar,  
tuflayman takror va takror  
Har xil mayda-chuyda  
shuhratga, pulga!

Shuhrat talashmoqlik  
emasdir maqsad,



nafis,  
o'tkir so'zni ko'p uymoq kerak.  
Kommuna qurilishiga  
benom, behasad  
otashin so'zlardan  
g'isht qo'ymoq kerak.  
Bir safda tashlaylik,  
do'stlar,  
kerakmas soxtalik,  
qadamni,  
vaysaqi mijg'ov.  
So'kishmoq istasak –  
qizil barrikadaning  
narigi yog'ida  
hali ko'pdır yov.

1926



## LAGANBARDOR

Bu toifa  
yelim singari  
shakli notayindir,  
muloyim:  
bizning  
davrimizda  
ko‘plari  
oramizdan topadi joyin.  
Petr Ivanovich Boldashkin –  
aqli sayoz,  
pachoq gavdasi.  
Bujirlari yuziga urgan,  
bekorga qo‘qqayib  
qizarib turgan  
kalla emas –  
tayoq qubbasi.  
Bu nusxani,  
bir meva kabi,  
isitar  
boshliqning  
shafqat quyoshi.  
Sir nimada?  
Qani sababi?  
Har vaqt o‘ylab  
qotadi boshim.  
O‘nglanib boradi  
hayoti;  
men qoralab yozmayman  
uni.  
Uning xazinasi –  
talanti –  
mayin mulozimat  
usuli.  
Qo‘lni yalar,

yalar oyoqni,  
belni yalar,  
yalar pastroqni,  
go'yo mushuk bola  
onasin yalar,  
go'yo itni  
yalar  
kuchuk bolalar.

Til  
qirq metr  
chiqqan cho'zilib  
boshliqni  
quvgali izma-iz,  
ko'piklanib ketgan  
oppoq bo'lib,  
soqol olsa bo'lar  
sovunsiz.

Jazavasi tutib, harsillab,  
aql yetgancha  
maqtaydi sizni –  
yurak og'rig'ingiz,  
staj-u  
mansab;

mardligingiz,  
so'galingizni.  
U amal orttirar  
tobora,  
unga qarab  
tutishadi ish.

Qaydadir  
bir katta idora  
shu odamga  
topshirilganmish.

Endi  
jilov qo'lga tushdimi –  
xushomadga hammani o'rgat;

tupuk sochib so'zlar:  
— boshliqni  
hurmat qilish  
kerak,  
ha, hurmat!—  
Tomosha qilamiz  
oh-voh deya:  
avj oladi  
shular dastidan  
ashaddiy bir iyerarxiya  
kulib  
demokratiya ustidan.  
Supurgiday kezib  
past-yuqorini,  
to'zg'itib  
supursang  
barini —  
ham homiylik topgan  
laganbardor-u  
ham ularning  
homiyalarini.

1928



## TATYANA YAKOVLEVAGA XAT

Qo‘lingdanmi  
yoki labingdan o‘psam,  
taning titrog‘ida  
jonimday aziz  
jumhuriyatlarimning  
qizil  
rangi ham  
alangananishi lozim  
shubhasiz.

Parij sevgisiga  
mening hushim yo‘q.  
modacha keltiring  
ipakka o‘rab,  
u badnafs itlarga –  
tek tur! – deya

Do‘q  
uraman,  
cho‘zilib yotaman mudrab.  
yolg‘iz sening bo‘ying  
bo‘yim bilan teng,  
qoshingni  
qoshimga  
qani tenglab tur,  
ushbu muhim oqshom  
to‘g‘risida men  
kel, hikoya qilay  
odamday  
bir qur.

Soat besh,  
shu paytdan  
tinchiy boshladi  
odamlarning qalin o‘rmoni,  
aholi joylashgan shahar  
bo‘shadi,  
faqat Barselona

poyezdlarining  
 eshitardim  
 hushtak suronin.  
 Chaqmoqlar odimi  
     gora osmonda,  
 samoviy mojaroda  
     so‘kishlarning  
         gurrosi,-  
 bu – jala emas,  
 yo‘q,  
     balki bu onda  
 tog‘larni qo‘zg‘atmoqda  
     bir rashk balosi.  
 Ishonma  
     teskari-telba so‘zlarga,  
 seni cho‘chitmasin  
     ushbu siltovlar,  
 oqsuyak nasllarning  
     tuyg‘u-hislarin  
 men tiyib qo‘yaman  
     so‘liq-jilovlab.  
 Ishqning qizamig‘i  
     o‘tar yaralab,  
 quvonchlari uning  
     qurimas biroq.  
 Men esa so‘zlayman  
     baylab-misralab  
 so‘zlayman jo‘ngina,  
     so‘zlayman uzoq.  
 Rashk,  
 xotin,  
 ko‘zyoshlar...  
     e qurib ketsin!..  
 Viyqovoq<sup>1</sup> qiladir

<sup>1</sup> Viyqovoq – N. V. Gogol «Viy» degan qissasida yozishicha, ajinalar boshlig‘i Viyning qovog‘i shishganidan yergacha osilib turarkan.



Kel mening beo'xshov  
hamda kap-katta  
qo'llarim chorsisiga kel,  
bu yoqqa kel.  
Xohlamasang...

qishla,  
qolaver yo'lida,  
hisobga qo'shamiz  
bu alamni ham.

Men  
seni  
baribir olaman qo'lga –  
o'zingni  
yo Parij ikkalangni ham.

1928

Miraziz A'zam tarjimasi



## ARBOB

O'rtoq Popov

                          qariyb dehqon bo'lgan  
qariyb

                          stanokdan chiqqan bir odam.

Hatto partiyali,

                          ammo cho'chib qolgan,  
bo'g'ilib,

                          o'zicha to'ng'illar har dam:  
«Gazetani ochsang

                          tanqid bilan to'la,  
zil ketib qulay der

                          har qanday

xarsang.

Boplashadi.

Kimni?

                          Soching tikka bo'lar  
undagi obro'li nomlarni ko'rsang.

Bu –

                          obro' to'kish-ku,  
                          chuqur qazish-ku...

Tanqidda ham,

                          mundoq,  
                          ehtiyot shart-da.

Bular bo'lsa

                          na daraja,  
                          na staj, obro',  
na mansabni demay,

uradi shartta.

Pastdan

                          tanqid qilish –  
                          bamisli zahar.

Yuqoridan bo'lsa,

mana bu – malham.

Axir

                          qanday qilib yo'l qo'yib bo'lar

pastdan

tanqidbozlik qilsa

hamma ham?!

Nuqsonimiz ko'p deb

dodlaymiz kunda.

Yana

gazetada rasvo bo'l emish!

Ha, xo'p, xato qildim...

Axir trestimda

revkomissiya bor,

u qilsin taftish!

Axir ustunlarga til tegizmasdan,

og'a-inilarcha,

mundoq,

beshov-shuv,

chaqirib:

– xo'sh,

o'rtoq Popov,

asta ish ko'rgin, ha,

u – bu... –

deyish mumkin-ku.

Ko'ngling ayniguncha yopishar qo'ymay...

Surkab tashlashadi

qop-qora kuya.

E o'rtoqlar,

axir,

bunchaligi, hay-hay,

davlat negizlarin

qo'poradi-ya!

Kimni tanqid qilishadi? –

Kekirtagini


yirtguday,

chinqirar,

tovushi bo'g'ilalar.–

Kecha –

Ivanovni,



bugun esa –  
meni,  
erta –  
sovnarkomga yetadi bular!»  
Qo‘ying,  
o‘rtoq Popov,  
yurmang jirillab.  
«Qo‘porish»-u «obro‘ to‘kish» –  
bari soxta gap,  
Biz hammani chaqiramiz:  
tanqid bizda  
marazlarni qirsin,  
chekinmay,  
dadil,—  
bu  
bizlarning sofligimiz,  
qudratimizga  
eng yaxshi dalil.

1928



G'IYBATCHI

Pyotr Ivanovich Sorokin	muz kabi sovuq.
ehtirossiz –	
Nuqsonlar unga yot,	hattoki
ichish,	chekish odati ham yo‘q.
Uni	faqat
suvday toshib,	bir ishqibozlik,
telefonga	jarlikka sudrar –
osilib turishni	xuddi sirg‘adek
G‘iybat bilan	xush ko‘rar.
takaday	qovurilib
shataloq otadi,	pishgan,
birinchi	
eslagan	yangilik aytgali
tanishga	chopadi.
Nafasi tiqilib,	xirillab
ich-ichingga	o‘rmalab kirib
gapirodi	
qo‘shib,	
to‘g‘rilab,	
o‘zining behayo ikir-chikirin.	
Qo‘lni siqqach,	

boshlaydi sekin:  
«Ichagingiz uzilar –  
aytsam –  
Aleksandr  
Petrovich  
Bryukin –  
kotibasi bilan  
ko‘p mahram...  
Testouv bor-ku, Ivan Ivanich,  
borib turgan injener  
bizda,  
yillik safaridan qaytarmish  
xotinining yoniga tezda.  
Xotinchasi bo‘lsa...  
uzr,  
sir bu gap,  
bo‘yida bor...  
janjal bo‘ladi.  
Ha, aytgancha –  
shaharda  
duv gap:  
bir kuni  
tushida...»  
u labin  
go‘shtdor kafti bilan bekitdi,  
dahshatdan  
yuzlari chizilib ketdi:  
«Avstraliyaga –  
yana yangi gap! –

gubkom  
ultimatum beripti».  
Yangilikni  
qo‘shib-chatib,  
jamlab, mana shu g‘alati  
mish-mishga tupuk bilan  
yopishtirar-da, uni

qo'shni qozonda pishgan  
sho'rva bilan  
qorishtirar-da, hammaga yetkazar.  
Kim nima yeidi, yangi xushtor  
bormi, yo'qmi,  
kim, Ivanova  
yangi shuba kiydi, kimning  
himmatidan bo'lsaykin... Bundaylardan:  
eng katta armon  
Sizning uchun nima? –  
deb so'rasang, deydi:  
armon shuki,  
jahon –  
kattakon eshik tirqishidan  
iborat bo'lsa. Toki,  
yarim beldan  
unga suqulsang, Bazo'r yig'ishtirib  
so'laging,

hadeb to'yib  
tomosha qilsang birovlarining ishin,  
to'shagin.

1928

Asqad Muxtor tarjimasi







## VLADIMIR MAYAKOVSKIY

Muqaddima, ikki voqeа, xotimadan iborat pyesa

### Qatnashadilar:

*Vladimir Mayakovskiy (20–25 yoshlardagi shoir)*

*Uning tanishi (bo 'yi 2–3 sarjin keladigan ayol. Gapir-maydi)*

*Quruq, qora mushuklarni ko 'tarib olgan chol (bir necha mingga kirgan)*

*Ko 'zsiz va oyoqsiz kishi*

*Quloqsiz kishi*

*Kallasiz kishi*

*Ot yuzli kishi*

*Bir juft bo 'sali kishi*

*Oddiy yigit*

*Ko 'zyoshlari mayda juvon*

*Ko 'zyoshli juvon*

*Ko 'zyoshlari yirik juvon*

*Gazetchilar, bolalar, qizchalar*

*va h.k.*

## MUQADDIMA

O‘tayotgan yillarning nonushtasiga  
xotirjam,  
mazaxlar dahshatin solib,  
tovoqda  
qalbimni eltayotirman,  
negaligin siz ammo anglarmidingiz.  
Maydonlarning qirilmagan yonoqlaridan  
keraksiz ko‘zyosh kabi oqayotgan  
ehtimol  
men – so‘nggi shoirdirman.  
Sizlar payqagandirsiz –  
toshloq xiyobonlarda  
osilgan xunoblikning  
chayqalar yo‘l-yo‘l yuzi,  
yugurik daryolarning  
ko‘pik tomoqlaridan  
temir qo‘lli ko‘priklar  
ushlab turipdi ezib.  
O‘ksinib yig‘lar falak,  
ovozi tarak-tarak,  
bulutning lablarida  
bujmayib ketdi ajin,  
bamisoli bir xotin  
farzand kutganda tiyrak  
xudo unga berganday qiyshiqqina bir tentak.  
Sariq-sariq qil bosgan  
biqqi barmoqlar bilan  
quyosh sizni erkalar so‘naday surlik qilib.  
Sizning qalblaringizda bir qo‘l o‘pilgan obdan.  
Men chiroqlar shohiman!  
Simlarning asabidan

tortilgandir qalb torim;  
men qo‘rmasman!

Kunduzgi

nurlarga nafratimni  
asrlarga obordim.

Hey, choshgoh sirtmog'ida bo'g'ilib dod etganlar,  
hey, sukutni yirtganlar,—  
qani, keling qoshimga,  
men fanorlar yoyiday guvullagan, porlagan  
yangi qalblarimizni  
ma'rashday oddiy so'z-la  
sizlarga ochib tutay.

Men faqat barmog'imni boshingizga tegizsam,  
hamma xalqlarga aziz  
tilingiz, lablaringiz  
ulkan bo'salar uchun cho'zilib o'sib chiqar.

Men esa  
asta-sekin  
oqsagan qalbcham bilan  
nuragan falak bo'ylab  
yulduzlardan teshilgan  
taxtim sari ketarman.  
Yalqov kiyimlarimda  
haqiqiy go'ngdan bo'lgan yumshoq yotoqqinamga  
yotarman shu'la sochib  
va asta tizi bilan  
ipallarni o'pguvchi  
parovoz g'ildiragi bo'ynimni quchoqlagay.



## BIRINCHI

### VOQEА

*O'yin-kulgi. Sahna-shahar ko 'chalarida mezonlar. Gadoylar bayrami. V. Mayakovskiyning bir o'zi. O'tkinchilar yemak – viveskadagi – temir balqni, kattakon oltin kalachni, sariq barqut burmalarni olib keladilar.*

#### V. Mayakovskiy

Muhtaram janoblar!  
 Qalbimni yamang,  
 to qalbimdan bo'shliq silqib turmasin  
 Tupuk – haqoratmi, yo'qmi, bilmayman.  
 Men toshxotin kabi quruqman, hozir.  
 Muhtaram janoblar!  
 Meni sog'ishdi.  
 Lekin xohlaysizmi,  
 shart turib hozir  
 sizga o'ynab berar ajoyib shoir

*QURUQ. Qora mushuklarni ko 'tarib olgan chol kirad». Silaydi. Soqoli o'siq.*

Semizlarni po'choq-uylardan toping  
 va shodlikni uring chirmandaqorniga.  
 Esi past, karlarni poyidan torting  
 va puflang nay qilib, quloq-burniga.  
 G'azab bochkalarin teshingiz tagin,  
 men qaynoq o'y – toshni yeyman-ku hadsiz.  
 Baqiroq tost aytib tursangiz bugun  
 telbalik ikkimiz nikohlanamiz.

*Sahna asta-asta to 'la boshlaydi. Qulqosiz kishi, Kallasiz kishi va h. k. kallavaramlar. Tartibsiz turib, ovqatlanishda davom etmoqdalar.*

#### V. Mayakovskiy

Olmos misralarning  
 daydi zargari,

o'zga uylar parin to'zg'itib butun,  
shunday boy, rang-barang bechoralarning  
yoqay olamshumul bayramin bugun.

## Mushuklarni ko'targan chol

Qo'y.

Dono-oqillar shiqildoqlarning  
ermagiga uchmas.

Men – ming yashar chol,  
ko'ryapman: sendagi bu hirring-hirring –  
aslida xo'rangan qichqiriq behol.

Yuzlab mayda-chuyda kichik alamlar  
va bir katta alam shaharda yotar.

Qag'illab bahslashgan chiroqlar, shamlar  
shivirlagan tonglardan o'tar,

Hukmin o'tkazolmas bizga mayin oy,  
olifta, o'tkirroq – fonus-chiroqlar.

Shaharlarga hokim bo'lib hoynahoy,  
bizni ham o'chirar jonsiz matohlar.

Olomon dod solar. Uning bu holin  
ko'rib telbalanar falakda xudo.

Yo'llarda chang yegan juldur soqolin  
tutamlab qo'yar u, bo'lib norizo.

U – xudo,

«Jazolang!» der na'ra tortib.

Sizning joningizda esa – eski oh.

«Oh»ni otib soling!

Boring-da,

Quruq, qora mushuklarni siypalang har chog'!

Kerilib meshsimon qornin ushlaysiz,  
puflaysiz yaltiroq lo'ppi yuziga.

Yungi qora tusli mushuklarning siz  
ovlaysiz elektr o'tin ko'zidan.

G'oyat mo'l-ko'l bo'lar bu o'tlar ovi,  
ularni simlarg'a qo'ysakmi butun –  
tramvaylar yurar, chiroqlar olovi  
zafar bayrog'iday hilpirar har gun.

Quvonchdan qimirlab qoladi jahon,  
har bir derazada tovuslanar gul,  
endi temir izda kezar har inson,  
orqada: qop-qora mushuklar nuqlu!  
Qizlarning egniga qadaymiz quyosh,  
to‘g‘nag‘ich qo‘yamiz yulduzlardan ham.  
Uyingizdan olib ketingiz-da bosh,  
quruq, qora mushuklarni silang dam-badam!

### Quloqsiz kishi

Bu – haq gap!  
Parraqlar dastasi turgan  
shaharning ustida  
qovoqlari naq  
qorong‘i g‘or kabi xotin kezmoqda,  
tuflar yo‘lkalarga,  
tupuklaridan  
ulkan nogironlar o‘sмоqda.  
Shahrimizda allakim  
zo‘r gunoh qilgan, balkim...  
Atrofga odam to‘lib  
chopmoqda poda bo‘lib.  
Gul qog‘ozda, qop-qaro  
qadah soyasi aro  
tirishgan chol shu mahal  
yig‘lab chalmoqda royal.

### Atrofini o‘raydilar

Shaharni qiynamoqda vahima, azob ming-ming.  
Notalarga tegsangiz, barmog‘ingiz bo‘lar qon!  
Muzikachi chol esa quturgan klavishning  
tishlaridan qo‘llarin tortib ololmay hayron.

### Hamma hayajonda

Mana bugun ertalab  
dilni g‘ash qildi ahvol:

maymoq bo'lib yurdim men,  
qo'limni osiltirib.  
Tomda tarnovkarnaylar  
raqsga tushib bemalol  
44 raqamin tiz-la tunkaga yozdi surib.  
Janoblar!  
To'xtab turing!  
Bizga shu ishmi ravo?!  
Hatto tor ko'chalar ham mushtlashishga bo'lgan  
shay.  
Hasratim ortib borar  
xavotirli, bedavo,  
yig'layotgan kuchukning tumshug'ida ko'zyoshday.

Hayajon yanada ortadi  
Mushuklarni ko'targan chol  
Narsalarni yoqing!  
Ko'rdingiz mana!  
Men bekor ularni yov deb bilmovdim!

Ot yuzli kishi  
Narsalarni sevmoq lozimdir yana?  
Narsalarning joni o'zgadir, balkim?

Quloqsiz kishi  
Ko'p narsa tikilgan poyma-poyiga.  
Dil kekni eshitmas.  
Yo'q – jahl qilmoq.

Ot yuzli kishi  
(sevinib boshini liqillatadi)

Odamdan ochilgan Og'iz joyida  
ko'plab narsalarga tikilgan quloq!

## V. Mayakovskiy

(Башк. с.)

(*Qo'l ko'taradi, so'ng o'rtaga chiqadi*)

Sizga,  
farzandlarim,  
beray zo'r saboq:  
dil tubin kek bilan  
moylay ko'rmangiz!  
Xudoning boshida bor katta qalpoq,  
qalpoqqa qo'ng'irot –  
sizning hammangiz.  
Oyog'im  
izlashdan to qavarguncha  
sizning yeringizdan  
qandaydir qadim  
qorong'i, niqobli yurtga borguncha  
hamma o'lkalarни aylanib chiqdim.  
Har yerda  
izladim  
mislsiz bir jon,  
shifobaxsh guliga yaram labini  
bir marta bosay deb qidirdim imkon.

(*To'xtaydi.*)

Qonli terga botib  
qul kabi yana  
bukaman jinnilik bilan tanimni.  
Darvoqe,  
bir marta  
jonne uchratdim.  
Kutib oldi ichki ko'yakda meni.  
«O'tiring!  
Men ko'pdan kutardim, – deydi.  
Choy-poy ichasizmi?» – deydi, so'raydi.

(To 'xtaydi.)

Men shoir odamman,  
men o'z shaxsim-u  
barcha o'zga shaxslar  
farqin o'chirdim.  
Singlim-u opamni izlab morglardan,  
ne-ne bemorlarga bo'sa-gul surdim.  
Bugun esa mana  
sariq gulxanga  
ko'z yosh dengizimni quydim churroq,  
oqsoch onalarning ajinlari va  
shayladim singillar orin, naq yaroq!  
Yalangan zallarning laganlarida  
seni yeb tashlaymiz go'sht kabi, zamон!

*Choyshabni olib tashlaydi. Bahaybat bir xotin. Vahima Oddiy yigit yugurib kiradi. Hovliqadi.*

### V. Mayakovskiy

Muhtaram janoblar!  
Braziliyada  
derlarki,  
bor emish baxtli bir inson!

### Oddiy yigit

(Har kimning oldiga borib, tortqlayveradi)

Muhtaram janoblar!  
Shoshilmang!  
To'xtang!  
Muhtaram janoblar!  
Janob,  
hoy janob,  
menga tezroq aytинг gapning chinini:  
inson ham yoqarmi o'z onasini?  
Janoblar!

Odamning miyasi o'tkir,  
ammo boshin egar:  
olam to'la sir,  
kitoblar,  
bilimlar durdonasini  
gulxanga otyapsiz, yoqyapsiz axir!  
Men kotlet yasovchi mashin o'yladim.

Alqim yomon emas!

Bir tanishim bor,

(Birga)  
bilsangiz,

yigirma besh yildan buyon  
burgatutar qopqon ustida ishlar.  
Mening xotinim bor,

hamma biladi,

yaqinda tug'adi o'g'il yoki qiz.

Siz esa iflos so'z so'ylaysiz tagdor!

Tag'in ziyolisiz!

Alam qiladi.

**Quloqsiz kishi**

Yigit, qutiga tur!

**Olomondan birov**

Yo bo'chkaga chiq!

**Quloqsiz kishi**

Gapisang odamga ko'rinish gapir!

**Oddiy yigit**

Nimaga kulasiz?!

Mening ukam bor,

o'zi mittigina, hamma biladi,

Kelasiz ukamning suyagin yeysiz!

Barini yegingiz keladi.

*G'ovur-g'uvur. Duduqlar. Sahna ortida: «Ishton! Ishton!» degan qich-qiriqlar.*

V. Mayakovskiy

Qo'ying!

*Oddiy yigitni har tomondan o'rab oladilar.*

Menday och bo'lsaydi  
agar qorningiz,  
is bosgan zavodning badburush afti  
osmonning suyagin g'ajigan kabi  
mag'rib-u mashriqning ufqin  
yerdingiz!

*Oddiy yigit*

Muhabbatning qadri bir pulmi, demak?  
Mening bir singlim bor,  
Ismi Sonyaxon!

(tiz cho 'kadi)

Azizlar!  
Uvol-ku qon to'kmak!  
Jigarlar!  
Mutlaqo kerakmas gulxan!

*G'ovur-g'uvur oshadi. Otishmalar. Bir xil ohangda tarnovkarnaydan oqayotgan suvning ovozi eshitila boshlaydi. Tunuka tomlarda yomg'ir gu-vullaydi.*

Ot yuzli kishi

Menday sevsaydingiz hammangiz,  
sevgini o'ladirar edingiz  
yoki topardingiz biror maydonni,  
yotqizib ter bosgan dag'al osmonni  
ma'sum yulduzlarni zo'rlar edingiz,

Quloksiz kishi

Sevishni bilishmas sizda ayollar  
kiruyvg'ichday shishgan obdan o'pilib.

*Maydonning tarang qornini minglab oyoqlar toptay boshlaydi.*

### Ot yuzli kishi

Ammo jonio dan ham tiktirsa bo'lar  
unaqa motkani  
chiroyli qilib!

*Hayajonlar maydonni yorg'uday. Hamma bahaybat xotinning atrofida.  
Uni chalqanchasiga qulatadilar. Sudraydilar.*

### (Birga)

Bo'lmasa ketdikmi oldinga, qani –  
payg'ambar bashorat qilgan chog'ida  
parchinlangan yerga qarab yuramiz,  
yalang'och raqs uchun beramiz tanni,  
gunohlar, ayblarning qora tog'ida  
qizil go'shtga atab haykal quramiz.

*Eshikkacha sudrab boradilar. U yerda shoshilib kelayotgan Ko'zsiz va  
oyoqsiz kishi paydo bo'ladi. Nihoyatda shod. Telbalik susayadi. Xotinni  
tashlaydilar.*

### Ko'zsiz va oyoqsiz kishi

To'xtanglar!  
Sizlarga aytay ajib sir:  
hamma  
yuzda bir xil g'am bilan ayon  
yurgan ko'chalarda  
kampir-vaqt hozir  
tug'di  
qiysi qo'zg'iz haybatli isyon!  
yerning sohiblari  
qo'zg'algan yilning  
tumshug'i oldida bo'ldilar karaxt,  
kek esa,  
shaharning peshonasida  
tomir-daryolarga pufladi sershaxt.

Vaqlarning tepakal miyasi uzra  
qo‘rqib  
tikka bo‘ldi  
sochlarning mili.  
Narsalar otildi sirama-sira,  
faryod etib sindi  
hatto sarxili.  
Shayton imosidan  
may javonlari  
suvdonlarga o‘zi oqdi  
qultillab,  
behush tikuvchining tushdi ishtonni,  
ko‘tarishga hol yo‘q,  
qochdi qiltillab!  
Javonning pastdagi bir polkasidan  
mayxo‘r ag‘anab tushdi,  
og‘zini ochib.  
Robes et modesning viveskasidan  
belbandlar osildi,  
ag‘nashdan cho‘chib.  
Qimmat va sipodir bir dona kalish.  
Nozlanib ko‘z qisar  
fohisha-paypoq.  
Men uchib keldim-da, bamisli so‘kish.  
Qo‘shni yo‘lda chopar ikkinchi oyoq.  
Hoy siz  
meni  
majruh deb baqirganlar,  
xomsemiz,  
dushmanlar,  
qari,  
bekaram!  
Butun dunyoda ham  
topilmas bugun  
ikki joyi bir xil  
biron-bir odam!

(Parda)

## V. Mayakovskiy IKKINCHI VOQEA

Noxushlik. Yangi shahardagi maydon. V. Mayakovskiy endi toga kiyib olgan. Dafna gulchambari. Eshik ortida ko'plab oyoqlar.

Ko'zsiz va oyoqsiz kishi

(Iltifot bilan)

Shoir!

Knyaz bo'psiz.

E'lon qilishdi.

Eshikka to'plandi  
qobil fuqaro.

Har qaysisi  
kulgili bir idishni  
oldiga qo'ymoqda kelgan hamono.

V. Mayakovskiy

Mayli,  
kirishsin!

Qo'rqa-pisa tugun ko'targan juvonlar kirishadi. Ko'pdan ko'p ta'zim qilishadi.

Birinchi juvon

Ko'zyoshcham bu.  
Tushgan ko'zimdan oqib.  
Menga kerak emas.  
Siz oling!  
Mayli.  
Ko'zimning ipidan  
manavi oqi,

G'ussaga cho'masiz  
shu yosh tufayli!

V Mayakovskiy  
(xavotirda)

Kerakmas,  
netaman bunday xayrni?

(ikkinchı juvonga)

Sizning ham shishganmi ko'zlariningiz?

Ikkinchı juvon  
(parvosizlik bilan)

O'g'lim jon beryapti.  
Mayli.  
Zararsiz!  
Tufliga qadarsiz:  
mana,  
yosh yana.  
Kashtasi chiroyli bo'lar nurangiz.

V. Mayakovskiy  
(quti uchgan)

Uchinchi juvon  
Men kirman,  
ha, iflos bu engil-boshim –  
qaramang.  
Yuvinsam – bo'laman toza.  
Mana  
sizga yana  
Mening ko'zyoshim,  
bu ko'zyosh bema'ni, yirikdir rosa.

## V. Mayakovskiy

Bas, yetar!  
Ko'zyoshlar misli tog' bo'ldi.  
Menga ham, darvoqe, ketar chog' bo'ldi.  
E, anov qo'ng'irsoch dilbar kim ekan?

## Gazetchilar

Figaro! Figaro!  
Figaro!  
Maten!

*Bir juft bo'sali kishi kiradi. Hamma unga burilib qaraydi. Bir-biriga gap bermay gaplashadilar.*

Iya, qanday vahshiy –  
qarang, xaloyiq!  
Sal siljing.  
Qorong'i.  
Meni kiriting!  
Hoy, hiqichoq yigit,  
bor, nariga chiq!

## Kallasiz kishi

Hiq-hiq-hiq...  
Iq-iq-iq...  
Bir juft bo'sali kishi  
Ichi puch  
bu yumshoq, jirkanch bulutlar  
osmonga berilar.  
Mana, kun o'ldi.  
Havo qizlari ham oltin, zarga o'ch,  
ularga bor-yo'g'i pul bo'lsa – bo'ldi.

## V. Mayakovskiy

Nima?  
*Bir juft bo'sali kishi*  
Pul! Pul, deyman, mo'l bo'lsa – bo'ldi!

Sekinroq!

Bir juft bo'sali kishi

(Teshik koptoklar raqsi)

Bir kuni kap-katta iflos odamga

bir juft bo'sa in'om qildi

bir barno.

Netsin, qayga qo'ysin bir juft bo'sani,—

shuni bilmas edi

bu noshud odam.

Butun shahar ahli chiqib bayramga,

cherkovda o'qirdi tilovat, sano,

yasanib chiqardi o'ynab-kulgani.

Sovqotardi faqat u odam

har dam,

poyafzal teshigi xuddi tuxumday...

Axiyri kattaroq bo'sani tanlab

kalish kiygan kabi oyoqqa ildi.

Atrofda kezardi ammo izg'iriq,

panjasidan so'zak sanchardi.

Shunda:

«Xush,

Endi keraksiz bu bo'salarni

tashlab keta qolay!» deb jahl qildi.

Tashladi.

So'ng shunda

birdan bo'saning

qulqlari unib chiqdi,

aylandi.

«Oyi!» deb chinqira boshladni

bir sas.

Odamning yuragi hapriqib ketdi...

Titroq gavdachani yirtiq qalbining

julduriga o‘rab, uyiga eltdi,  
ko‘m-ko‘k chorcho‘pchaga qo‘ymoqchi endi.  
Changli jomadonni titdi talay vaqt.

(chorcho‘pcha qidirdi)

Ortiga boqsa –  
divanda  
semiz,  
alp,  
yotardi bo‘sса,  
ulg‘ayipti rosa,  
kular,  
quturar!

Odam: «Xudo! – deya yig‘lab yubordi, –  
shunday horirman deb hech o‘ylamovdim,  
endi men o‘zimni osishim lozim!

U sho‘rlik,  
u razil  
o‘zin osguncha,  
o‘z pardozgohida  
boshqа xotinlar –  
tutunsiz, karnaysiz bu fabrikalar –  
lablarining cho‘lp-cho‘lp go‘sht dastgohida  
katta-yu kichig-u ne bo‘salarni  
ishlab  
chiqarishar edi  
millionlab.  
Yugurib kirgan bo‘sа – bolalar

(o‘ynoqilik bilan)

Ko‘pmiz.  
Qо‘yvorishdi bizni birma-bir.  
Olinglar!  
Qolganlar kelishar hozir.  
Hozircha biz sakkiz nafarmiz xolos.

Men –  
Mitya bo‘laman.  
Oling, iltimos!

*Har biri bittadan ko‘zyoshi qo‘yadi.*

V. Mayakovskiy

Janoblar!  
Eshiting,—  
men chidolmayman!  
Sizga-ku yaxshi-ya, men dardni netay?

Tahdidlar;

U bilan gaplashib o‘zing bir bopla!

Hoy, sendan qovurdoq qilib quyonday  
bir yoqlik qilmaylik, o‘ylab ko‘r-chi-a!

Yungi yulingan mushuk ko‘targan chol  
Qo‘shiqlar aytishga ustadirsen sen.

*(Ko‘zyoshlar uyumiga imo qilib)*

Obor, ko‘rib qo‘ysin go‘zal Xudoying.

V. Mayakovskiy

Qo‘yvoring, bir nafas o‘ltirayin meni!

*O‘ltirgani qo‘ymaydilar. V. Mayakovskiy beo‘xshov depsinadi, ko‘zyoshlarni jomadonga joylashtiradi. Jomadon bilan turadi,*

Yaxshi!  
Yo‘l beringlar, ketsam ketayin!  
Men vujudi nozik bir yunonsimon

taxtga o'ltirarman ko'zlarim chaqnoq  
va shod bo'larman, deb o'ylagan edim.  
yo'q!  
Zamon,  
men uchun qadrdon  
yo'llar,  
sizlarning ingichka poylaringiz-u  
shimol daryolarin oq sochlarini  
unuta olmayman hech qachon!  
Mana, men bugun ham  
o'tib shahardan  
tomlar gumbazining nayzalariga  
yurakni ilarman parcha-parchalab.  
Osmon gumbazining so'kib tashlangan –  
choki sari borar yon tarafda oy.  
yetib olar,  
zumda boshim chamalab.  
Men og'ir yukim-la  
ketarman shaksiz,  
qoqilib-suqilib yetarman shaksiz,  
hududsiz hasratlar iskanjasida  
johilmuz okean o'z to'lqinlarin  
barmoqlari bilan doim ko'ksini  
yirtyapman, shimolga, o'sha tomonga  
bu yukni emaklab eltarman shaksiz.  
Men horg'in sudralib borib yetarman –  
sizning yoshingizni so'nggi bor alahlab  
yovvoyi ishonchlar tug'ilgan joyda  
qahhor xudoymiga qarab otarman.

(Parda)

## XOTIMA


V. Mayakovskiy

Sho'rlik kalamushlar,  
siz haqda yozdim.  
Emchagim yo'g'iga achindim faqat:  
yo'qsa yosh onaday bir emizardim.  
Endi sal quridim.  
Tarfadi hasrat.  
Ammo  
Kim?  
Qayerda?  
fikr-u tilakka  
bunday g'ayrioddiy berolgan qanot!  
Faqat men  
barmoqni qadab falakka  
uni: o'g'ri! deya qiloldim isbot.  
O'ylab qolaman goh:  
Pskov qiroliman,  
golland xo'rozimi –  
men o'zim kimman?  
Hammasidek ko'pro,  
zavq olaman goh  
xuddi Vladimir Mayakovskiy  
degan familiyam-ismimdan.

1913

Miraziz A'zam tarjimasi







## ISHTON KIYGAN BULUT

(*Tetraprix*)

«Ishton kiygan bulut»ni  
hozirgi zamон san'ati tafsiri  
deb hisoblayman.

V. Mayakovskiy

Yag‘ir-yasmoq to‘sakda xo‘p semirgan qarolday,  
suyuq miyangizdagi u o‘ychan fikringizni  
qonli dil laxtagi-la gij-gijlab quturtiray  
surlarcha, to‘yib-to‘yib,  
bir mazax qilay sizni.

Oqargan sochi yo‘qdir qalbimning biror dona,  
unda yo‘q, qarilarga xos bo‘lgan nazokat ham!  
Tovshim qudrati bilan kattaytirib dunyoni  
yigirma ikki yoshda kelyapman go‘zal, ko‘rkam.

Noziklar!

Siz sevgini g‘ijjakka qilasiz jo!  
Qo‘pol esa, sevgisin joylar qo‘shnog‘oraga.  
Siz ko‘krakni men kabi shartta yirtib avvalo  
so‘ngra ko‘rsatolmaysiz pichoq tirab yaraga!

Batist mehmonxonadan chiqing uyalib jinday  
Parilar ligasida amali bor xonimcha.

«Pazandalik» kitobin titgan oshpaz xotinday  
siz ham lablarin beg‘am varaqlagan oyimcha.

Xohlaysizmi –  
bo‘layin go‘shtdan quturgan itday –  
xohlaysizmi –  
o‘zgartib tusimni misli osmon –  
erkak emas, bamisli ishton kiygan bulutday  
mayingina bo‘layin – bekam-u ko‘st, benuqson!  
Nitssa gulxonasing borligiga shubham bor!  
Kasalxona singari o‘ngib ketgan erkaklar,

Maqol kabi titilgan ayollar ham bir qator  
maqtab ko‘tarmoqdalar yana meni ko‘klarga...

## 1

O‘ylarsiz: «Alahlab qoptimi, iya!»

Bu bo‘lgan, Odessada bo‘lgan.

«To‘rtda kelaman», degandi Mariya.

Kelmadi sakkizga.

To‘qqizga.

O‘nga.

Tun vahmi qo‘yniga  
dekabr, qishda  
mana o‘shshaygancha  
derazalardan  
oqshom ham jilar.

Bukchaygan qaddimga qahqahlar, kishnar  
qandillar.

Meni taniy olmas edingiz bu zum:  
ingrar-u, to'lg'onar  
davangir, xumbosh.

Ho'kizday bu toshga ne ekan lozim?  
Ko'p narsani xohlar, ho'kizday bu tosh!  
Yuragim birinjmi,  
sovug temirmi, —  
o'zim uchun buning farqi yo'q axir,  
Tunlari ichimdan chiqqan jarangni  
yashirsaydi deyman  
yumshoq bir bag'ir.

Darchaga engashdim  
gungursday odam,  
oynani manglayim bilan eritdim.

Sevgi bo'ladimi, yo'qmi?  
Va qaydam,  
kattakon sevgimi  
va yoki mitti?

Katta sevgi bunday gavdada netar:  
kichik bo'lsa kerak,  
mo'min ishq,  
uvoq.

Mashina «dud» lasa u cho'chib ketar.  
Sevar toychoqlarning qo'ng'iroqlarin.

Cho'tir yuzlariga yuzimni tirab  
yomg'irning qo'yniga kirib ketaman,  
shahar dolg'asining selida ingrab  
kutaman.

Yarimtun izg'irkan pichog'i bilan  
quvib yetdi,  
so'ydi —

uni yo'q qildi!  
Kundada kesilgan odam boshiday  
soatdan o'n ikki  
raqam yiqildi.  
Parijdagi Bibi Maryam kalisosida  
ulkan xayulalar<sup>1</sup> uvlagansimon  
oynalardan kulrang yomg'irlar oqib  
burishgan yuzlarin qilar namoyon.

La'nati!  
Bu kammi, muhabbatbezor?  
Og'zim yirtilar-ku qichqirsam yana.

Asta karavotdan turgandek bemor,  
asab sakrab turdi,  
eshitdim,  
Mana, —  
u yon-bu yon yurdi zo'rg'a  
avvalo,  
so'ng xavotirlanib  
yugurdi  
shaxdam.  
Endi tog'chumchuqday bo'lardi bejo ±  
bitta asab hamda ikkita odam.

Suvoq ko'chib tushdi pastki qavatda.  
Asablar —  
Katta-yu  
kichik —  
bari jam  
quturib sakrashar  
va chalishadi

<sup>1</sup> Parijdagi Bibi Maryam kalisosida ulkan xayulalar...— kaliso binosining ichki devorlariga o'yib ishlangan afsonaviy hayvonlarning shakllari nazarda tutilgan.

endi asablarning oyoqlari ham.  
Tun-chi loyqalanib borar tobora  
mudroq ko'z chiqolmas loyqa ichidan.  
  
Eshiklar g'ijirlar,  
tegmaydi go'yo  
musofirxonaning tishi tishiga.

Sen kirib kelding «mang!»  
deganday dag'al,  
qo'lqoping g'ijimlab keskin so'ylading:  
«Men erga tegyapman,  
o'yladim,  
bu – hal!»  
Xo'p, teging.  
Mayliga.  
O'lmasman juda.  
Qarang  
murda tomiriday  
jimman, osuda!

«Jek London,  
pul,  
sevgi,  
ishtiyoqlar»dan  
gapirgan paytingiz  
esingizdami?  
Men sizni Jokonda<sup>1</sup>  
biluvdim u on  
o'g'irlab ketmoqchi bo'lib bu yerdan,  
O'g'irlab ketishdi.

---

<sup>1</sup> *Jokonda* – Leonardo da Vinci ishlagan ayol portreti nazarda tutilgan. 1911-yili portretini Lvurdan o'g'irlab ketishgan edi; 1913-yilda muzeyga qaytarilgan.

Qoshlarim yoyini o't-la yoritib  
oshiq bo'lib o'zni o'yinga chog'lay,  
Ba'zan  
yongan uyni boshpana etib  
yashaydi-ku axir uysiz sayoqlar.

Siz menga:  
«Telbalik zumradlaringiz  
gadoyning pulidan kam», – deb o'ynashmang.  
Eslarsiz:  
Vezuviyni o'ynashganin siz!..  
Pompeya<sup>1</sup> ko'milgan, holi bo'lib tang!  
Hey!  
Janoblar!  
Kufr-u  
jinoyat-u  
qirg'inga  
o'chlar!  
Men  
mutlaq xotirjam  
bo'lqanim tobda  
qo'rqinchli yuzimni  
ko'rganmisiz hech?  
Mendan chiqmoq bo'lib  
chiqolmas kimdir.  
Sezdim:  
«men» men uchun tordir kiroyi.

Allo! Kim bu axir?  
Sizmisiz, oy!

Oyi-i-i!  
O'g'lingiz yo'liqqan allambaloga!  
Oyi!

<sup>1</sup> Pompeya – eradan avvalgi I asrda Vezuviy vulqonidan lava otilib chiqqanda uning etagidagi Pompeya shahrini qum-tosh ko'mib qolgan edi.

Yuragiga uning o't ketgan,  
Ayting opalarim Lyuda, Olyaga,  
ayting qochmog'iga imkon yo'q ekan.

U qusayotgan har so'z,  
har hazil hatto,  
yalang'och fohisha o'zini  
yongan g'arxonadan otganday go'yo  
otilib chiqadi kuygan bo'g'zidan.

Odamlar iskashar –  
kuymoqda nedir!  
Haydab ham kelishar  
so'ng kimlarnidir,

Hammasi yaltiroq  
dubulg'a kiygan!  
Katta etiklarda mumkinmas biroq!  
O't o'chiruvchilarga aytib qo'yingkim:  
kuygan yuraklarga faqat erkalab,  
navozishlar bilan kirmoqlik mumkin.  
Yuragim olovin o'chirgum o'zim  
shashqator yoshlari bilan ko'zimning,  
tayanib qovurg'am poyalariga.

Chiqaman! Chiqaman! Chiqaman! Qoching!  
Ammo qulab tushdi qovurg'alarim.  
Yurakdan chiqolmaysan – yo'qdir ilojing!

Yonayotgan yuzimda  
lablar darzidan  
kuyib ko'mir bo'lgan  
bo'sa tashlanar.

Oyi!  
Men  
endi hech  
kuylay olmayman!  
Qalbim cherkovida kuylar boshqalar!

Yonayotgan uydagi bolalar singari  
kuygan so‘zlar bilan ba’zi bir kunlar  
shakli  
uchib tushar boshchanog‘imdan –  
«Luzitaniya»<sup>1</sup>ning yonayotgan qo‘llari  
tutmoqchi bo‘lgandi osmonni shunday.  
Tinch uyda  
titragan odamlar tomon  
yuz ko‘zli tong  
bandargohdan tashlanadi jim.  
Yenganimni asrlarga etolgin bayon.  
loaqal sen, ey mening so‘nggi faryodim!

## 2

Meni maqtang!  
Buyuklar menga teng emas.  
Qilingan barcha ish  
men uchun bir pul.  
Hech qachon  
hech nima o‘qigim kelmas.  
Kitoblarimi?  
Kitob – nima ul?!

Shoir keladi-yu  
og‘iz juftlaydi,

<sup>1</sup> «Luzitaniya» – passajir kemasi. 1915-yili 7-mayda german suvosti kemasi torpedasidan yonib ketgan.

birdan qo'shiq to'qir serzavq anoyi,  
katta bir kitobni asta boshlaydi, –  
ilgari shunday deb o'ylardim  
doim.

Unday emas ekan:  
Kuylashdan burun  
yurilarkan yo'lning tosh-u qumida,  
tasavvurning tentak balig'i tun-kun  
tipirchilar ekan qalb quyqumida.

To qofiya topib qaynatmaguncha  
allaqanday ishq-u bulbul sho'rvasin,  
to'lg'anar tilidan mahrum bir ko'cha –  
baqirmas, so'zlamas, – tilsiz naylasin?!  
Biz qayta tiklaymiz g'ururdan jo'shib  
shaharlarning Bobil minorlarini.

Ammo  
shaharlarga so'zlarni qo'shib  
yana shudgorlarga  
ag'darar xudo.

Bo'g'izda dikkayib turar qichqiriq.  
Ko'cha azobni jim qordi tuproqqa.  
Do'mboq taksilar-u  
oriq  
aravalar  
ko'ndalang tiqilib turar tomoqqa.

Ko'ksim xarob bo'ldi,  
Sildan ham yomon.  
Yo'llarni bekitdi shahar zulmati.

Cherkovning eshigi  
tomoqdan bo'g'gan  
sur-surni  
maydonga

tuflagan payti,  
farishtalar toatida tunalgan xudo  
jazolashga kelar degan xayolga bordim.

Olomon o'tirib baqirdi ammo:  
«Yuring, ul-bul yeymiz, ochiqdi qorin!»  
Shaharda Krupplar, Kruppzodalar<sup>1</sup>  
ofatni pardozlab ko'rsatmoqdalar,  
ammo og'izlarda so'z o'liklari  
aynimoqda yomon,  
faqat «ablah» va  
yana allaqanday bir kalom – «sho'rva»–  
shular yashamoqda semirib hamon.

Yig'lab ko'z yoshiga bo'kkан shoirlar  
paxmayib ko'chadan qochdilar chetga:  
«Erishib bo'lmas bu  
ikki so'z birla  
na gulga,  
na qizga,  
na muhabbatga».   
Ko'chada  
shoirlar ketidan ammo  
talabalar,  
pudratchilar,  
g'arlar kelar minglab...

Janoblar!  
To'xtanglar!  
Gado  
emassiz!  
Sadaqa so'rashga uyalinglar!

<sup>1</sup> Krupplar, Kruppzodalar – mashhur nemis monopolistlari, ular asos solgan va ularning nomidagi konseryalar to'p-zambaraklar ishlab chiqarardi.

Qadamiz sobit,  
sog'miz, salomat;  
ularni tinglamay  
yirtaylik tar-tarr –  
har ikki kishilik bir karavotga  
tekin ilovaday yopishgan ular!

Shulardanmi gimn, oratoriya  
yozib bergen deya,  
istaymiz najot!  
O'zimiz fabrika, laboratoriya  
shovqini-gimnida etamiz ijod.

Faust, Mefistofel osmon parketida  
sirg'alsa mushaklar otib, chikora?!

Bilaman –  
etigim ichidagi mix

Gyote  
xayolidan mudhish ming bora!

Mening og'zim oltin,  
so'zim daf'atan  
jon tug'ib,  
etolar tanga jon ato,  
men qilgan,  
qilmoqchi bo'lgan narsadan  
tirik narsalarning zarrasi  
a'lo!

Eshiting!  
Bugungi Zardusht shallaqi  
to'lg'onib,  
hiqillab voizlik qilar!

Biz,  
Ya'ni lablari qandilday salqi,  
yuzlari choyshabdek uyqu yuqilar,  
biz,  
kir-u oltinlar yara tarqatgan  
moxovlar shahrining jafokashlari,—  
biz Rimning sofroqmiz naqshinlaridan,  
dengiz-u quyoshlar yuvgan singari!

Gomer, Ovidiyda  
bizday is bosgan  
cho'tirlar yo'q bo'lsa,  
tupurdim bunga.  
Qalbimizning oltin konlarin ko'rsa,  
bilaman,  
quyosh ham  
so'nardi zumda!

Qo'lga ishonch ko'proq,  
toatga emas.

Nahotki, tilasak zamondan xayr!  
Olam jilovini,  
biz,  
ya'ni har kas  
mahkam ushlaganmiz,  
g'ajirmiz, chayir!

Shu narsa boshladi Golgofa'larga —  
Petrograd, Moskva, Kiyev, Odessa  
ahllari qoshiga,

<sup>1</sup> Golgofa — Quddus yaqinidagi kichikroq tog'; Injil rivoyatiga ko'ra, Iso ham shu yerda qo'l-oyoqlari xochga tortilgan ekan. Keyin Golgofa so'zi azoblaydig'an joy, iztiroblar makoni ma'nosida ishlatalig'an. V. Mayakovskiy 1913–14-yillarda Moskva, Leningrad, Odessa, Kiyev shaharlariда kezib she'rlar o'qiganda, burjua matbuoti uni so'kib, masxara qilib chiqqan edi. Shoir buyerda ana shuni nazarda tutgan.

va «Bos uni, so'y!»  
deya baqirmagan  
qolmadi  
kimsa.

Ammo siz,  
odamlar,  
meni ezganlar ham, —  
hammangiz men uchun aziz, yaqinsiz.

Uradigan qo'lni it ko'proq yalar —  
ko'rgansiz...

Men  
bugun  
beadab latifasimon  
vahshiy odamlarga kulgiga qoldim,  
ammo tog'lar osha kelmoqda zamon,  
men uni ko'roldim hammadan oldin.

Cho'ltoq fahm odamlarning nafsiyi tiyib,  
ochlarning galasi bosar muttasil,  
inqilobning tikon chambarin kiyib  
bostirib kiradi o'n oltinchi yil.

Men-chi o'sha yilning ilhomchisiman,  
hamandardman har qachon og'riq bor qalbga,  
ko'zyosh oqimining har tomchisida  
parchinlab tashladim o'zimni salbga.  
Ayblarni kechirish qiyin tobora.  
Mehr undirilgan dillarni yoqdim.  
Minglarcha Bastiliyani olgandan ko'ra  
bu ish mushkulroqdir!

U kelgan chog‘ida,  
ko‘tarib isyon  
xaloskor qoshiga chiqqaningizda,  
men  
qalbimni yilib,  
toptab, –  
kattaytib! –  
qonli bayroqsimon  
beraman sizga.

### 3

Yop-yorug‘ shodlikka  
kir musht o‘qtaluv... –  
qaydan chiqqan gap bu,  
nega chiqqan bu!  
Birdan  
jinnixona fikri keldi-yu,  
ma’yuslik pardasin boshga ildi u.

Keyin, –  
drednout<sup>1</sup> cho‘ksa,  
odamlar  
spazma<sup>2</sup>dan  
qochganday  
izlab  
ochiq lyuk<sup>3</sup> –  
dodlatib yorilgan yirtiq ko‘zidan  
qochardi aqldan ozgancha Burlyuk<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Drednout – zirhli eng katta harbiy kema.

<sup>2</sup> Spazma – mushaklarning qisilib, tirishib, tortishib qolishi.

<sup>3</sup> Lyuk – kema bortida to‘p og‘zini chiqarish uchun qoldirilgan teshik.

<sup>4</sup> Burlyuk – V. Mayakovskiyning zamondoshi, rus shoiri David Burlyukning bir ko‘zi ko‘r edi. Shunga ishora qilinyapti.

Yoshlangan qovog‘in naq qonga belab,  
chiqvoldi,  
o‘rnidan turdi-da,  
ketdi,  
semizlikka noxos mayinlik bilan  
tuyqusdan u:  
«Yaxshi!»  
deb xitob etdi.

Yotlarning ko‘zidan asrab yurakni  
sap-sariq koftaga burkamoq yaxshi!  
«Ichinglar Van-Guten kakaosidan!»<sup>1</sup>  
deb qatl oldidan  
bo‘kirmoq  
yaxshi!

Hech nega bermasdim  
shu zumni sira,  
bangolcha shovqinli  
shu on taftini...  
Ko‘ring tutun aro,  
qadah, may uzra  
Severyanin<sup>2</sup>ning mast,  
cho‘ziq aftini.

Shunchaki sayraysiz bedanasimon,  
yaxshi shoirmisiz, ayting, aslida?!  
Boshchanoq holdagi bu jahon

<sup>1</sup> «Van-Guten kakaosidan ichinglar!» – Bir odamni o‘limga mahkum qilishganda u qatl oldidan «Van-Guten kakaosidan ichinglar!» deb qichqirishga rozilik beradi. Shunday tashviqot so‘zlari uchun Van-Guten firmasi qatl qilinuvchining oilasiga katta mukofot va‘da qiladi. Mayakovskiy o‘sha paytda gazetalarda yozilgan ana shu faktni nazarda tutgan.

<sup>2</sup> Severyanin – V. Mayakovskiyning zamondoshi, rus shoiri Ig‘or Severyanin nazarda tutilgan.

bugun  
bichilmog'i kerak  
kastet<sup>1</sup> shaklida.  
Siz,  
«Raqsim go‘zalmi?» deb ko‘nglingiz g‘ash, –  
faqat shu qablda yashaysiz po‘rim,  
men –  
maydon daydisi, sutenyor<sup>2</sup> – o‘ynash,  
qartavoz g‘irromning o‘yinin  
ko‘ring!

Oshiqlikdan ivish  
nasibdir sizga,  
yoshlaringiz oqdi  
asrlar tomon.  
Monokl – quyoshni yirilgan ko‘zga  
o‘rnatib,  
sizlarni tashlab ketaman.

Hammaga yoqqani hamda yongani  
dunyoni kezaman  
yasanib olib,  
Napoleonni esa mops singari  
Zanjirlab yuraman oldimga solib.  
Butun yer uzanar bir xotin kabi,  
bergani yotib ham, eti dirkillar,  
narsalar jonlanar –  
ularning labi:  
«atta, atta» qilar, «li-li-li» qilar!  
Bulutlar-mulutlar  
birdan

<sup>1</sup> Kastet – to‘rt barmoqni o‘tkazib ushlash uchun to‘rtta teshigi bo‘lgan yassi metall asbob, mushtlashish quroli.

<sup>2</sup> Sutenyor – fohisha hisobiga yashovchi o‘ynash.

osmonda  
ayqash-uyqash bo‘lib chayqaldi har yon,  
go‘yo oq ishchilar tarqar, osmonga –  
serzarda ishtashlash qilgancha e’lon.

Bulutlar ortida vahshiy qaldiroq  
shiddat-la so‘laqmon burnini qoqdi,  
temir Bismark yuziday bir zum o‘tmayoq  
osmon ham bujmayib tutoqdi.

Va kimdir –  
qolganday tumanlar aro,  
yo‘lini yo‘qotib, ko‘rmasdan ko‘zi,  
qo‘llarin ayolday, sevganday go‘yo  
to‘p lafeti kabi  
kafega cho‘zdi.

Buni siz quyosh deb o‘ylamang zinhor,  
silar deb yuzidan qahvaxonani.

Bu – ya’ni otishga isyonkorlarni  
General Galife<sup>1</sup> kelar degani!

Cho‘ntakdan qo‘llarni chiqaring, g‘arlar,  
yo pichoq va yo tosh, yo bomba oling,  
bordi-yu qo‘lingiz bo‘lmasa agar  
shunday kelavering, manglay-la soling!

Kelavering, qorni kuylagan ochlar,  
burgador kir joyda achib ketganlar,  
terlab ishlaganlar va yalang‘ochlar,  
zo‘rlarga qo‘rqqandan ta‘zim etganlar!

<sup>1</sup> *Galife* – 1871-yilda Parij kommunarlarini jazolagan general.

Kelingiz!  
Dushanba-seshanbalarni  
qon bilan bayramga bo'yab qo'yamiz!  
Tuproq rasvo qilmoq bo'lgandi bizni,  
shuni esga olsin yeganda pichoq,  
Rotshild sillasini quritgan qizday  
axiyri simirib ketgan bu tuproq!

Har sonli bayramda otish bo'lgan chog'  
ko'kda hilpiragan bayroq singari –  
fonus simyog'ochlar, qalqing balandroq,  
kappon sarkorlarin qon tanalari.

So'kindi,  
elandi  
va qildi abjaq –  
kimdir deb, kimnidir  
qattiq tishlardi.

Harom o'layotgan qip-qizil shafaq  
ko'kda marseleza kabi titrardi.

Aqldan ozish ham boshlandi mana.  
Hech nima bo'lmaydi,  
Tun kirib kelar,  
ozgina yeb ko'rар, yeb qilar ado.

Ko'ryapsizmi –  
Yulduzlarning sotqinligidan  
yaxshigina chaplangan samo  
xoinliklar qilmoqda yana!

Tun keldi.  
Shaharga

Mamay singari ketini qo‘ygancha  
boshladi bazm.<sup>1</sup>

Bu tunni teshay deb boqmang bekorga –  
Azef<sup>2</sup> ko‘zlariday baloyi azim.

Otilib mayxona burchaklariga  
may to‘kardim dasturxonga, yurakka hadeb,  
burchakda ko‘zları katta ochilgan  
Maryam onamizni ko‘rib junjikdim:  
turardi yurakka ko‘zlarin qadab.

Bir-biridan farqsiz mazkur to‘dani  
jamoling nuridan etma bahramand!  
Ko‘ryapsanmi – ular sho‘rlik Isodan  
Varavvani<sup>3</sup> yana qo‘yishar baland?

Insonlik tertida  
mening yuzim ham  
hech kimning yuzidan, balki, farq qilmas.  
Balki, o‘g‘illaring aro  
eng ko‘rkam  
o‘g‘ling men bo‘lsam ham hech ajab emas.

Sen shodlikdan mog‘or bosganlarga tez  
vaqt o‘limin yubor, qirilib ketsin,  
o‘g‘lonlar otalar bo‘lgancha kulib,

<sup>1</sup> Mamay singari ketini qo‘ygancha...— Bu yerda mag‘lublar jasadi ustiga tashlangan taxtalarda o‘tirib bazm qurgan g‘oleblar haqida gap borayotir. Aslida Oltin Ordanining xoni Mamay emas, 1223 yilda Kalkadagi jangdan keyin Chingizxonning sarkardalari shunday bazm qurgan.

<sup>2</sup> Azef—eserlar podpolesida ishlagan ig‘vogar, uning nomi sotqinlik sinonimi bo‘lib ketgan.

<sup>3</sup> Varavva — Injildagi rivoyatga qaraganda, Iso bilan bir kunda mahkum etilgan qaroqchi. Olomon sudlardan Isoning qatl uchun ham Varavvaning afy etilishini talab qilgan.

qizchalar albatta bo'yida bo'lib  
tegishli farzandlar voyaga yetsin.

To'g'ri, mashinani hamda inglizni  
maqtab she'r yozmoqqa doim hozirman,  
titkilab-tekshirib, ko'ring Injilni,  
balki o'n uchinchi havoriy'dirman.

Har soat,  
kechasi va kunduzlari  
oh!– deb yangraganda tovshim  
beorom –  
ehtimol, qalbimning bo'tako'zlarin  
hidlab qo'yar Iso alayhissalom.

#### 4

Mariya! Mariya! Mariya!  
Kirit, Mariya!  
Ko'chalarda qola olmayman!  
Xohlamaysanmi?  
Men  
yuzlarim ajinga to'lib,  
hamma totganidan  
bemaza bo'lib,  
tishsiz yamlangancha  
«g'oyat sofdirman»  
deya  
kelishimni  
kutayotirsan.  
Ko'ryapsan,  
Mariya –  
bukchayib ham qoldim qanchalar.

<sup>1</sup> Havoriy – rivoyatga ko'ra, Iso alayhissalomning o'n ikki shogirdi bo'lgan. Ularning birini «havoriy», hammasini «havoriyun» deb yuritiladi.

Ko‘chalarda:  
qirq yil ketgan siyqa odamlar  
to‘rt qavatli bag‘bag‘aga yog‘ini jamlab,  
kechagi mehrning qora nonini  
tishlab yurganimdan hiringlagani  
bit ko‘zlarin – yana! –  
chiqarmoqdalar.

Yomg‘ir ko‘zyosh to‘kib ketdi yo‘llarga.  
Ko‘lmaklar ivitib yuborgan o‘g‘ri  
o‘lik tosh terilgan ko‘chani yalar.  
Sumalakning sovuq kipriklarida, –  
ha, to‘g‘ri, –  
oqargan kipriklarida –  
ko‘z yoshi, –  
ha, –  
yerga boqqan ko‘zlarning  
tarnov karnayidan oqib tushgan yosh.

Yomg‘ir so‘rib oldi yo‘lovchilarni,  
foytunni yasatar semiz atletlar:  
odamlar to‘yganki,  
naq yorilgudek,  
va yog‘i oqqudek yoriqlaridan,  
foytundan loyqa bir daryoday oqar  
bo‘kkan non,  
chaynalgan eski kotletlar.

Mariya!  
Semirgan quloqlarga men  
osuda so‘zimni qanday suqayin?  
Qushcha – och,  
yangratib sayramoqdadir,

qo'shiq aytib uvoq so'ramoqdadir,  
men esa, Mariya,  
oddiy odamman,  
bor-yo'g'i Presnya<sup>1</sup>ning iflos qo'liga  
sil kecha tashlagan balg'amman xolos.  
Mariya! Istan...  
Kirit, Mariya!

Barmoqlarim titrab,  
qo'ng'irog'ingning  
temir bo'g'zin bosdim telbalarga xos!

Mariya!  
Ko'chalar yaylovi vahshiy.  
Bo'g'gan barmoqlarning izi tomoqda.

Och tezroq!  
Ezildim!  
Ko'rib qo'y yaxshi –  
ayol shlapasi to'g'nog'ichlari  
ko'zlarga sanchilgan bir yoqda!

Kiritding.  
Go'dagim.  
Ho'kiz bo'ynimda –  
qorni ter xotinlar ivigan tog'day  
o'tirganin ko'rib, sen qo'rqma sira, –  
Men million azamat sof sevgilar  
va million-million iflos sevgichalarni  
ko'tarib kelyapman hayot bag'ridan.  
Qo'rqma, qiz,  
xiyonat do'li yog'ganda  
ming xushro'y pinjiga kirar, deb yana

---

<sup>1</sup> Presnya – Moskvadagi Mayakovskiy yashagan ko'chaning nomi. Tiana – Igor Severyanin yozgan shunday sarlavhani she'rning qahramoni.

«Mayakovskiyning xushtori sonsiz!» –  
telba yuragida malikalarning  
butun sulolasiga qurgan tantana.

Mariya, yaqin kel!  
Qo‘rqib-titrabmi,  
yalang‘och bo‘libmi beuyat-beor  
ber, rangin lablaring jozibin axir:  
men-u dil javzoni ko‘rmadik bir bor,  
yuz bor boshdan o‘tdi birgina savr.

Mariya!  
Bir shoir Tiana<sup>1</sup>siga  
sonetlar kuylaydi bag‘rini tilib,  
men esa –  
go‘shtdanman –  
insonman butun:  
xristian ahli «xayr-u sadaqa»  
so‘ragani kabi  
jo‘ngina qilib,  
badaningni ber, deb so‘rayman bu tun.

Mariya!  
Mariya!  
Badaningni ber!  
Shoir zo‘rg‘a topgan to‘kib qancha ter  
zo‘rlikda birgina xudoday so‘zni  
unutib qo‘yishdan qo‘rqqani kabi  
isming unutmasam deya qo‘rqaman.

Harbda bir oyog‘i kesilgan soldat  
hech kimga keraksiz bo‘lsa ham o‘zi  
yolg‘iz oyog‘ini alqab yurganday  
badaningni sevib olqayman albat!

<sup>1</sup> *Tiana* – Igor Severyanin yozgan shunday sarlavhali she’rning qahramoni.

Mariya –  
xohish yo‘q?  
Xohish yo‘q, de!

Ha!  
Demak –  
poyezd bosgan panjalarini  
uyasiga olib ketyotgan itday  
yig‘lab qorong‘ida boshim osilib  
yuragimni olib  
ketaman qayta.

Yuragim qoni-la yo‘lni shod etay,  
yopishar gul bo‘lib kitelga butun,  
Ming karra raqs tushar, Irodiadaday<sup>1</sup>  
Va’zgo‘yning kallasi – yer girdida Kun.  
Yoshimning sanog‘i bo‘lganda tamom  
mening padarimning uyiga tomon  
sonsiz qonchalardan bir iz to‘shalar,

Zovurlarda tunab,  
kir chiqib kelib,  
turarman Isoning yonida shundoq  
so‘ngra qulog‘iga derman  
egilib:  
– Quloq soling, janobi xudo!  
Bulut kiselia  
rahmli ko‘zni  
har kun ho‘llab, diqqat bo‘lmadingizmi?  
Keling, bilasizmi, bir oz narida –  
yaxshilik, yomonlik daraxtlarida  
ot o‘yin tuzamiz ta’lim olgani!

<sup>1</sup> *Irodiada* – Injin rivoyatiga ko‘ra, Ioann Krestitel nomli va’zgo‘yning kesilgan boshi solingen lagan atrofida Irodiada emas, Irodiadaning qizi Salomeya raqsga tushgan.

Xudosan, har joyda bo'lolasan shay,  
har bir shkafda tur, ovozingni tiy:  
ikkimiz stolga terib qo'ysak may,  
quvnab, kayfi oshib Petr Havoriy  
ki-ka-pu raqsiga yo'rg'alab ketsin.  
Jannatga joylaylik Havochalarni:  
buyur –  
keltiraman yetmish yettisin tungi  
ko'chalarining zebochalarin.  
Xohlaysanmi?  
Ha-ha xohlamaysanmi?

Boshni chayqaysan-a, ha paxmoq soql?/  
Oqargan qoshingni chimirding-a, chol?  
Orqangdagi manov ko'rkan qanotdar  
sevgini biladi, deb o'ylaysanmi?  
Men ham farishtaman,  
ular ko'ziga  
shirin qo'zi bo'lib ko'rinar edim,  
g'amlardan quyilgan  
sevr vazasin  
endi biyalarga qilmayman taqdim.

Sen qo'lni ikkita yaratding, xudo,  
har kimga kalla ham berding bus-butun,  
azoblanmay o'pmoq, o'pmoqni ammo,  
o'ylab chiqarmading, ilohim, nechun?!

Men seni kuchli, cho'ng xudo deb bilsam,  
challasavod, mayda xudochaykansan.  
Boq, bu dam  
egilib,  
qo'njim ichidan  
kosib pichoqchamni olayotirman.

Qanotli razillar!  
Jannatga tinqiling!..  
Patlarni hurpaytib titrang bu kecha!  
Sen, buxo'r hidlini, men tilim-tilim  
tilib boray bundan Alyaskagacha!

Qo'yvoring!  
yo'limdan  
to'xtatmang meni.  
Nohaqmi,  
haqmanmi, –  
tinch bo'lolmayman.  
Yulduzlar kesishdi yana kallani.  
Osmonni belashdi – ko'ring – qon bilan!

Hey, siz!  
Osmon!  
Oling boshdan qalpoqni!  
Men chiqyapman yo'lga!

Indolmas bir zot.  
Kana-yulduz to'la ulkan qulog'in  
qo'yib olib qo'lga, uxlar koinot.

1914-1915





Umurtqamning sivizg'asi  
Sivizg'asi dastig'alar qo'shi Uzqurqad hozir  
kunaydi, foydali-sizg'alar yashirib, qayga borarman.

## UMURTQAMNING SIVIZG'ASI

### MUQADDIMA

Ey,  
menga yoqqan va yoqar odamlar,  
qalbim g'oridagi aziz sanamlar,  
sizlarni sharaflab ko'targanday may  
she'r to'la kallamni azot ko'taray.

Ko'pincha o'ylayman –  
umrimga shu dam  
yaxshiroq bo'lmasmi o'q-nuqta qo'ysam?  
Bugun men sizlarga  
ehtiyoji shart  
vidolashuv uchun beraman konsert.

Suyuk odamlarning navbati uzun,  
miya dahlizidan yig'ib kel, xotir!  
Ko'zlardan ko'zlarga kulgilarni sun.  
O'tgan to'ylar bilan tunni yasantir.  
Badanga shodlikni qo'ying badandan.  
Saqlansin har kimning xotirida tun.  
Men bugun  
sivizg'a chalib beraman,  
shaxsiy umurtqamni chalaman bugun.

Yo'l tanobin tortar odimim shahdi,  
Do'zaxni yashirib, qayga borarman?

Qaysi g‘ayrituproq, samoviy Gofman<sup>1</sup>  
xayolda yaratdi seni, la’nati?  
Shodlik bo‘roniga ko‘chalar ham tor.  
Bayram bashanglarni yig‘ib tashladi.  
O‘ylayman.

Fikrlar kallamdan bemor  
quyuq, laxtalanib chiqa boshladi.

Shodlik mo‘jizasin yarataman-u,  
bayram qilay desam mahramim yo‘q bir.  
Neva tosh yo‘liga o‘zni otaman,  
gurs etib kallamni yoraman hozir!  
Men – shakkok,  
men – osiy  
xudo yo‘q devdim,  
bir qiz chiqardiki do‘zaxdan xudo,  
tog‘ ham titrab ketar  
hayajon  
bosib,  
menga esa:  
– Sev! – deb berdi u farmon.

Xudo shod.  
Ana jar.  
Jar yoqasida –  
inson vahshiylashib bo‘lmoqda ado.  
Xudo kaftchasiga kaftchasin ishqar.  
Shoshma, Vladimir – o‘ylaydi xudo.  
Kimliging o‘zingga bo‘lsin deb jumboq  
senga haqiqiy er o‘ylab topmog‘-u  
inson notalarin royalga qo‘ymoq –  
bularni uddalay olar faqat u.  
Yotoq eshidiga kelib allakim  
qaviq ko‘rpangizga qo‘lin cho‘zib jim

<sup>1</sup> Gofman Erist Teodor Amadey —XIX asrda yashagan nemis yozuvchisi va bastakori. U o‘z asarlarida chinakam hayotga aloqasi bo‘lмаган fantastik dunyolarni tasvirlagan.

cho‘qintirib qo‘ymoq bo‘lsa daf’atan,  
bilaman: achchiq dud chiqarib, kuygan  
jun isini purkar shayton etli tan.  
Men bunday qilmadim.

Seni  
sevgani  
obketishgan,  
deya dahshatda toldim,  
dodimni baytlarga qirralayverib  
yarim telba zargar bo‘lib ham qoldim.

Yurak  
qurib ketgan, bo‘g‘zin may bilan  
chayqashmi yo qarta o‘ynashim kerak!

Yo‘q, yo‘q!  
Xohlamayman!  
Sen kerakmassan.  
Bilaman –  
baribir tezda o‘laman.

Rost bo‘lsa borliging,  
xudo,  
xudoyim,  
yulduzlar gilamin sen tikkan bo‘lsang,  
kundan kun ortyotgan  
og‘rig‘im,  
voyim,  
qiynog‘imni qalbga sen ekkan bo‘lsang,  
mayli qo‘llarimga kishan taqqin sen.  
Kutib tur, qoshingga yetib boraman.

Bir zum kechikmayman,  
tartibliman men.  
Bildingmi, berahm zolim xudovand!

Otlarning dumiga bog‘lagan kabi  
meni dumli yulduz dumiga bog‘lab,  
hayda,

yulduzlarning ursin tishiga,  
men og‘zimni siqib, undan bir nola  
chiqarmay ketaman, labimni tishlab.

Yoki

mening jonim tanamdan ketib,  
o‘shshayib kelganda,

qiymat kuni

sen Somon yo‘lini

baland dor etib,

jinoyatim uchun osa qol uni.

Xohlasang, to‘rtga bo‘l.

Xohlamasang ot!

Yo haq!

O‘zim yuvay, tutib tursang qo‘l,

Faqat men so‘rayman o‘tinib:

yo‘qot

sevgilim qilganing shu la’natini!

Yo‘l tanobin tortar odimim shahdi.

Do‘zaxni yashirib, qayga qocharman!

Qaysi g‘ayrituproq, samoviy Gofman  
xayolda yaratdi seni, la’nati?!

## 2

Samo tutun bosib, rangin unutgan,  
juldur qochoqlarga o‘xshar bulutlar,  
ularni sillarning yuz qizilday  
so‘nggi muhabbatim rangiga bo‘yay.

Ashyolar unutdi shinam uy haqda,  
ular dodin shodlik bilan bosayin.

Odamlar,

eshiting!  
Yotmang xandaqda.  
Bas endi,  
urushib olarsiz keyin.

Baxus<sup>1</sup>day chayqalib,  
hattoki agar,  
borayotgan bo'lsa ham qondan sarxush jang –  
shunda ham eskirmas ishq so'zi,  
qarang,  
Gretxen<sup>2</sup> deb qo'yasiz, aziz nemislar!

Kulib turishlarin og'zing muchchida  
agar esga olsa, Traviata,<sup>3</sup>  
farang kulib o'lar nayza uchida,  
kulib parchalanar otilgan aviator.

Ammo men o'lmayman yumshoq et uchun,  
asrlar kavshaydi pushti etni ham.  
Yangi oyoqlarga yotingiz bugun!  
Men seni kuylayman  
bo'yangan  
mallam.

Asrlar soqoli bo'lganda oppoq  
bu qilich damiday  
mudhish kunlardan  
men sen deb shaharma-shahar chogpan chog' –  
balki shu –  
sen va men qolarmiz o'lmay.

Gar dengiz ortiga sen kelib tushsang,  
seni yashirsa ham tunlarning ini,  
men fanor singari o't lablar bilan

<sup>1</sup> Baxus – qadimgi yunonlarda sharobchilik xudosi.

<sup>2</sup> Gretxen – Gyotening «Faust»idagi Margarita degan qahramon qizning kichraytirib aytilgan nomi.

<sup>3</sup> A. Dyuma (o'g'il)ning «Kameliyalixonim» qissasi asosida Verdi yozgan «Traviata» nomli operaning qahramoni.

London tumanida o'parman seni.  
Arslonlar shay turgan qaynoq sahroga  
karvon tortib ketsang,  
topib izingni,  
yuzingga qo'yarman shamol, chang aro  
Sahroyi Kabirday yongan yuzimni.

Jilmayib qaraysan ko'z qiring bilan:  
o, qanday ajoyib toreador-a!  
Buqaning bo'kirgan ko'zi-la birdan  
rashkim bildiraman yotoqqa qarab.

Eh, suvgga tushsaydim,  
deb o'ylagani  
xomush chiqib borasan  
ko'prikka qarab.  
Senaday oqyotgan menman-ku, jonim,  
chorlayapman,  
chirik tishlarim qayrab.

Strelka va yoki Sokolniki<sup>1</sup>da  
o'zga-la yurasan, o'ynatib tulpor.  
Bu – menman yuksalgan osmon toqida,  
yalang'och, ezilgan oyman intizor.  
So'zingni isbotla, desalar, o'lib,  
kuchliman,  
urushda o'lishim mumkin,  
o'q yulgan labimda  
so'nggi so'z bo'lib  
yorilgan  
nomginang  
qoladi lekin.

Tojdami,  
Muqaddas Yelena<sup>2</sup>dami,

<sup>1</sup> Strelka, Sokolniki – o'sha paytdagi Petrograd va Moskva yaqinidagi sayilgohlar.

<sup>2</sup> Muqaddas Yelena – orolning nomi, Napoleon o'sha yerga surgun qilingan va o'sha yerda o'lgan.

ayting, hayotimni qayda oxirlay?  
Men bo'ron odami  
shahanshohlikka  
ayni payt qullikka  
nomzodman birday.  
Agar shohlik ato bo'lsa manglayimga –  
xalqni to'plarman-u,

chiqarib farmon,  
sarg'ish oltiniga tangalarimning  
yuzchang shaklin o'yib ishlattirarman!  
Dunyo tundraday po'st tashlayotgan,  
daryo shamol bilan savdolashyotgan  
surgun zulmatida qolsam daf'atan  
kishanga Lilya deb tirnab yozarman,  
uni o'pa-o'pa kun o'tkazarman.

Osmomonning rangini unutganlar, hoy,  
hurpaygan hayvonlar,  
tinglangiz axir!  
Dunyoda bu so'nggi sevgi,  
hoynahoy,  
sillar qiziliday shafaqlangandir.

### 3

Unutaman yilni, kunni, sanani,  
bekinib olaman, qo'limda qog'oz.  
So'zlar azobidan yorishib, qani,  
ey, samoviy sehr, vaslingga yetkaz.

Bugun siznikiga ertalab kirdim,  
kirdim-u payqadim –  
uyda hol yomon.  
Sen shohi ko'ylakka nedir yashirding,  
havoda buxo'r hid kengaydi shu on.  
«Shodmisan?» «Juda ham» –

tovshing torini  
titratdi qandaydir sovuqqina mavj.  
Sarosima yiqdi ong devorini.  
Yonib, mushkulingga qo'shdim yana avj.

O'likni  
baribir  
gizlolmaysan, hay,

dahshatli shu so'zni kallangga ag'dar!  
Baribir,  
har muchang  
misoli karnay  
seni «o'ldi!» deya solaverar jar.  
Yo'q, sen javob qaytar. Rost ayt barini!  
Bu ahvolda qanday qaytay izimga?  
Ko'zlarining ikki go'r lahatlarini  
kavlamoqda sening yuzingda.

Go'rlar chuqurlashar.  
Unda yo'qdir tag.  
Kunlar minbaridan yiqilsam kerak.  
Jonimni arqonday jar uzra tortdim,  
so'zlarni o'ynatib, chayqalib ketdim.

Bilaman,  
eskitdi uni muhabbat.  
Charchog'in bildirar minglab alomat.  
Jonimda o'zingni yoshartirib qol.  
Qalbni tan zavqi-la tanishtiri bol.

Bilaman,  
ayolga pul to'lar har kim.  
Ammo hechqisi yo'q, hozircha senga  
Parij ko'ylagini emas, tamaki  
dudini kiygazgan bo'lsam egningga.  
Qadim paytlardagi havoriydayin

sevgimni eltaman ming yo'ldan omon.  
Sen tojdar bo'lasan zamondan zamon,  
tojda-chi, so'zlarim – titroqlar yoyi.

Yuz pudli o'yinlar ko'rsatgan fillar  
yakunlaganday Pirr g'alabasini<sup>1</sup>,  
dahom qadamidan miyang zirillar.  
Behuda.

Men tortib olmayman seni.

Quvon,  
quvonaver,  
holdan toydirding!  
Endi yana meni bosdiki hasrat,  
soygacha yugurib ulgurish qoldi  
va irjaygan suvga yem bo'lish faqat.  
Lablaringni tutding.  
Ularni netding?  
Sal-pal tegindim-u,sovudim-qoldim.  
Uzrli lablarim bilan  
qoyadan  
yo'nilgan cherkovni o'pganday bo'ldim.

Ko'chalar shodligidan sug'orilib,  
u kirib kelarkan,  
qarsilladi eshik.  
Dod-faryod ichida  
ko'ksim yorilib,  
unga:  
«Xo'p! Ketaman! – deb qichqirdim tik.–  
Xo'p!  
Senga qoladi!  
Unga latta tik!

<sup>1</sup> *Pirr g'alabasi* – (Rumoliklar bilan urushgan Epir shohi Pirrning nomi bilan bog'liq) – Katta yo'qotishlar evaziga qo'lga kiritilgan g'alaba nazarda tutiladi.

Qo'rqoq qanotlari shohilar qo'ynida  
Semirsin.

Hushyor bo'l.

G'oyib bo'lmasin.

Tosh qilib osib qo'y  
xotin bo'yniga  
marvarid-durlarning shoda-shodasin!»

Eh, bu tun mudhishi!

Bu tun mudhishi!

O'zim noumidlik rishtasin tortdim.

Qahqaham, yig'imdan dahshatga tushib  
xona basharasi qiyshayib qotdi.

Sion juhudining zar malikasin  
qay bir yangi Byalik<sup>1</sup> o'ylab topganday  
ko'z o'ngingda ketgan siymo sharpasi  
uning gilamida turdi yonganday.

Qaytarib bergenim ayol oldida

tiz cho'kib ham bo'ldim

ming azob bilan,

hamma shahrin

bergan

Albert qiro<sup>2</sup>-da

in'omga ko'milgan, —

baxtliroq mendan.

Quyoshga zarlaning, gullar va o'tlar!

Qani bahorlaning jami unsurlar<sup>3</sup>!

Menga bugun kerak bиргина zahar —

she'r ichgim, she'r ichgim, she'r ichgim kelar.

<sup>1</sup> Byalik X. N. – eski yahudiyl tilida yozgan shoir.

<sup>2</sup> Albert qirol – Belgya qiroli, nemislar 1914-yilda Fransiyaga hujum qila turib, butun Belgyani egallab olgan edilar.

<sup>3</sup> Jami unsurlar – qadimgi moddiyunchilik falsafasida tabiatning asosiy unsurlari: olov, havo, suv, yer hisoblangan.

Yurakni o‘g‘irlab,  
baxtdan mahrumlab,  
jonimga ming qiyonoq, ming sarosima  
solgansan,  
qabul et sovg‘amni, jonom,  
balki topolmasman  
boshqa hech nima.  
Hey, bugungi kunni bayramga bo‘yang!  
Hey, parchin bo‘lmoqqa teng sehr,  
kashflan!  
Ko‘ryapsiz –  
so‘zlarning mixlari bilan  
mixlanganman oppoq qog‘ozga qarang.

1915



## SEVAMAN

### ODATDA MANA SHUNDOQ

Insonning boshida bordir muhabbat, –  
ammo xizmatchilik,  
mansab,  
daromad  
va boshqa dard bilan bo‘lib  
kundan kun  
yurak zaminini qoplay boshlar gard.  
Yurak – badan kiygan,  
badan – ko‘ylagin...  
Bir telba:  
bu – oz! – deb  
kuya boshladi.  
yengiga qaytarma  
tiktirib tag‘in,  
ko‘ksiga qotirma quya boshladi.  
Chollar orolanib ketmas oynadan.  
Ayol bo‘yanar.  
Er Myuller<sup>1</sup> bo‘yicha  
shamol tegirmoni kabi aylanar,  
ammo kechikkani bilinar picha.  
Ko‘plab ajin bilan qoplanar teri.  
Sevgi gullay-gullay,  
ochilib tinmay,  
zerikarli bo‘lib qolar oxiri.

<sup>1</sup> Myuller – gimnastika bo‘yicha ommaviy bir darslik kitobining muallifi.

## BOLALIGIMDA

Sal-pal layoqatli edim sevishga.  
Odamzod  
yoshlikdan  
ko'nikar ishga.  
Men Rion<sup>1</sup> bo'yiga qochardim,  
ammo  
sandiraqlar edim,  
qilmay hech vaqo.  
«Rasvosan!» deb oyim  
koyisa turtib,  
«Savayman» deb dadam  
qilsa hamki do'q,  
sallotdan qalbaki «uch so'mlik» yutib,  
qarta o'yinidan bo'shaganim yo'q.  
Ko'ylaklar yuki yo'q,  
boshmoq yuki yo'q,  
Kutaisi issig'i jondan o'tardi.  
Ko'kragim ostida turguncha og'riq,  
kunga goh qorin,  
goh yag'rin tutardim.  
«Ko'ryapman! – deb quyosh  
tang qolardi,  
tang, –  
vujuding-ku mitti,  
qoyilman  
senga:  
qayerdan  
joy topdi  
mushtday yurakchang  
uzun qoyalar-u  
daryo-yu  
menga?!»

<sup>1</sup> Rion – Rioni, Gruziyadagi daryo, Kutaisi shahri shu daryo bo'yida joylashgan.

## O'SMIRLIGIMDA

O'smir mashg'uloti – cheksiz-beedad.  
Biz til o'rgatamiz go'l-laqmalarga.  
Ammo men  
beshinchi sinfdan haydalib,  
tushganman Moskva turmalariga.  
Sizlarning  
xonaki  
dunyochangizda  
yotoq uchun o'sar  
baroqsoch lirik.  
Laycha shoirlarda fikr yo'q yirik.  
Ammo men  
sevgandim  
Butirkan'gizda.  
Bulon o'rmonini sog'inay nechun?!

Nechun oh dey dengiz guldurosiga?!

Mana  
mening ishqim tushgandi u kun  
«103» nomerli bo'lma<sup>2</sup> «ko'zi»dan  
«Dafn marosimi byurosiga»ga.  
Kunni ko'rib har kun  
kerilar har kim.  
«Shuncha qadrlimi bu nurginalar?»  
Ammo men  
devorda  
to'pday shu'la uchun  
dunyoda bor-yo'gim bergen bo'lardim.

<sup>1</sup> Butirka – Moskvadagi Butirki turmasi, 1909–1910-yillarda yashirin ishchilar harakatida ishtirot etgani uchun Mayakovskiy u yerga qamalgan edi.

<sup>2</sup> Mayakovskiy «103» nomerli bir kishiliq kameraga qamalgan edi, uning koptokdek keladigan darchasidan «Dafn marosimi byurosiga» ko'rinish turardi.

## MENING DORILFUNUNIM

Farangcha bilasiz.  
Bilaman boplab  
ko'paytish,  
bo'lish-u  
turlashingizni.  
Ammo siz o'y bilan,  
ayting, qalaysiz?  
Tramvay tilini  
tushunasizmi?  
Tuxumdan chiqiboq  
inson bolasi  
kitob-u daftarga  
zehnin qilar sarf.  
Men varaqlab temir tunka sahifasin,  
do'kon lavhasidan o'rganganman harf.  
yerni  
kesib,  
yirtib  
o'rganar har kim.  
Butun Yer uvoqday globus, —  
ko'rsa.  
Ammo men  
yonbosh-la  
yer o'rgangandim —  
yerga tunov uchun qulardim gurssa!  
Ilovayskiy<sup>1</sup> yechardi chigal savolni:  
— Chindan Barbarossa<sup>2</sup> mallasoqolmi?  
Men kitob titmasdim bunga vaqt sarflab.  
Ammo men bilardim Moskvada ne gap.

Odamlar o'qishar Dobrolyubovni  
yomonlikni yomon ko'rmoqlik uchun.

<sup>1</sup> Ilovayskiy D. I. (1832–1920) reaksiyon ruhda yozilgan tarix darsliklarning muallifi.

<sup>2</sup> Fridrix I Barbarossa (1123–1190) «German millatli Rim imperiyasi»ning imператори. Barbarossa degani italyancha mallasoqol degani.

Familiyasi qarshi<sup>1</sup>.  
Ayon ko'raman.  
Men doim non uchun birovni  
emas,  
o'zimni sotganman.  
Bola chog'imdan  
semiz odamlarni yomon ko'raman.

Odamlar juvonga yoqish yo'lini  
o'rghanib olgancha  
misdai manglayda  
jaranglab o'ylari  
o'tirishardi.  
Ammo men bilardim bino tilini,  
suhbatdoshim edi ko'cha uylari.  
Suvso'rар minorlar gap berishardi.  
Men qanday so'zniki otsam quloqqa  
tinglov darchalari  
diqqat-la tinglab,  
ilib olar edi  
bir qancha tomlar.  
So'ng esa tun haqda, bir-biri haqda  
yapaloq tillarin aylantirgancha  
chirillardi shamol parrakchalari.



<sup>1</sup> Mayakovskiy Dobrolyubovning familiyasi «amonlikni yomon ko'rmoq»dan emas, «yxashilikni yaxshi ko'rmoq»dan olingan demoqchi.

## KATTA BO'LGANIMDA

Kattalarda ish ko‘p.  
Cho‘ntak to‘la pul.  
Sevishmi?  
Marhamat!  
Yuz so‘m bir jism.  
Men esa  
uy-joysiz,  
teshik cho‘ntakda  
katta qo‘l  
ola ko‘z,  
ko‘cha izg‘irdim.  
Tun.  
Bashang engilni kiyib olasiz.  
O‘ynaysiz xotinni yo bir bevani.  
Moskva  
hisobsiz  
Bog‘ ko‘chalar‘ning  
halqasi bag‘rida bo‘g‘ardi meni.  
O‘ynash  
tiqillatar  
yurak-soatni.  
Sevgi to‘sagidan ulfatlar zavqda.  
Men Strastnoy maydonin<sup>2</sup> quchib yotardim  
o‘ylab poytaxtning qalb urishi haqda.  
O‘zimni  
ko‘lmakka,  
kunga  
lang ochdim –  
deyarli yuragim sirti ko‘rindi.  
Kirsin ishq-u hirsga muhtoj bo‘lsa kim!  
Yurakka men hokim emasman endi.  
Boshqalar yuragi bu uyda yotar.  
Har kimga ma’lum bu:

<sup>1</sup> Moskvaning Sadovaya nomli bir-biriga tutash ko‘chalari nazarda tutilgan.

<sup>2</sup> Strastnoy maydoni – Hozirgi Pushkin maydoni,

yotog'i - ko'krak!  
Mening esa jismim aqlin yo'qotar.  
Har yondan duduklar  
yakkash bir yurak,  
O, yigirma yilda  
ne bahor, ne o'q  
o'rtangan vujudga ag'anab qoldi!  
Sarflanmagan yukdan jirkanch narsa yo'q.  
She'rgamas,  
aslan ham  
bu jirkanch holdir.



## OQIBATI NIMA BO'LDI

Ilojidan ziyod,  
Keragidan ziyod  
yurak tugunagi azamatlashdi:  
azamat muhabbat,  
azamat nafrat  
go'yo shoirona tushday ilashdi.  
Oyog'im titrardi  
naq yukim oshib –  
bilasan,  
men ammo  
mahkam odamman,  
shunda ham  
yurakning alpligin tashib,  
bukilib ketardi  
bir sarjin gavdam.  
She'rim sutga to'lgan,  
to'kishga joy yo'q.  
to'lyotganga o'xshar qayta-qaytadan.  
Men  
Mopassan aytgan siymo ajdodi<sup>1</sup>  
she'r desa zoriqqan  
Yer otasiman.



<sup>1</sup> Mopassan aytgan siymo ajdodi – Mopassanning «Idilliya» («Sokin hayob») hikoyasi nazarda tutilgan.

## CHAQIRAMAN

Polvonday ko'tardim,  
alofday yugurdim.  
Saylovday mitingga elni chaqirdim,  
qishloqqa  
o't ketgan kabi  
bong urdim.  
«Mana u!  
Olinglar – deya  
baqirdim.  
Shundayin  
bahaybat  
ulkan  
bir badan  
chang-u kir  
qor tepe kabi  
oh ursa –  
xotinlar  
mushakday sachrardi  
menden:  
«Bizga tangabopi,  
ixchami bo'lsa...»  
Yukim bosar,  
ammo uni  
eltaman.  
Otmayman  
bo'g'sa ham meni  
nafasim.  
Biqin yoylarimda qolmadı chidam.  
Zo'riqib qisirlar ko'krak qafasim.

Kelding –  
 ishbilarmon,  
 na'ram,  
 gavdamga  
 ko'z tashlab,  
 menda bir o'spirin ko'rding.

Kelding-u  
 yuragim olding  
 shu zamon,  
 to'p o'ynagan qizday  
 boshlading o'yin.

Yuragimni o'ynar  
 mo'jiza borday  
 goh juvon,  
 goho qiz, –  
 o'ynaydi har kim.

«Sevsə bo'larmikin?  
 Tashlanar sherday!  
 Bunga zoobog'dan  
 romlovchi lozim!»

Men esa xurramman,  
 Unday zolim yo'q.  
 Shodlik yuragimga sig'may,  
 sarxushday  
 to'ydagi hindiday  
 irg'ishlayman sho'x,  
 shu qadar xursandman,  
 yengilman qushday.

Royal eltolmayman  
mening bir o‘zim,  
po‘lat sandiqni-ku  
qo‘ying tag‘in ham.

Royal-u  
sandiqli  
elta olmasam  
qaytgan yuragimni  
eltolarmidim.

Bankchilar:

«Boy odam yo‘q», – derlar, –  
bizday,

sandiqla qo‘ymasak,  
cho‘ntaklar yetmas.

Senga sevgim –  
ganjim,

uni sandiqla  
yashirib

Krezday<sup>1</sup>  
yuribman xushmast.

Agar xohlab qolsam,  
bir tabassummi,  
yarim tabassummi  
ozroqmi olib,  
lirik pul sarflayman  
o‘n-o‘n besh so‘mlik  
boshqalar ichida  
tungacha qolib.

<sup>1</sup> Krez – qadimgi yunon rivoyatiga ko‘ra, Lidiya podshohi, behisob boyliklarga ega bo‘lgan.

## MEN HAM SHUNDOQMAN

Kemalar ham oqar maskanga qarab.  
Poyezdlar ham shoshar vokzalga tomon.  
Men esa turgan gap –  
men sevaman-ku! –  
faqat intilaman  
men senga qarab.  
Kavlab zavqlanay, deb  
yerto'la sari –  
tusharkan Pushkinning xasis irtsari.  
Men shunday qaytaman  
senga, sevgilim.  
O'zim zavqlanaman:  
shundaydir dilim.  
Kirdan qutulganda  
tarashlanib,  
oq yuvinib uyiga qaytadi har kim.  
Men sening qoshingga qaytaman shundoq,  
uyga borganim-da –  
senga borganim!  
yer bag'riga olar yerlikni beshak.  
Bizni qayta kutar so'nggi muddao.  
Hozir ko'rishib ham,  
hozir ajrashsak,  
senga intilaman,  
senga doimo.



## XULOSA

Sevgiga bas kelmas  
arazlar,  
yo'llar.  
O'ylangan,  
ko'rilgan,  
tekshirilgan u.  
Patsatr she'rimni tutib bu safar  
qasamyod qilaman –  
sevaman mangu.

1922





## BU HAQDA?

(Parcha)

*Men hali zaminda yashab to 'ymadim,  
Zaminda men sevib to 'ymadim hali.*

### Bu haqdasi ne haqda?

Bir emas,  
besh emas,  
ming bor kuylangan  
ham shaxsiy,  
ham mayda ushbu mavzuda  
men she'riy olmaxon bo'lib aylandim,  
yana aylanishgim kelmoqda juda.  
Bu mavzu  
Buddaga ibodat  
hozir,  
zanji tig'in qayrar  
boyonlar yoqqa.  
Marsda  
odamyurak zot bo'lganda bir  
U ham  
yozar edi  
hozir bu haqda.  
Bu mavzu kelar-da,  
mayibni tirsakdan  
qog'oz sari turtar,  
– Yozgin! – der jo'shib.  
Mayib  
to'lib-toshib  
lip etib turar,  
yorqin baytlaridan jivirlar qo'shiq.

Bu mavzu zang qoqar –  
o'choq tarafdan,  
o'grilar,  
bir imo qilar-da ketar,  
bir zum adil turib,  
qular da'fatan,  
yozuv naqshi aro o'zni dafn etar,  
Bu mavzu buyrug'i  
«Haq!» dan iborat!

Bu mavzu farmoni  
«Ko'rk!» dan iborat!

Ulkan mo'yqalaming  
yeganda ham lat,  
bir kuyni ming'irlab  
kuylaysan albat.  
O'ylasang, alifbe ayon kitob ul,  
bu mavzu zalvori boshlar o'shandan –  
«A» sini egallah

Kazbekdan mushkul,  
aynitar,  
qaytarib uyqu-yu nondan.

Bu mavzu kelajak,  
eskirmas zinhor,  
faqat der:  
– Endi sen doim menga boq!

Boqasan,  
borasan  
bo'lib bayroq dor,  
ol shohi olovni qilarak bayroq –  
voqeaga sho'ng'ir  
bu ayyor mavzu!  
Sakrashga chog'lanar hislar inida.  
Unutub ko'r-chi sen! –  
tutoqqanday u  
joningni sug'urib olar  
qinidan.

Bu mavzu qoshimga keldi o'shshayib,

– So‘zimni  
g‘ing demay qil! – deb  
buyurdi.

Mening kunlarimga boqdi qiyshayib, odamlar va  
ishlarni har yonga surdi,  
Bu mavzu keldi-yu, yanchdi o‘zgasin,  
yaqin bo‘lib oldi bir o‘zi yakka.  
Bu mavzu pichoqday tiraldi bo‘g‘iziga.  
Bosqonchi!  
Yurakdan zarb yedi chakka,  
Bu mavzu kunni tun qilib amr etdi:  
– Baytlar manglayin ur – yorilsin zulmat!

## REDING TURMASI

### HAQIDA BALLADA

*Eslayman – turgandim.*

*Shu’la bor edi.*

*O’shanda*

*shu’laning*

*Nevaydi oti.*

**Mayakovskiy. «Inson».**

*Ballada va balladalar  
haqida*

Ballada yo‘rig‘i juda ko‘hnadir,  
biroq agar so‘zlar og‘risa og‘ir,  
og‘riqdan so‘zlasa so‘zlar baribir,  
ballada yo‘li ham yangilanadir.

Lubyansk proyezdi<sup>1</sup>.

Vodopyaniy<sup>2</sup> tomon. –

Manzara

ana shu.

Ana shu

muhit.

<sup>1</sup> Lubyansk proyezdi – Moskvada Mayakovskiy yashagan ko‘cha.

<sup>2</sup> Vodopyaniy – L. Yu. Brikning kvartirasi joylashgan ko‘cha.

O'rinda bir juvon.  
Boshida yigit.  
Yotar juvon.  
Stolda telefon.  
Dahshatli yangilik kutmangiz  
mendan.  
«Yigit» va «juvon»dir mening  
balladam.  
Dahshati shundaki,  
«yigit» – bu menman,  
anov «juvon» esa –  
men sevgan odam.  
Turma netar bunda?  
Iso tug'ilgan kun.  
G'avg'o.  
Darchalarning yo'q panjarasi.  
Bu sizga daxlsiz,  
Turma dedim-ku!  
Stol.  
Stolda bir  
somon zarrasi.

*Simdan raqam  
yuborildi*

Sal-pal tekkan edim – qavardi etim.  
Dastakni qo'limdan otdim yon tomon.  
Ikki barq o'qidan –  
– fabrik tamg'asi<sup>1</sup> –  
ishga tusha qoldi telefon,  
Qo'shni uy.  
Xonada  
uyquli ovoz:  
– Qachon bu!  
Qayerdan keldi cho'chqacha? –

<sup>1</sup> O'sha payt telefonlarining fabrik tamg'asi ikkita kesishuvchi elektr yoyidan iborat edi.

Kuyukdan qo'ng'iroq chiyilladi boz,  
apparat qizigandi to oqarguncha.  
Juvon kasal.

Yotipti juvon!  
Yugur jadal!

Aks holda  
yomon!  
Etimni burqsitib, kuyukni ezdime  
va darhol tanimga yugurdi chaqmoq,  
million volt kuchlanish qiyndi-  
ezdi,  
telefon cho'g'iga men bosdim dudoq.  
Men uyda  
teshiklar

parmalab,  
Myasnitskaya<sup>1</sup> uzra  
shudgorma-shudgor,  
sim-u raqamlarni  
uzib,  
parchalab,  
oyimqizga uchdim  
o'q bo'lib  
nochor.

Oyimqiz ko'zları boqardi mudrab-  
ikkov uchun ishla bayram oldidan.  
Qizil chiroq yondi qaytadan bodrab,  
U qo'ng'iroq qildi!

O't so'ndi birdan.  
Va sho'xlik boshlashdi

barcha chiroqlar,  
telefon tarmog'i uzilar bir-bir,  
– 67 – 10<sup>2</sup>ni, o'rtoqlar, ulanglar axir!–  
Ko'chaga!

Vodopyaniy sukuliga! Tez!

<sup>1</sup> Myasnitskaya – Lubyansk bilan Vodopyaniyi bir-biriga tutashtiruvchi ko'cha.

<sup>2</sup> 67–10–Lilya Brikning o'sha paytdagi telefon nameri.

Uh!

Barqqa bir balo bo'lsami shu on-  
havoga uchasan

ulug' ayyomda  
telefon

stansiyang

bilan

yonma-yon.

Myasnitskaya ko'chasida bir chol  
yashardi.

Shu hodisa bo'lgandan so'ng  
yuz yil yashadi –  
so'ngra faqat shu voqeа haqida  
– yuz yil! –

bolalarga so'zlab yurdi bobo  
muttasil:

– Shanba edi...  
bozordan oldin...

Son go'sht...

olmoqchiman arzonroq...

Zilzila turtganday...

Dahshatda qoldim...

Oyog'im qizirdi...

Tagcharm – qaltiroq... –

Bolalar ishonmas bunaqa gapga.

Zilzila?

Qishda-ya? Pochtamt<sup>1</sup> tarafda?

*Telefon hammaga  
tashlanar*

Nozik sim ichidan  
amallab kirib,

<sup>1</sup> *Pochtamt* – Moskvadagi Myasnitskaya ko'chasida joylashgan markaziy pochtaxona.

dastak og'zidagi gardishni kerib,  
zang chalib jimlikni qilgancha  
dirilloq oqimin yoydi telefon.

Bu jiringli narsa  
yiqitmoqchi bo'lib,  
otdi devorni.

Zang qaytdi  
devordan  
ming zangcha bo'lib,  
jihozlar tagiga dumalab bordi.  
Jarang shapatilar ship bilan  
polni.

So'ng yana  
u ulkan koptokday yangroq  
polga urildi-yu, bir sakrab oldi,  
so'ng pastga to'kildi bo'lib zang-uvvoq.  
Deraza oynasi,  
mo'ri qopqog'i  
zang bilan jo'rovoz  
titroqqa cho'mdi,  
Telefon zanglari  
uy-shiqildoqni  
qo'ichasida silkib,  
toshqinga ko'mdi.

Sekundant  
ayol

Sal bilinar –  
uyqudan  
ko'zlar nuqtasi  
ezayotir issiq ikki yonoqni.  
Oshpaz ayol erinib turdi, chamasi,  
inqillab,  
«xix tuf»lab  
bosar oyoqni.

U o'xshar tuzlangan olmaga juda,  
fikrlar bosgandi manglayga ajin.

– Vladim Vladimich?!

Kimni deysiz?

Ha!

Tufli tiqirlatib ketdi megajin.

Sekundantday ketar...

Qadamini ko'r...

Odim uzoqlashar...

Sas kelar bazo'r...

Surildi bor boshqa dunyo qaygadir,  
menga dastak bilan o'qtalar nadir.

### Dunyoning oydinlashuvi

Qotdi barcha majlislarning  
dokladchilari  
himmatli gaplarin tamomlay olmay.  
Qadimgiday,  
og'iz ochib,  
bu yerda bari  
Hayitlar hayit'in ko'rishar tolmay.  
Ular bilar hayot  
ikir-chikirin.  
Uylari –  
rasmana balchiqdir yaxlit.  
Menga qarasharkan,  
o'zlarin ko'rib,  
sevgi otishmasin kutardilar xit.  
Sirena nolasi aylandi toshga.  
G'ildirak, odimlar g'ovuri tindi.  
Duel maydoni-yu vaqt-hakim – boshda,  
ajalni bog'lashga  
shay qo'lda binti.

<sup>1</sup> Bu yerda va boshqa joylarda xristianlarning Rojdestvo, ya'ni Iso tug'ilgan kunni bayram qilishlari nazarda tutilgan.

Moskva ortida  
jim bo'ldi yovon.

Dengizlar ortida –  
xushqomat tog'lar.

Go'yoki durbinda  
turardi kayhon,  
bahaybat durbinda  
(narigi yoqdan)  
ufq adl-adl  
qaddin rostladi.

Tasma.  
Tarang kanop tortilgan edi.

Bir uchida –  
menman mening xonamda,  
bir uchida –  
sensan sening xonangda.

O'rtada –  
tushda ham  
uchramaydigan,  
oq libosda mag'rur bilonihoya,  
jajjigina bo'lib fil suyagiday  
olamda yotardi  
Myasnitskaya.

Tiniqlik.  
Tiniqlik keltirgan qiyinoq.  
Myasnitskayada

mohirona yo'nilgan detalday  
nozikkina kabel – ipning o'zi naq!  
Bari shunga bog'liq, taqdir-azalday.

## Duel

Birinchidan!  
Dastak o'qtalishdi. O!  
Umidni uzaver.

Undan tashqari,

o'tinchga chulg'angan ko'zlarim aro  
u qo'rqlmay zarracha,  
sharpa tashladi!

– Dantes<sup>1</sup>day turibsiz.

Niyatingiz ne?—  
baqirging keladi

sustkash juvonga,—

kabelni parmalab,

**zaharingizni**

tezroq ota qoling,

shimiray qonga.—

## Oshpaz xotin esnab nogahon

aytgan

ilon qornidagi tovushqonday so‘z

ko'ryapman,

kabeldan

sirg'alar

buyon

mudhishlikda o‘q-u

sov uqlikda muz.

## So‘zdan ham mudhishi –

sirg'alar simdan

ibridoiv paytning kunchi maxluqi.

(Odam

o'z modasini

u paytda

zimdan

topib kelar edi

zo'rlik-la yulqib).

Balki bunday bo‘lgan...

mumkin-ku, axir!

Telefonga tegmas, tegmagan hech kim,  
hech qanday maxlugiy bashara yo'qdir.

Telefonda o'zim.

<sup>1</sup> *Danites* – Pushkinning qotili.

*Odamning holi nima  
bo 'lishi mumkin?*

O'rtoqlar!  
O'zingiz  
bir o'ylab ko'ring!  
Shu yil yoz Parijga borajak shoir,  
muhtaram xodimi  
«Izvestiya»ning  
yirtiq botinkada o'tirar faqir.  
Men—  
kechagi odam –  
bir siltov bilan  
tishlashgach,  
yasandim naq ayiqsimon!  
Soch paxmoq.  
Ko'ylagim juni osilgan.  
O'sha gap?!  
Sim qoqib boshlaymi suron?!

Boray o'z joyimga!  
Muz dengiz tomon!

## *Ayiqlanmoq*

## Qattiq achchiqlangan ayiqday olg'a

<sup>1</sup> Erfurtniki – 1891-yil oktabr oyida Erfurtda german sotsial-demokratiyasining programmasi qabul qilingan va unda proletariat diktaturasi shiori yo'qligi uchun Engels va Lenin tomonidan tanqid qilingan edi.

qad rostlab  
boraman telefon-yovga.  
Yurakka-chi,  
botar nayza beomon!  
Oqayotir. Qizil asal oqimi.  
O'kirish hamda qon. Yala, e zulmat!  
Bilmadim,  
ayiqlar  
yig'larmi-yo'qmi,  
yig'lasa yig'laydi  
shu taxlit faqat.  
Aynan shu taxlitda:  
rahm yolg'onisiz  
uzun dara bo'yi  
o'krab shashqator.  
Ayiqa'b Balshin<sup>1</sup> ham  
shunday ma'nisiz  
devor osha vaysar  
o'qroqdan bedor.  
Shunday qila olar ayiqlar aynan;  
yigirma tirnoqda tirkab inini,  
qo'zg'almay,  
tumshug'in ko'tarib baland,  
o'krar,  
o'krab charchar,  
so'ng yotar tinib.  
Barg uzildi.  
Ko'chki.  
Bezovta qilar.  
Paqillamas edi so'ta-miltiqlar.  
Uni ayiq eta olardi yolg'iz  
Ko'zyoshi jun ora  
choqchoqlashgan ko'z.

<sup>1</sup> *Balshin* – kvartirada Mayakovskiyning qo'shnisi.

*Oqayotgan xona*

Karavot.

Temirtak.

Uvada ko'rpa.

yetar temirtakda

narsalar tinch.

Sust.

Temirga urildi

titroq bir sharpa.

Choyshab

shalop-shalop qildi

ustma-ust.

Oyoqni yaladi muzdakkina suv.

Qayoqdan keldi suv?

Munchalar ko'p u?

Men yig'lab xun bo'ldim.

Yig'loq.

Rutubat.

Yolg'on -

nahot shuncha yig'lar

shu sumbat.

Jin urgur vanna-ye!

Divan orti suv.

Suv kirgan javonga,

stol tagiga.

Chamadon divandan -

suv turtipti-yu -

suzipti deraza etagiga!

Sho'mina...

Chekindi...

O'zim tashladim.

Boray o'chirgani.

Avj olar.

Vahm.

Qayoqqa?

Qanaqa sho'mina-o'choq?

Olisda,

Olisda yonmoqda qirg‘oq,  
Barin yuvib ketdi,  
karam hidin hatto.  
(Shunday hid kelardi  
o‘choqdan  
chuchmal.)

Olislarda bo'm-bo'sh qirgoqlar.  
Daryo. Ladogani quvlab uvillar shamol!  
Daryo.

Katta daryo.  
Tavarak sovuq.  
Daryo jivirlar.

Muz ustiga chiqdim  
go'yo oq ayiq.  
Oqyapman o'zimning muz yostig'imda.  
Tomosha ko'rsatib chopar qirg'oqlar.  
Meni olib ketdi yostig'im muzi.  
Ladogada shamol.

Mo'l suv o'ynoqlar.  
Yostiq sol sirg'alar uchibmi, suzib.  
Oqyapman.

Shunday yolg'iz qoldik:  
men hamda sabo

Bu daryo!

Bu emas.

Boshqa bir daryo.

Boshqa daryo emas.

### Shu - turar edi.

Yaltirar edi u.

Esladim endi.

Fikrim o'sayotir.

Eplolmam uni.

Orqaga!

Solni hech chiqarmagay suv.

Yaqqolroq ko'rinar...

Aniqroq, aniq...

Endi muqarrar...

U – bo'lar!

Mana u!!!

*Yetti yil burungi odam,*

Po'lat tirkaklarni mavjlar

yuvmoqda.

Tanglikda yaratgan o'z qahramonim

yuz qavat ustundek uzun oyoqda qo'zg'olmay,  
mash'um bir ahvolda

yonib,

poytaxt yonlariga turar tayanib.

Havoyi nizodan gul tikdi osmon.

Suvda po'lat mushagidan

ko'tardi isyon.

Ko'zlarim suzardi

tobora yuksak...

Ana u!

Ana u – ko'prikda hamon

panjaraga qo'yib turipti

tirsak...

Kechirasani, Neva!

Kechirmas,

haydar.

Rahm qil! Rahm qilmas

qochqoq sira ham.

U!

O'sha

yallig‘langan osmon fonida  
turipti men burab bog‘lagan odam.  
Turar.

O‘sib ketgan sochlarin yozdi.  
Quloqqa kaft tutdim.

Imo ham – abas!  
Eshitdim,

eshitdim,  
o‘z ovozimni.

Kaftlarimni teshdi pichoq kabi sas.  
Mening o‘z ovozim –

so‘rar, yalinchoq:  
– Vladimir!

Ketma!  
Yolg‘iz qoldirib!

Nechun yo‘l qo‘ymading cho‘kishga  
u chog‘?

Yurakni yorishga ustunlarga urib?  
Yetti yil turibman,

Suvlarga boqib.  
Manzumang panjaraga bog‘lagan

qaddim.  
Meni kutdi suvlar

yetti yil oqib.  
Qachon kelar axir,

qay kun  
muhlatim?

Yo u toifaga  
sen ham  
suykaldingmi?

O‘pdingmi?  
Yedingmi?

Qorin qo‘ydingmi?  
Maishatlariga

oshno bo‘ldingmi?  
O‘shalar oila baxtin suydingmi?

Qo‘rqma! –

Qo'li pastga egilyapti, deya.  
O'ylama otilar, deb,  
ko'prikan pastga.  
– Qochishni o'ylama!  
Chaqirdim boyta.  
Topib,  
qoqib,  
holdan toydirgum  
qasddan!  
Shovqin eshityapman.  
Shaharda bayram,  
Ular hozir bo'lsin.  
Shuni yaxshi bil!  
Ijroqo'm qarorin olib bor sen ham,  
mening azobimni musodara qil.  
To xaloskor-sevgi  
kelmagunicha  
ana shu  
Nevskiy bo'ylab  
qoshimga,  
tentira, seni ham sevmaslar jincha,

### *Outqaring!*

Suzib qol!  
Yoki cho'k uylar toshiga!—  
To'xta, e yostig'im!  
Zoyedir jami,  
Kaftim-la eshaman –  
yomon eshkak bu.  
Ko'prik toraymoqda.  
Neva oqimi  
meni oqizmoqda,  
oqizmoqda suv.  
Endi men  
ko'prikda turgan sharpamdan  
ancha olisdaman.  
Bir kun o'tkazdim.

Ovozim gurrosi quvar orqamdan,  
Do‘qlar quvg‘inida yelkanni yozdim.  
– Unutmoq bo‘ldingmi Neva

mavjini?!

O‘rnimni olmoqchi eding-a?!

Qochqoq!

O‘lguncha yodda tut shalplashini,

«Inson»da shaloplagan u odam

biroq –

qichqira boshladi.

Qani, kim qodir?!

Kuchingiz yetmaydi –

bo‘kirar bo‘ron.

Qutqaring! Qutqaring! Qutqaring

axir!

Neva

ko‘prigida,

Nevada

inson!

*Miraziz A’zam tarjimasi*



## JUDA SOZ!

1

Zamon degani –

o'zi

uzoq hangoma:

zamonlar o'tib ketdi –

ertakday qadim.

Endi qoldi na ertak

va na jangnoma.

Telegrammday

parvoz et,

ey she'riy baytim!

Baytim, tashna labing-la

Ichaver

har vaqt –

Bir daryoning suvinki,

uning ismi – «Fakt!»

Bu – telegraf simida

«g'uv» etgan zamon

Bu –

shunday bir yurakki,

haqiqatga esh.

Bu – askarlar

yoki yurt

bajarolgan ish,

yo qalbimda

ro'y bergan

voqeа – ayon...

Bu kitob-la

istayman

bo'lib bir tana,

tor hujra olamidan  
ataylab chiqsam,  
pulemyot otishmasin  
egarlab yana,  
misramda  
nayzaday  
porlab chaqnasam!  
Bu kitobdan  
ko'zlarga to'lsin masarrat,  
bir kitobki,  
bo'l mish baxtiyor shohid.  
Isyonkor kuch hamda  
quruvchi qudrat–  
To'liqgan  
muskullarga  
oqsin shu taxlit.  
Birovni yollamaymiz:  
– Bu kunni yozsin!  
Biz o'zimiz  
varaqda  
suramiz qalam,  
toki varaq  
bayroqday shitirlab tursin,  
shitirlasin  
yillarning  
boshida bardam.

## 2

«Bitsin urush!  
Yetar!  
Bas!  
Bu ochlik– jabr!–  
Hafsalamiz pir.  
Aldashdiki:  
«Xalqqa erk,  
taraqqiy, davron...»

Barchasi yolg'on,  
Qani  
tuproq  
va qonun!  
Kim yer olibdi?  
Olib bo'libdi!  
Fevral uchun  
hamisha ishlaganingga,  
jangdan qochmay,  
miltiqni ushlaganingga –  
Ayt, olganing na?  
Qilishdi mayna.  
Gardaningga  
minibdi  
Guchkov shaytonlar,  
xar xil vazir-vuzoro,  
Rodzyanko ne deb?..  
Orqasidan tep!  
Hukumat  
o'z tumshug'in  
boyga o'girmish,  
Bunaqa hukumatga  
itoat qilish –  
Bizga ne zarur?  
– Hukumatni ur!  
Bu shikoyat  
bamisli momaqaldiroq,  
Goho esa, ovoza kabi  
sekinoq  
Kerenskiy<sup>1</sup>  
qafasi va zindonidan  
sirg'anardi,  
siljirdi  
qishloqqa tomon,

<sup>1</sup> Kerenskiy A.F.– eserlarning boshliqlaridan bo'lib, 1917-yilda Vaqtli hukumatda yustitsiya, harbiy ministr va bosh qo'mondon mansablarida turib, proletar revolusiyasiga va xalq harakatiga qarshi jon-jahdi bilan kurashgan arbob.

g'ijirlardi  
zavodda po'lat tishsimon.

Begona  
partiyalarni  
tepdilar nari,

Itardilar  
u ezma  
nutqbozlarni...

Bolshevikka  
berishdi jam bo'lib bari  
Chaqalarni  
madorni va ovozlarni.

Dehqonning  
to chang bosgan  
kallasigacha  
dovruq yetib  
bilindi zamonning zayli,  
emish,  
dehqon homiysi  
«bolshavoylar» bor –  
o'h-ho'!  
– Bunisiga balli!

3

Chorlarga  
koshonalar  
soldi Rastrelli<sup>1</sup>.  
Chorlar tug'ilar,  
yashar,  
qarirdi faqat.

<sup>1</sup> Rastrelli Bartolomso (1700–1771) – mashhur me'mor bo'lib, uning loyihasi asosida Peterburgda ko'p saroylar, shu jumladan, qishlik saroy ham qurilgan.

Saroy o'ylamasdiki –  
zamon tufayli –  
malikalar xonasi –  
yotoqda hali  
ag'anab yotar  
shallaqi  
quv bir advokat<sup>1</sup>.  
Burgutlardan,  
davlatdan,  
ko'rpa –  
to'rlardan  
advokatning kallasi  
badmast  
va garang.  
Partiyalar,  
sinflar  
unutilgandir,  
galdagi har majlisda  
dahanaki jang,  
ko'zlar  
Bonapartvori,<sup>2</sup>  
boqishi mag'rur,  
egnidagi frenchi  
harbiy – xina rang.  
So'zlar, so'zlar va so'zlar.  
So'zlar xud vulqon,  
quvnoq hakka singari  
sayrar qaqildoq,  
o'z shuhrati  
kayfidan  
mast-alast bo'lgan,  
qirq gradus aroqni  
ichgandan mastroq.  
Endi, qulq solinglar,

<sup>1</sup> Kerenskiyning mutaxassisligi advokatlik bo'lgan.

<sup>2</sup> Fransuz imperatori Napoleon Bonapartga ishora.

jonga tekkuncha,  
nega shu ad'yutant  
chirillar muncha:

«Sizga rost gap aytayin,  
yo'qlab bildim atayin,  
shundoq hodisa bo'lgan –  
U<sup>1</sup> avtoda

yurarkan

Xalq

unga duch kelibdi,  
u kimligin bilibdi,

Mashinadan

olomon

chiqarib motor hamon,  
ot quvvati evazi  
o'sha xaloyiq o'zi  
uni ko'tarib

qo'lga,

jo'nab ketibdi yo'lga».

Shapillagan qarsaklar  
qarsillar ekan,

Nevskiy ko'chasidan

suzar

bosh vazir –

Unga gul-u chechaklar

tutib turishgan

xonimlar

va do'ndiqcha bolalar hozir.–

Bekorchilik

holidan bezsa mabodo,

Kerenskiy

bag'oyat

epchil,

bahuzur.

O'zi o'zin tayinlar

<sup>1</sup> Gap Kerenskiy haqida ketmoqda.

yo harbiy  
va yo  
yustitsiya,  
yo bo'lak bir ishga  
vazir.  
Endi  
so'z bozoridan  
u qaytib kelar,  
Xazina boshqargani,  
ish taxlagani.  
Jimjimador imzosi  
g'oyat mo'tabar.  
– «Dehqonlarmi?  
To'polon?  
Bir qancha?  
Qani –  
yuborilsin,  
haligi,  
nimaydi oti:  
jazo otryadi!  
Nima, nima?  
Bolsheviklarmi?  
Hayallamay  
ularni ushlang  
va qamang!  
Nima?  
Kimlar?  
Ularni omma yoqlarmi?  
Ko'zoynaksiz qulog'im eshitmas, attang!  
Aytganday...  
Kornilov...  
Zoti oliylar?  
Kazaklardan  
lutf etsa  
bizga bir qadar?!  
A'lo hazrat deysizmi?  
Bilaman, ha-ha!..

Qo'llarin ham siqqanman.

E... bo'limg'ur gap!

Podshohgami?

Suv bilan qora non?

Tavba!

Bunga nima dahli bor

sovetning?

Ajab!

Buyuraman:

kuzating

o'z yo'ldoshiga,

Nikolayni

Londonga,

Georg<sup>1</sup> qoshiga

Endi u ham tikildi

tarix jildiga,

son va muhr bosishdi

janob betiga,

so'ngra esa solishdi

uning suratin

mashhur rassom

Brodskiy

va, hatto, Repin!

4

Peterburg oynalari

ko'k va xiraroq.

Shaharni

chulg'ab olgan

uyqu va tinim.

Biroq...

hanuz uxlamabdi

Kuskova<sup>2</sup> xonim.

<sup>1</sup> Georg – Angliya qiroli.

<sup>2</sup> Kuskova bilan Milyukovning suhbatida, Mayakovskiy kinoya bilan Kuskovaning bir qancha so'zlarini qo'shtirnoq ichiga olganki, bular Pushkinning «Yevgeniy Onegin» romanidagi Tatyana bilan enagasining mashhur suhbatidan ko'chirilgan.

Kaytib kepti  
kampirga  
sevgi va nash'a.

Tong qitiqlar  
xayol va karavotini.  
Somon tusli sochlari go'yo tarasha,  
Qanday tashvish  
uyg'oti keksa xotinni.

Nima bo'lgan,  
bu qizcha  
so'ladi nega?

U jim...  
Lekin ehtiros  
zo'rroq shekilli.

Ko'pni ko'rgan  
Milyukov<sup>1</sup>  
mo'ylov enaga –  
unga mehr-u shafqat-la  
berar tasalli.

«Hujra juda dim...  
Uyqum qochgan, enaga...  
Derazani ochib qo'y,

yonimga o'tir!  
– Oh, jonginam Kuskova,  
mazang yo'qmi, a?»

«Ko'p diqqatman...  
o'tmishdan naql aytib tur!»

«Nima desam, Kuskova?  
bir mahal  
yod olgandim  
birtalay rivoyat – masal,  
har-xil,  
bo'lgan-bo'lмаган  
afsona cho'pchak,

<sup>1</sup> Milyukov P. N. – kadetlar partiyasining rahbari, tarix fanlari professori, aksilinqilobiy burjuaziyaning boshliqlaridan bo'lib, Vaqtli hukumat davrida kapital hokimiyatini saqlash uchun ko'p harakat qilgan.

malikalar  
va shohlar haqida  
ertak.

Ammo endi  
shu ojiz zehncham bilan  
deyman,  
tojni Mixail<sup>1</sup> boshiga qo'ysam,  
nima foyda  
bizlarga yot  
suloladan...

Sen  
tinglamayapsan-ku, meni sira ham?..  
«Oh, enaga, enaga  
dilshikastaman,  
dilda g'ashlik,  
azizam,  
o'zim xastaman.

Ho'ngrab-ho'ngrab  
yig'lagim kelar,  
enaga...»  
– Xudovand yorlaqasin,  
yor bo'lzin senga,  
O'zing nima xohlaysan?  
So'ra, ayt menga...

Sen  
bizdan  
arazlama deya  
beramiz –

Konstitutsiyalar  
va hurriyatlar...  
qo'zg'olonlar o'tini  
tez so'ndiramiz –  
nutqlarning  
suvlarin sochib...  
«Oh, magar –

---

<sup>1</sup> Mixail – Nikolay ikkining ukasi

meni kasal deysanmi?

Men...

Sevib qoldim...»

– Bolaginam,

nima gap,

xudo saqlagur! –

deb Milyukov

qilardi

duo va irim,

cho‘qintirib

xonimni

qo‘l-la professor.–

– Qo‘y, Kuskova,

yoshimiz ancha ulg‘aygan,

foydasiz

sevishmoqlikning

ma’nosi yo‘q-ku.

«Yo‘q, sevaman», – der edi, –

«uni sevaman!»

Shivirlardi

profssor qulog‘iga

u:

– Jigarginam, azizam,

sog‘liging buzuq. –

«Qo‘ygin meni, men oshiq,

hech tinchligim yo‘q»

– Kuskova,

bu – asabdan,

davolani ol...–

«Oh, enaga

U qanday burro til,

so‘zamol!..

Oh, enaga!

Oh!!!

Uni

qo‘lga ko‘tarib

yurar olomon!

Erk haqida

u qanday uradi chaq-chah...  
«Yo unga yor bo‘laman,  
yoki  
o‘laman...»

Yostig‘iga turtinar

kampir dam-badam.

Og‘zidagi faqat shu:

«Sasha! Jonginam!»

Ko‘zidagi yoshlarni

yeng bilan artib:

– Axir, u kim? – bo‘kirdi

mo‘ylov enaga, –

Seni maftun qilgan kim?

Gapir batartib! –

«Sevaman Kerenskiyni!»

– Qaysi u? Sashka?! –

Bu iqrordan enaga

bor gapni bildi,

Milyukovning

qovog‘i ochildi,

kuldi.

Professorning

bu baxtdan

ochildi turqi:

– Bo‘pti, bo‘pti, bemalol –

bu baribir-ku!

Nikolayning davri ham,

Sasha davri ham

bizning daromadlardan

ko‘ngil xotirjam.

Neva sohillarida

balki, o‘sha kez

Uchratganmisiz

shu taxlit

xonimlarni siz?

Jiringlatib  
ko'p po'rim  
shporlarini

Belga osib  
tasma-yu shashparlarini,

Ikki kishi:  
bulardan biri: ad'yutant,  
sherigi Popov degan  
shtabs-kapitan

(Ligovkada joylashgan →«Seletka» ichra)  
ichishib so'zlashardi  
bir-biri ila:

«Ayting,  
janob ad'yutant,  
rost gapni xuddi, --

Nimalar  
ko'rgumiz bor?  
Qayerda umid?

Rossiyani  
juhudlar  
juhudga sotdi,

Asl  
ofitserlarni  
minibdi juhud!

Siz, kim bo'l mang  
professor,  
yoki liberal,

Kazaklarni  
ammoki  
siz tinch qo'yingiz.

Mana,  
mening ahvolim  
sizga bir misol,

bu...  
ishkalni

yechishga shayton ham ojiz!  
Bukun  
o'z denshigimga<sup>1</sup>  
baqirdimki:  
— «Hay,  
Etigimni  
moylab qo'y,  
yorqin ko'zguday!»  
Va albatta  
onasin...  
Men...  
haligiday...  
u surbetni  
qarangki,  
u ham... onamni...  
Kimni? —  
Yelizaveta Kirillovnani?—  
«Yo'q,  
men tojli  
shohlarga  
qarshi bo'lamen,  
Negisziz  
sotsializm —  
hali nasiya.  
Avval demokratiya,  
keyin  
parlament.  
Madaniyat lozimdir.  
Biz-chi —  
Osiyo!  
Men hatto —  
sotsialist.  
Ammo  
to'nkarish  
birdaniga mumkinmi?

<sup>1</sup> Denshik — chor imperiyasida ofitserning shaxsiy xizmatida yurgan soldat.

Bo‘lmaydi sira!  
Asta,  
sekin,  
oshiqmay,  
qarichma-qarich.  
Bugun,  
erta,  
yigirma yillardan so‘ngra.  
A bular-chi?  
Bilamiz,  
Vilgelm<sup>1</sup> o‘zi  
bularga in’om qilgan nishon va lenta,  
bular –  
shtab yollagan  
nemis josusi,  
Berlinda  
vokzal chiqqan  
qo‘llarda patta.  
Muhrli vagonlarda  
kelibdi bular,  
Krestiga<sup>2</sup> qamashlik  
ko‘p ma’qul bo‘lar!»—  
«Bu choraga roziman,  
to‘g‘ri-ku, biroq  
hali ham, bu peslardan  
osildi kamroq»...  
«Nima?  
Aljib qoldingmi,  
Rusiya kampir?  
Surgi dori ich!  
Tuzal!  
bir oz kuchga kir.  
Bu bekor gap!  
Kazakka hazillashmasin.

<sup>1</sup> Vilgelm II – Germaniya imperatori.

<sup>2</sup> Kresti – Peterburgdagi turma.

Ko'poramiz  
ichagu chavaq – hammasin...»

Bu gaplarga ad'yutant  
qiqirlab kular,  
undan qolmay Popov ham  
piqillab kular,  
«Vaboga yo'liqqurlar,  
bo'lzin la'natband!

Birpas meni tinglangiz  
janob ad'yutant:  
general...

Zoti oliy ...  
xazrat ...  
Kaledin<sup>1</sup>

Dondan  
tashrif etadi  
qo'lida xipchin;

Zoti oliylarini...  
Siz demang yakka!

Dnepr,  
Don,  
kubanli kazaklar birga...»

Ulfatlar  
urishtirib  
qadahni  
jing-jing,  
jiringlaydi shporlar  
jarangu juring.

Ichib-ichib kapitan  
mast bo'ldi itday,  
dam chiqarmay  
malaylar  
choynak keltirar.

Naryog'dagi

<sup>1</sup> Kaledin A.M.– chor generallaridan, 1917 yilda Don kazaklariga suyanib sovetlarga qarshi kurashgan oq gvardiyachi.

podvaldan esa,  
paydar-pay –  
qalqayotgan boshqacha  
so‘z eshitilar.

«Men,  
o‘rtoqlar,  
harbiy byurodan.

Tamom qildik majlisni,  
hozir.

Ol mauzer-chun  
ikki yuz  
o‘qni qo‘ltiqqa

Mana bu  
yuzta o‘qni olgin  
miltiqqa!

Og‘izlarni yog‘larkan  
murosachilar,

kelar  
kazaklar bilan  
samokatchilar.

Buyruq bor:  
piterliklar  
frontga ketsin,

bu yerga  
Gatchinadan<sup>1</sup>  
qo‘sishinlar o‘tsin.

Ey, bu yerga  
Viborgdan<sup>2</sup>  
kelayotganlar,

siz  
Liteyniy ko‘prikan  
aylanib kelng!

Tunda  
pastlab gapiring

<sup>1</sup> Gatchina – bir shahar.

<sup>2</sup> Viborg – Peterburgda ishchilar turgan rayon.

misli nozik tor,  
bu – mayxona emasdир,  
jim,  
sokin bo'ling!

Men telefon markazin  
egallahishim shart,  
biz bo'g'masak  
bizlarni ular  
bo'g'ishar.

Yo telefon bizniki bo'lur va yoxud  
proletar jonimdan  
ajragayman xud.

Uning o'zi  
kelgandi  
eski paltoda,

yurar edi  
birovlar tyniyolmay hech!

Derdi:  
– Bugun qo'zg'almoq  
barvaqt, behuda,  
ammo, indinga qolsa –  
qolarmiz  
ko'p kech!

Ha, demak, ertaga!  
Boplar ekanmiz!

Kaltaklaymiz  
Kerenskiy badzotni

ya'ni  
u shohona yotoqdan  
obchiqarmiz biz

haligi Aleksandra  
Fedorovnani.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Bu yerda kinoya bor. Nikolay II xotining nomi Aleksandra Fyodorovna edi. Kerenskiyning nomi esa Aleksandr Fedorovich edi. Bu o'xshashlikdan foydalanib ishchi tilidan berilgean bu so'zda Mayakovskiy Kerensiysi zanchalish davlat arbobi deb masxara qiladi.

Oktabrd da esardi  
 odatiy yellar,  
 kapitalizmda tashvish  
 odat bo‘lganday,  
 Troitskiy tomonda  
 chayqalib yelar  
 Tramvaylar avtolar  
 izdan paydar-pay.  
 Ko‘prikning ostida bir –  
 Neva daryosi,  
 bunda  
 kronshtatlik matroslar suzar...  
 Eshitilar miltiqning  
 so‘zi – sadosi,  
 bu sadodan qishlik qasr  
 tezda qarsillar.  
 Yashirinib  
 dovdiragan avtoda ojiz –  
 qochar edi  
 omonat bir yukday oddiy,  
 Gatchinadan chap berib  
 u sobiq rais:<sup>1</sup> –  
 «Bebosh qullar!..  
 ularga jazo ashaddiy!  
 Siyrak yulduzlar ko‘zi  
 ko‘rar daf’atan –  
 Qishlikni<sup>2</sup> qurshamoqda  
 askar halqasi,  
 Milonniy ko‘chada,  
 kazarmalardan  
 keksgolmchilarning,<sup>3</sup>  
 yurar to‘dasi...

<sup>1</sup> Kerenskiyga ishora.

<sup>2</sup> Qishlikni – qishlik saroy.

<sup>3</sup> Kyeksgolmchilar – Chor qo‘shinida harbiy bir qism.

Hukumatni,  
yaxshisi,  
o'zing tashlab ket,  
baribir-ku,  
najot io'q,  
ishlaring yomon!  
Ishchi mahallalardan  
kelar  
ketma-ket  
qizil gvardiyachilar  
qishloqqa tomon.  
Ishchi,  
matros,  
yo'qsillar qatorma-qator  
qo'llarida nayzalar – tig'lar yaltirar.  
Go'yo  
qishlik saroyning  
bo'g'ziga tamom  
qadoq qo'llar  
chuzilib  
siqishar hamon.  
G'o'dayishdi  
lapanglab ikki zo'r soya,  
Bir-biriga duch keldi,  
ikki peshona,  
Panjaralar barmog'in  
qilib dastmoya –  
Olomonni  
to'smoqchi bo'ldi  
koshona.  
Shamollardan,  
o'qlardan poyama-poya  
chayqalashib titrardi  
ikki zo'r soya, –  
sinayotgan so'ngakday  
qarsillayotir  
sira tinmay pulemyot – o'q

<sup>1</sup> Pavlovchilar – reaksiyani quvvatlovchi gvardiya polklaridan.

<sup>2</sup> Bochkaryovchilar – ayollardan tuzilgan batalon. Kerenskiyning buyrug'iga muvofiq, qishlik soroy mudofasiga qatnashgan.

<sup>3</sup> Chor qo'shinidagi imtiyozli polklarning nomlari.

kazakning kalladorlari.  
Go'yo  
    taroq tishlari  
                sinib tushganday  
siyraklashdi  
    qishlikning  
                soqchi askari.  
Xiyla uzoq  
    chuzildi  
                sukunatli dam.  
Bu sukutda umid ham,  
    umidsizlik ham.  
Qishlik saroyda esa,  
    muhtasham uy bor,  
mebellar jimjimador,  
    naqshin bronza,  
ministrlar  
    o'tirmish  
                bunda ham qator,  
qirdirilgan betlari  
    archilgan toza.  
Ularga na qarash bor,  
    na qulqoq, solish –  
nayzalar o'rmonida  
    janoblar tutqun,  
so'lqillagan nok kabi  
    ular yetilmish,  
bir qoqlisa  
    to'kilib ketgaylar  
                butun,  
Onda-sonda pichirlash ovoz –  
Imo bilan  
    gap ketar bir oz.  
– Kerenskiy qaerda ekan?  
– Kazak olib kelgani ketgan!  
Yana cho'kar jimlik, o'rtalol.  
Lekin,

kechga borib bir savol:  
– Prokopolovich<sup>1</sup> qaerda ekan? –  
– Prokopolovich...  
Bedarak ketgan!  
– Ammo,  
Nikolaevskiy ko‘prigidan past,  
qo‘rg‘oshin rang suvlarning  
ketidan faqat  
qarar edi  
ajalday  
sovuuq indamas,  
«Avrora»<sup>2</sup>ning  
po‘lat  
qubbasi  
beshafqat.  
Shu onda yoqasidan  
ko‘tarib boshin –  
Konovalov<sup>3</sup> balandga  
bir ko‘z tashladi.  
Hozirgacha  
buloqday quyilgan  
shovqin –  
Endi  
selob bo‘ldi-yu,  
qaynay boshladi.  
Bu novcha bo‘y kim ekan?..  
Yo teraklardan  
derazaning  
oynasin  
sharaqlatgan kim?  
Yo‘q, yo‘q,  
bu uch dyumli  
zambaraklardan

<sup>1</sup> Prokopolovich S.N. – 1917-yildagi vaqtli xukumatda avvalo savdo va sanoat, keyinchalik esa, oziq-ovqat ministri.

<sup>2</sup> «Avrora» – Oktabr qo‘zg‘olonida bolsheviklarni yoqlagan revolyusion kreyser.

<sup>3</sup> Kokovalov A.I. – yirik kapitalist, Vaqtli hukumatda savdo va sanoat ministri.

Petropavlov portlari

sharaqlab balkim...

Yuqorida –

go'yoki

zo'r shahar portlar,

«Avrora»ning to'plari

«guv-guv» g'uvillar.

G'uvillab

olov-o'qlar

havoda yonar,

yerga endi sochilay

deganda

balki,

Petropavlov ustidan

yuksaldi fonar, –

Bu –

qo'zg'olon degani,

shartli bir belgi.

– Yo'qolsin!

Hujum!

Olg'a!

Bosaylik, hujum! –

Kirishdilar

gilamlar ustidan toshib!

Hatto har bir zinada

bo'lishib g'ujum. –

Yurishardi yunkerlar ustidan oshib.

Go'yoki, xonalarda to'lib toshdi

suv,

oqar edi

olomon

berib qurbanlar,

tushning hovuridan ham

qizg'in

tortishuv,

jang o'rni – darpardalar,

yumshoq divanlar.

Bu arkarda chorlarga  
albat bir mahal  
Tojlar tutib  
boj berib  
bo‘lgan tabriklar, –  
endi bosib  
zallarda  
marmaru baxmal –  
taqillaydi  
qo‘ndoqlar  
qo‘pol etiklar.  
Mana, qo‘lga  
tushgandan  
xijil bachchag‘ar;  
putilovchi  
so‘ylaydi  
unga mehribon:  
«O‘g‘irlagan soatni  
chiqar qo‘y o‘g‘lon:  
chunki, endi  
bizniki  
butun soatlar!»  
Kuchayib borar edi  
oyoqlar zarbi  
O‘n uchtani!  
qamradi,  
supurdi,  
surdi.  
Galstukka  
boshlari tigilib kirdi, –  
Gardanlarga  
boltalar  
o‘qtalagan kabi.  
Ikki yuz...  
faqat o‘ttiz...

<sup>1</sup> O‘n uchlar – Vaqtli hukumat kabinetining o‘n uch a’zosi, o‘n uch ministri.

yigirma odam...  
 Chopib kirdi  
 bir yunker:  
 – «Nizo ahmoqlik»  
 o'n uch ovoz chiyillar:  
 – «Biz taslim!  
 Taslim!»  
 Po'stinlarga,  
 shinelga  
 eshik to'lgan liq...  
 Bu sukutga  
 suqildi  
 to'satdan tovush,  
 yangragan,  
 hadiksiz  
 yo'g'on bir sado:  
 «Kim bu yerda vaqtliklar?  
 Qani, taxtdan tush!  
 Hammangning vaqtlarining  
 bo'p qoldi ado!  
 Smolniyda  
 olomon  
 kerib ko'ksini  
 Xabarlarg'a  
 chiqardi  
 qo'shik-la peshvoz,  
 birga aytib:  
 «shu bo'lur»<sup>2</sup>  
 degan so'zini,  
 «Eng so'nggi»<sup>3</sup>ni.  
 jo'r bo'lib  
 kuylashardi soz...  
 Tonggacha qolgan edi

<sup>1</sup> «Vaqtliilar» – Vaqtli hukumat azolari. Ikkinci maqomda «vaqtlarining», y'ani muhlatlaring ma'nosida.

<sup>2</sup> «Internatsional» – gimindagi mashhur naqarotning so'zlaridan.

<sup>3</sup> «Internatsional» – gimindagi mashhur naqarotning so'zlaridan.

bir gazchalik yo'l,—  
Sharqdan  
nurlar ko'tarmish  
yalinmoqqa qo'l.  
Mashinaga o'tirib  
Podvoyskiy o'rtoq,  
horg'in dedi:  
«Ish tamom....  
Smolniy... tezroq!»  
Ortiq tindi pulemyot.  
Ishlar boplandi.  
Vizillovchi  
arilar – o'qlar  
jim bo'ldi.  
Tig'  
qirrali yulduzday yondi,  
tovlandi,  
osmoniy yulduzlar  
poyloqda  
so'ldi.  
Oktabrda  
esardi  
odatiy yellar.  
Ko'priklarda  
rel'slardan ochib iz-yo'llar,  
Tramvaylar  
chopishni ettirar davom,  
sotsializm davrida —  
boshqa bir ayyom.

Ana shunday kunlarda,  
shunday tunlarda  
istagan paytingda sen  
sayr etsang agar —  
ko'chalarda

shoirlar

yoki o‘g‘rilar.

G‘ira-shira ko‘lanka

o‘zi

suv yanglig‘, yoqdir

moviy fazoning

tub – nihoyasi.

Yana

shuning ustiga misli

kit – baliq

«Avrora»ning

qo‘qqaygan

ulkan jussasi,

Maydonni qirqib o‘tdi

epchil pulemyot.

Daryo bo‘yi ko‘chalar–

bo‘m-bo‘sh va xilvat

Gulxanlarda lovillab

o‘dag‘aylar

o‘t –

bir chekkada

ko‘p quyuq soyada faqat...

Haroratdan

shu tuproq

bo‘lmish yopishqoq.

Qo‘rqqanidan,

yo qo‘li muzlaganidan,

Yoki

bunda boshpana izlaganidan –

bir gulxanning yonida

yoppa-yolg‘iz zot:

isinar soldat.

U soldatning

ko‘zida aks etdi olov,

Sochlaringning

tarami bo‘ldi otashnok,

Hayron bo‘ldim,

men uni tanidim  
darrov:  
«Qalay, salomatmisiz,  
Aleksandr Blok!<sup>1</sup>

Omad futuristlarda,—  
eskirgan kamzul  
Choklaridan  
so‘kilib  
bormoqda nuqul».

Blok boqdi  
gulxanga  
o‘ylanib biroz –  
dedi:  
«Juda soz!»

Ko‘rdimki,  
chor atrofda  
cho‘kib borardi

Blokning Rossiysi  
og‘ir, abadiy...

Uning sevgan olami:  
«Notanish xonim»,  
«Shimol yoqning dudlari»<sup>2</sup>  
barisi bugun

go‘yo konserva qutisin  
sinig‘iday dim,  
dengizlarning  
qa‘riga  
botardi butun.

Birdan  
yuzi  
sarrofning yuziday xasis,  
to‘y paytida o‘limday  
qayg‘urdi ma‘yus:  
«Qishlog‘imdan...

<sup>1</sup> Blok (1880 – 1921) – mashhur rus shoiri.

<sup>2</sup> Qo‘shtirnoq ichiga olingen bu obrazlar A. Blokning simvolistik davrida yaratgan asarlarining nomlaridir.

xat oldim...  
yozadilarki...  
o't qo'yishib...  
yoqishgan  
kutubxonamni...»

Blok termilib qoldi –  
Blok soyasi  
devor bo'yi  
yopishib angraydi raso...  
Go'yoki,  
intizorda  
har ikkalasi:  
Kelarmikin  
suvlardan qadamlab  
Iso...<sup>1</sup>

Ammo,  
Iso kelmadi  
Blokk tomon,  
Blok ko'zi qayg'uli,  
soliq kipriklar.  
Iso emas,  
qo'shiqlar aytishib hamon –  
Paytin poylab  
kelishdi  
asl tiriklar.  
– Qo'zg'aling!  
Qo'zg'aling!  
Qo'zg'aling,  
mardikorlar,  
ishchilar!  
Qo'llarga miltiqlar oling  
bolg'achi, o'roqchilar!  
Bayroq –  
avjga!

<sup>1</sup> A. Blok o'zining so'nggi asarlaridan biri bo'lmish «O'n ikkilar» dostonida sotsialistik revolyutsiyani ijobiyl qabul qilish bilan bir qatorda, Iso payg'ambar obrazini ham najotkor kuch sifatida talqin qilgan edi.

Juldur –	жүлдөр	jułdur
	tur!	tur!
Vaqt –	вакт	vakıt
	pachava!	pachava!
Yovni –	йовни	yovni
	ur!	ur!
Non!	нон	non
	Erkinlik!	erkinlik!
	Sulh uchun –	sulh uchun
ayamasdan	аямасдан	ayamasdan
	bor kuching!	bor kuching!
Zavodni burjuydan	заводни буржуядан	zavodni burjuydan
	ol!	ol!
Yerni	иерни	yerni
	pomeshmikdan	pomeshmikdan
	ol!	ol!
Kurash uchun	кураш учун	kurash uchun
	maydon	maydon
	ol!	ol!
Eski –	ески	eski
	yo‘qol,	yo‘qol,
Xay nomard!	хай номард!	xay nomard!
Boyga	бояга	boyga
	musht sol!	musht sol!
Shartta-shart!	шартта-шарт!	shartta-shart!
Yelkalarda	ялкаларда	yelkalarda
	itoat	itoat
yukin tashish	юкин ташис	yukin tashish
	bas, yetar!	bas, yetar!
Kapitalga	капиталга	kapitalga
	sol dahshat!	sol dahshat!
Dirillang	дириланг	dirillang
	ey zar tojlar:	ey zar tojlar:
Qorin yog‘i	корин юғи	qorin yog‘i
	erisin –	erisin –
dorilarning xataridan!	дориларнинг хатаридан!	dorilarning xataridan!
Tekinxo‘rlar	текинҳо‘рлар	tekinxo‘rlar

chirisin –	
o'limdan battaridan!	
Shartta-shart!	
Portlat!	
Qayta-qayta kuylanib	
	bu yangi qo'shiq
kar dehqonlar eshitdi	
	bu kuyni hatto,
qishloqlar ham qo'zg'aldi	
	baham, qorishiq,
yo'lga chiqdi	
	boltaga
	berishib fatvo <sup>1</sup> .
– yerdorlar	
	ishi chicka,
Pichoq	
	tiq
	pomeshchikka!
Endi	
	janob,
	pomeshchik
Sharabarang	
	olib
	chiq!
Chiq,	
	maydonga,
	och-yupun,
Yalang	
	bosh
	yalang
qayra	
	oyoq,
	boltangni
	bukun,

<sup>1</sup> Fatvo – duo o‘qib biron ishga ijozat berish.

cholg‘i  
va o‘roq!  
Nimasi  
kam  
Ninamning?!  
O‘zlar  
oyimtilla,  
tort uyg  
pianinoni,  
gramafon,  
soat-la!  
Yaqin  
keling  
polvonlar!  
Bular:  
talon-torojlar.  
Qoziq bilan ko‘tar qo‘y,  
xaskash bilan  
itar qo‘y!  
Stenkaning,<sup>1</sup>  
Pugachyovning  
Ishlari  
olovlansin!  
Biz  
boylarning  
qo‘rasin!  
yondiramiz barisin!  
Xo‘rozni<sup>2</sup>  
qo‘yib  
yubor!  
Panshaxani baland tut!

Hay,

<sup>1</sup> Stenka Razin (XVII asr) va ye. Pugachyov (XVIII asr) – stixiyali revolyutsion dehqonlar harakatining rahbarlari.

<sup>2</sup> Dehqonlar qo‘zg‘olonlari chog‘larida yong‘in simvoli (belgisi).

o'chmagin,  
yonib bor,  
jonim  
xo'roz,  
olov yut!  
Endi  
unga  
yor  
shayton!  
Kallalar –  
karam boshi.  
Tachankadan  
har zamon  
yog'ar  
o'tli qo'rg'oshin;  
«Hay, olmacham  
aslsan,  
sutday  
oqsan  
kesilsang.  
O'ngdan  
oqqa tig' sug'ur,  
chapdan  
qizillarni ur!»  
Fikrlarda,  
ishlarda  
har xil uyurma,  
qurilishlar,  
yong'inlar  
qorishgan tamom,  
partiya  
bu kuchlarni  
tiyib qo'lida  
safga tizib  
boshlardi  
maqsadga tomon.

Qahraton,

yomon sovuq.

Zamharir bir qish.

Ammo, tanga yopishar

terdan ko'ylaklar:

Bu – mehnat shanbaligi...

qaynab ketar ish.

Ko'ylakli kommunistlar

o'tinni yuklar

Biz ketmaymiz,

ammo shuni biz

bilamizki, ketsak

ruxsat bor.

O'z yo'limiz,

o'z vagonimiz –

O'tinimiz

yuklaymiz qator.

Soat ikki:

haqimiz butun,

ketsak bo'lar,

ammo

kechroq ketgaymiz.

O'rtoqlarga

lozim shu o'tin:

O'rtoqlarni

sovqotirgan

muz.

Ish ko'p og'ir,

bu ish

ko'p qiyin.

To'lanmaydi

bunga bir tiyin.

Ammo biz-chi:

ishlaymiz qasddan,

yaratganday ulug'ver doston.

Biz ishlaymiz  
zahmatga chidab,  
zamon charxi  
tez aylansin deb,  
hayot chopsin  
temir marsh  
kuylab,  
o'z yerimiz – cho'limiz  
bo'ylab  
bizga qaram  
vagonda shu kez –  
bizning to'nggan  
shaharlarga tez.

«Ne qilasiz  
bunda,  
amaki?

Amakilar  
nega shuncha ko'p?»  
Bu sotsializm!  
Ya'ni – demakki  
hur kishilar,  
erkin ishlar ko'p!

9

Respublika oldida  
boylar  
turipti,  
Angrayishib so'rashar:  
– Nima degani?  
«Sotsialistik millat»ni  
kim ham ko'ribdi?  
«Sotsialistik vatan»mi? –  
Bu so'z – bema'ni.  
Shavqingizni  
anglashga  
uquv yo'q  
bizda,

nimani ham zavq bilan  
siz sayraysia?

Qani,  
sizning  
bolshevik jannatingizda

Unar  
qanday  
mevalar  
va apelsinlar?

Non va suvdan  
bo'lakroq  
nima bildingiz?

Yalindingiz  
siz o'lmas ovqatga nuql.

Har kunni  
g'animat deb  
mamnun bo'ldingiz,

Shunday  
tikanzor vatan,  
nimasi ma'qul?

«Bor urushgin»  
desalar,  
ne deb borasiz?

Odamzod  
o'z yeri deb  
o'lmog'i mumkin,  
bu uchun  
bomba urib  
qo'ysa ham joyiz,  
umumiy yer deb  
o'lmoq  
taajjub, lekin?!

Rus bilan  
rus quchishsa  
qancha halovat,

Sizchi:  
Rossiya

nomin

ko'mdingiz oson.

Bu qanaka

vatanki,

o'zi yo'q millat?

Xo'sh,

nima millatingiz?

Kominteriston?

Xotin,

yaxshi kvartir...

Bankda pul... Mayli!

Bunisi – ona Vatan,

jannatday kirim.

Urushsang

xo'p,

shu taxlit

Vatan tufayli,

bu yo'lda

sen o'lsang ham

ko'p savob – irim».

Eshitingiz,

ey milliy haromtomoqlar, –

kunimiz bizga ma'qul,

chunki u qiyin.

Bu qo'shiqda

kuylaymiz

shu aziz choqlar –

Balolar,

g'alabalar

ishlarning kuyin.

## 10

Bir yutum suvday

jo'ndir siyosat ishi.

To'q jag'larin

irjaytgan yirtqichlar bilar:

Rossiyada

tirnoqdan burjua qushi –  
ilinib qolsa demak – u harom o‘lar!  
«Syurte jeneral»<sup>1</sup>lardan  
«siguransa»<sup>2</sup>dan,  
«intellijens servis»<sup>3</sup>dan,  
«defenzifa»<sup>4</sup>dan  
har xil palid ablahlar  
chiqib daf’atan  
bo‘z shinelni o‘lchashar yelkalariga,  
bombalarni tiqarlar xaltalariga,  
bu razillar kemaga joylashib to‘lar,  
ularni yollaganlar pullarni to‘lar,  
Novorossiysk portiga Marseldan<sup>2</sup> kelar,  
Arxangelskka Duvrdan<sup>3</sup> jo‘nashar ular.  
Aroq kayfi – ko‘zlar lo‘q,  
cho‘chqa yanglig‘ qorin to‘q,  
Sovuq suvda o‘rmalar  
to‘lqin yorar kemalar.  
Suv ostida qayiq ko‘p,  
G‘o‘daygandir periskop<sup>4</sup>

<sup>1,2,3,4</sup> Fransiya, Ruminiya, Angliya va Polsha kontrrazvedkalari.

<sup>2</sup> Marsel – Fransiyaning janubidagi katta shahar va port.

<sup>3</sup> *Duvr* – Angliya portlaridan.

<sup>4</sup> Periskop – suv osti qayiqlarda uchi suvning ustiga chiqarilgan mahsus durbin.

Kroyserlar<sup>1</sup> suzadi,  
har yoqqa o‘q uzadi.  
Minonoslar  
                            minali  
o‘ldirmakdir – amali.  
Tag‘in,  
                            bular  
                            ustiga  
tushib bosqin qasdiga  
to‘p-la  
                            qilmochi nobud  
zo‘ravon drednaut.<sup>2</sup>  
Har xil  
                            badbo‘y gazlarni  
                            yomon sasitib –  
parraklarning zarbi-la  
                            bulutni yirtib –  
aviomatka<sup>3</sup>larga  
                            qo‘nishar har dam  
gidro<sup>4</sup>lar bardam.  
Bilag‘on kapitanlar  
yubormish boylar,  
to bo‘g‘zimiz  
paypaslab siqib ko‘rgaylar.  
Oq dengizda  
                            jo‘nasa  
                            biron qo‘ltiqqa,  
yoxud  
                            Qora dengizga  
                            va yo Boltiqqa,  
yo Kaspiyga  
                            yo‘l olsa

<sup>1</sup> Harbiy kemalarning bir turi.

<sup>2</sup> Drednaut – katta tipdag‘i harbiy kema;

<sup>3</sup> Aviomatka – samolyotlarni tashib yurishga va ularning qo‘nib, ham ko‘tarilishiga moslangan tezyurar kemalar.

<sup>4</sup> Gidro (gidroplan) – suvg‘a qo‘nib ko‘tariladigan samolyotlar.

bizning har kema –  
bir baloga yo'liqib  
topar xotima.  
Dengizlarning bekasi  
turar taltayib,  
Itona,  
Britaniya  
boqar g'o'ddayib.  
Har tarafdan  
qamalning temir halqasi,  
yuzimizga tikilgan  
to'plarning og'zi.  
– Qizillarga yoqmabdi  
Ular ochmi? –  
Ha?!

Dengizga irg'itarmiz,  
yesinlar baliq,  
Quruqda  
talonlarga  
havaskor gala  
kemalardan  
sohilga chiqди  
yarog'liq.  
– Botirarmiz dengizda,  
toptarmiz  
yeringizda.–

Birovlarni  
aldashib  
minar bo'yniga,  
o't qo'yalar  
vatanning  
aziz qo'yniga.

Baronlar,  
knyazlarning  
chap berib qochgan  
otilishdan qutulgan  
tentak avlodи

ahmoq bo'lib,  
birinchi safda turadi.  
Qabrlarni qazinglar,  
tobutlarni yasanglar,  
Yudenich<sup>1</sup>ning lashkari  
Bosmoqda  
Piter<sup>2</sup> sari.  
Karvonda  
laziz ovqat:  
Konservalar  
pud-pudlab.  
Zanjirli tanklar bosar –  
Piter tomon tipirlab.  
Shimoldan  
kelayotir  
Kolchak – admiral<sup>3</sup>  
Sibirning  
g'allazorin  
qilib poymol.  
Mashinalar kovlagan  
transheylar berk,  
sapyorlar  
ilmal-teshik qilgan Qrimni.  
Vrangel<sup>4</sup>ning  
o'qtalgan to'plari yirik,  
Perekopdan  
boshabdi  
u ham hujumni.  
Polkovniklar  
jazmani

<sup>1</sup> Yudenich N.I. – chor generali, 1919-yilda Antantaning yordami bilan kontrrevolyusion qo'shin uyushtirib Petrograd ustiga yurish qilgan.

<sup>2</sup> Piter – Peterburg (Petrograd)ning xalqcha qisqartirilgan nomi.

<sup>3</sup> Kolchak A.V. – chor admirali bo'lib, ichki urush yillarida Sovetlarga qarshi Sibirda kontrevoltsion armiya tuzib, hujumga o'tgan edi.

<sup>4</sup> Vrangel – chor generali. Ichki urush yillarida Qrimda bosh ko'targan oq ko'shinlar qo'mondoni.

injiq ledilar.<sup>1</sup>  
Polkovniklar  
yoqtirar  
lofni ovqatda.  
Aroq ho'plab,  
taom yeb  
mag'rur deydilar.  
– Bir kun yo'lda  
bir o'zim  
yurgan fursatda,  
o'n  
bolshevik  
yalmog'iz  
chiqdi nogahon.  
Bittasini  
bir soldim,  
quladi hamon,  
ikkinchisin  
pachaqlab  
tashladim yomon,  
bir bechora  
qizni ham  
qutqardim omon.–  
Siz  
o'sha ko'k ayg'irdan  
bir so'rang, ledi,  
qanday qilib  
Murmanskni  
butun zo'rladi?  
So'rang-chi:  
qanday bo'lib,  
Dvina<sup>2</sup> qonga to'lib,  
Jasadlarni  
itarib,

<sup>1</sup> Ledi – xonim (inglizcha).

<sup>2</sup> Dvina (shimoliy) – Rossianing shimolida Oq dengizga quyilayotgan katta daryo.

Mudhish

g‘azna ko‘tarib  
qanday yetdi makonga,  
o‘sha

muz okeanga?

So‘rang:

qanday bo‘lib, shu –  
bir to‘da «botir»

bog‘liq qo‘l

kommunistni  
qo‘rqmay otibdir?

So‘rang:

A’lohzaratning  
ofitserlari –

Sohildan

qanday qochdi  
pitirlab bari.

Qanday chiqди

kulbadan  
olovning pari,

Qanday siqди

tomoqni  
«nazokatli» qo‘l.

Ammo:

«its e long uey  
tu Tipereri,

its long uey

tu go!»<sup>1</sup>

Birinchi ishchi-dehqon

respublikasin

Yovlar

turtib ko‘rishdi

har bir chekkasin:

ular o‘qlar yog‘dirdi,

<sup>1</sup> «Yiroq ekan yo‘llarim Tipereriga, yiroq ekan yo‘llarim u yerga» (ingliz soldat qo‘shig‘idan).

nayzalarni chaqdirdi.  
Bu yoqliq,  
narigi yoqliq  
dunyodor boylar  
bizga flot surdilar  
tortdilar  
lashkar.  
La'nat sizga  
ey badnom podshohliklar,  
Demokratlik niqobin  
taqqan chiriklar,  
la'natlarga chulg'anib  
go'rga ketingiz,  
rasvo  
«fraternite»-yu «egalite»<sup>1</sup>ngiz  
Yog'ar  
qaynoq  
qo'rg'oshin  
go'yoki selob.  
Qayerga ham bekinib  
olamiz endi?  
«Yanki dudl  
kip it ob,  
Yanki dudl dendii»  
Miltiqlardan,  
to'plardan  
na'ra-nidolar,  
Moskva –  
bir orol-u,  
biz – bu orolda.  
Bizlar –  
och-yupunlar;  
bizlar  
gadolar.

<sup>1</sup> «Fraternite» (qardoshlik) va «egalite» (tenglik) fransuzcha so'zlar bo'lib, buyuk fransuz burjua revolyutsiyasining shiorlaridan edi. Mayakovskiy bu so'zlarining borib-borib imperialistlar qo'lida soxta niqoblarga aylanganini fosh etadi.

## Tiriklik

havo kabi

esmoqda doim,

esar

sodda va quruq

surunkasiga,

Staxeyev uyida<sup>1</sup>

shu turar joyim,

hozirda

bu uylarga

Veyesenxa<sup>2</sup> ega.

Miltiqlar

sharaqlatib,

boqmaganni qaratib

keltirishdi

tez, ildam

qilishdi bu yerga jam –

kassalarni, qulfni,

boy

va yo'qsil

sinfni.

Shekspirning

tomlari

pechkaga

yoqiladi,

dirillar

tishlar faqat,

kartoshka –

zo'r ziyofat.

Yozda bo'lsa

ko'chaga solishar qulqoq,

<sup>1</sup>Petrogradda ko'p uylar egasi, katta boy.<sup>2</sup>Veyesenxa (VSNX) – Vsshiy sovet na rodnogo xozyaystva – Xalq xo'jaligi oliv kengashi.

derazadan qarashar  
qo'lda bir chaqa:  
«Transval, oh Transval,  
ey ona tuproq!»

Sen  
giriftor bo'libsan  
o'tda kuymoqqa!»<sup>1</sup> –  
Men-chi:  
bu tosh qozonda  
vujudim qaynoq!

Qaynayman  
shu hayotning  
dosh qozonida,  
hayot – chopmoq,  
savashmoq,  
uxlamoq  
yotmon –

aks etar  
binolarning  
oshyonida,  
Aks etadi  
bu hayot  
boshidan oyoq.

Otishmalar  
chog'idda  
cho'kka  
o'tirdim,  
sukut chog'i –  
darchadan  
mo'rabal  
turdim,  
toki

<sup>1</sup> Transval – Janubiy Afrikada sobiq respublika. Yuqoridagi bayt – ingliz-burlar urushi (1899–1902) davrida Angliya bu yerlarni ishg'ol qilmoqchi bo'lganida, Rossiyada to'qilgan bir qo'shiqdan olingan.

aniq ko'ray deb  
yo'lni - ko'chani;  
shu ravishda  
qayiqcha - hujramni  
surdim-  
suzib o'tdim  
men uch ming kun-u kechani.

## 12

Chayqovchilar  
Glavtop<sup>1</sup>  
aylanasida.  
Quchoqlar-u,  
o'par-u  
kuldirar seni,  
kezi kelsa  
bir so'm deb  
o'ldirar seni,  
Sekretar qiz  
depsinar  
valenkasida.  
Non kartochkalarin  
olgali turar  
Qatorlashib  
navbatda  
o'tinkesarlar.  
Yumushlar ko'p,  
to'polon,  
dilda kayg'u  
zarracha:

<sup>1</sup> Glavtop - yoqilg'i boshqarmasi.

hazil emas –  
 bir qadoq  
 non!  
 Bu – birinchi daraja!  
 Ichib  
 arg‘uvoni<sup>1</sup>  
 choy –  
 to‘g‘rashar o‘tin-tikan,  
 bizlar emas  
 Filipboy,<sup>2</sup>  
 bizlar bunga  
 ko‘nikkan.  
  
 Davri kelib  
 ovqat ham  
 bo‘lur batartib –  
 darvozadan  
 oqlarni  
 uloqtiraylik.  
 Ovqat yegimiz kelsa  
 qorinni tortib –  
 miltiq olib  
 frontda  
 yovni uraylik!  
 O‘tib borar  
 ana boq,  
 mutaxassis bir o‘rtoq,  
 tez olay deb payokni,  
 taqillatar  
 etikni,  
 idorası  
 beribdi  
 qiyom bilan  
 o‘rikni.

<sup>1</sup> Chinakam choy yo‘g‘ida arg‘uvon (lipa) daraxtining gullaridan qaynatilgan choy.

<sup>2</sup> Filippov – katta oziq-ovqat va choy savdogari.

Boylar epchil bu ishda,  
yerlar

Zundelevichda.<sup>1</sup>

Na bo'tqa,  
na atala,  
sizga bifshteks  
va bul'on.

Siz boy,  
bemalol to'lang – nonga  
bir yarim millon.

Olimga  
qiycin erur:

unga fosfor  
ko'p zarur va bir tovoq  
yog' darkor.

Ammo, ishlar teskari –  
revolyutsiya o'zi bor,  
yog'ning-chi:

yo'q asari.

Ular – fanlar xodimi,  
bilimdon zotlar.

Tegishli xat yozilar –  
topilar davo.

Ularning  
qo'llarida  
bazo'r mandatlar.

Anatol Vasilevich<sup>2</sup>  
chekkanmish imzo.

Qani  
endi  
o'sha non  
va o'sha go'shtlar –  
siznikiga borilsa  
bir soatga zap!

<sup>1</sup> Zundelevich – hashamatli restoran egasi.

<sup>2</sup> Anatoliy Vasilevich Lunacharskiy (1875–1933) – kommunist, adabiyotchi, 1917–1929-yillarda RSFSR maorif xalq komissari.

Bosh qotirib  
o'ylanar  
shunda komissar –  
Lunacharskiy bergen  
mandatga qarab.

«Xo'sh...  
sizlarga...  
shakar, ha?

Yana

demak yog‘!

Tag‘in quruq tarasha....

bir qadar  
o'tin...

Shu hujjatda haqingiz bor  
olmoqlikka –

Keng  
ste'mol uchun deb  
tikilgan po'stin.

Sizga dangal bir savol,  
aytingiz, o'rtoq,  
ta'b xohlarmi?

Ob qo'ying...  
tap-tayyor qalpoq!  
Har kim kelib so'raydi  
Buyumning  
bir qanchasin.

Hozircha  
olavering –

Mana  
baytal  
pochasin!»

Yalmog‘iz kampirsimon  
Ko'zga

mo'yna tushirib,  
Qaytib  
borishar shu on  
uch oyoq bo'lib yurib.

Bu – o'n ikki  
 kvadrat  
 arshinlik maskan.

Bunda  
 bizlar to'rt jomziz,  
 katta-yu kichik.

Lilya – bir.  
 Osya – ikki,  
 uchinchisi – men,  
 to'rtinchchi shergimiz –  
 Shchenik kuchuk.

Oldim qo'lga  
 u yirtiq  
 shapkaginamni  
 va ko'chaga chiqardim  
 kichik chanamni.

So'radilar:  
 Borasan hozir sen qayga?  
 Yaroslav vokzaliga,  
 hu- xalojoyga!

Yelkan kabi  
 qabarib shishar  
 po'stinim,  
 sassiq echki singari  
 jiyr qo'lansa.

Chanaga yuklab olib  
 eltgan o'tinim –  
 buzilgan bir devordan  
 tortilgan narsa.

Olib keldim  
 tarasha,  
 terga botdim  
 yana men,  
 uni qalamtarosh-la,  
 xiyla jiddiy

yo‘naman.

Pichog‘imni bosgan

zang.

Yo‘nmoqdaman ammo

shan.

Boshimda oshgan

taftdan

ko‘tarilar tadrijan

havodagi daraja.

Chamanzorlar gullaydi,

May

qulqoqqa

kuyladi.

Bu

qop-qora mo‘ridan

burqsagan

iliq is.

Ivishib to‘rt sumalak

yotadi tinch,

tovushsiz.

Odamlar keldi

birdan,

tebratar uyg‘otgali,

is tegibdi

ko‘mirdan,

arang uyg‘otdi hali.

Derazadan naryog‘da –

bo‘ramoqda

qor.

– Hali yaxlaganlaring yo‘qmi? –

deb so‘rar.

Tun chog‘ida

ayozlar

g‘oyat sitamkor –

kiyib qor etiklarin

g‘ijirlab yurar.

Tomimga

engashgan

osmon – gumbaz,

kunbotish

dengizida

botib cho'milar,

bu dengizning

qirmizi sahnida

tez-tez

janub sari yo'nalar

bulut – kemalar.

Bu ol – alvon dengizning

narigi yog'ida,

kemalar langar tashlab

manzilga qo'nar,

u ko'rinas ellarning

o't-o'chog'ida

qayin daraxtlarining

o'tini yonar.

Men

ko'p

issiq ellarda

kezdim ovora.

Lekin

shu qish faslida

angladim faqat –

sevgilarning,

do'stlikning

mag'zin yakbora,

bildim

nima ekanin

oila- shafqat.

Shu qahraton sovuqda

birga yotganing,

kupchilik-la

tishlaring

dirillatganing –

senga talqin qilarki,

ayama bir dam *naydaratu*  
 insondan  
 ko'pani ham,  
 erkalashni ham.  
 Havolari  
 sharbatday shirin  
 ellardan  
 bir g'irillab o'tasan  
 unutasan-ku,  
 ammo  
 birga  
 sovqotgan  
 aziz yerdar  
 mumkin emas  
 voz nechmoq  
 hayotda mangu.

## 14

Yopib ketdi  
 tirishiq  
 va qahraton  
 qish  
 mangu  
 uyquga ketgan  
 insonning barin.  
 Ne hojat so'zlar to'qish!  
 Marsiya o'qish!  
 Yozmayman bu safar men  
 Volganing  
 g'amin.  
 Minglab kunga  
 qarindosh  
 shu kunllr ichra -  
 tanlab olgan  
 kunlarim  
 basavlat, sara.

Bu – kunlar

silsilasi –

uzun va oddiy,

uni yillar

darg‘asi

haydab keltirdi,

och desa –

uncha emas,

to‘q desa –

to‘qlikdan past.

Nimaiki

yozibman –

to‘g‘ri so‘zlardir,

nimaiki umrimda

so‘zlabman bari,

bunga bois

samoviy shahlo ko‘zlardir,

sevgilimning

samoviy

shahlo ko‘zları.

O shahlo,

yirik ko‘zlar,

otashin, kuyik ko‘zlar!..

Sho‘x telefon

jaranglab gapirdi tajang,

go‘yo soldi quloqqa

boltaning sopin:

afsus, ochlik g‘ussasi

siqib qilgan tang

o‘sha shahlo

ko‘zlarni,

qochirgan tobin.

Bo‘lar-bo‘lmas gaplarni

aytibdi doktor –

emish, kasal yotgan uy

juda sovuqdir,

shu uchun emish, unga



revolyutsiyaga  
boqardi rosa.  
Mening holim  
hammadan oson,  
Men o'zimman  
Mayakovskiy,  
o'tiribman bemalol,  
xursand,  
yegan go'shtim  
xud baytalmiki.  
Birdan eshik  
zorlab ochildi.  
Singlim ekan...  
u kirib keldi.  
— Salom, Volodya aka!  
— Olya, qalaysan o'zing?  
— Og'a, ertaga ekan —  
yangi yil...  
Yo'qmi tuzing?—  
Bir chimdim  
zax tuzni olaman,  
bo'lishaman  
shu singlim bilan.  
U jo'nadi,  
yo'lida qor,  
xatar,  
sirg'anar u, yo'l bosib ketar,  
tuzlagani  
chuchuk kartoshka —  
uch chaqirim  
majbur yurishga.  
Singlim bilan yurib hamqator,  
qattiq ayoz  
unga so'z qotar.  
Dag'al ayoz  
qitiqlar qizni:  
Bu yoqqa ber

kaftingdan tuzni!

Uyga yetdi,

sepilmaydi tuz,

barmoqlarda to'nggan

xuddi muz.

Devorning orqasida

eshitilar bir sado:

«Hay xotin,

bozorga bor,

pidjagimni ham

obor!

Puliga

so'k sotib ol!»

Derezada

qor yog'ar,

qor ustiga

yog'ar qor,

qorning oyog'i

lekin

juda mayin

va sekin.

Poytaxtlarda

qoyalar –

yalang'och,

oq soyalar.

Yopishgan

qoyalarning tosh devoriga

o'rmonlarning

yaproqsiz qoq skeleti.

O'rmonlarning ortidan

ko'k ro'moliga

tirmashadi

quyoshning

oqimtir biti.

Moskva

tepasida

boshlanar bu kun

terlamaga yo'liqqan  
kasalday zabun.  
dekabrning  
sahari  
kechikkan,  
horg'in.  
Bulutlar  
suzib ketdi –  
semiz  
yurtlarga yetdi.  
Bulutlarning  
naryog'i –  
Amerika  
qirg'og'i.  
Yotib yalar yakka u  
qahva bilan  
kakao.  
Restoran tovog'iday  
tekis, dumaloq,  
to'ng'izning tumshug'iday  
semiz  
yuz-qulqoq.  
– Ey Boyonlar,  
menga siz,  
solingiz qulqoq!  
Bizning  
gadoy  
tuproqdan  
jar hayqiraman:  
Men,  
ana shu  
tuproqni  
yaxshi ko'raman!  
Jig'ildonlar,  
qorinlar  
o'stirgan elni  
biror kun

unutmoqlik  
mumkin albatta,  
ammo,  
sen-la birlikda  
ochiqqan yerni –  
na uyda  
unutarsan  
va na g'urbadta!

15

Yonboshimda  
bor ekan  
bir zinapoya,  
uzunligi  
ikki yuz  
bosqich cho'zilar.  
Xabarchi – daqiqalar  
to'qib hikoya,  
poyalardan  
keltirar har xil xabarlar.  
Kunlar qator kelishib  
depsinar edi:  
– Ana xolos,  
ko'rgulik zamon bor ekan,  
zavodlarning qorniga  
yem qayda endi?  
Yoqilg'i bitgan!  
Osmonning jilosin  
ko'p xira aylar  
lokomotiv  
islari  
yoilib ko'kka,  
mo'risiga qadarli,  
burniga qadar–  
qor uymasi ichiga  
ko'milgan yakka.

Ochildi darvozaning

temir qanoti.

Kurak olgan

kishilar

bardam jo'nadi.

Piymalarga

rango-rang yamoq

solingan.

Bular

safarbar bo'lib ishga olnigan.

Jo'r bo'lishib chiqdilar

o'rmondan nari,

bahamjihat boshladi

ishlashga bari.

Menmi, sizmi,

barchamiz -

qor kurab iz

ochamiz.

G'irillab yana

poyezd -

qor supradan

chopar tez.

Ochin-to'qin

badanlar

darmonsizlik sezarlar.

Qo'lni qo'lga o'rashib

jonli zambil yasarlar.

Endi uyg'a

bemalol

boray desang

bora qol!

Muzlagandan beshtasin

o'zing bila birga ol!

Bugun

iflos ayvonda,

xira ayvonda

meshchanlarning chuchqabop  
«mish-mish»lari bor.

Emish:

– Denikin

bosar

Tula tomonda,

qo‘liga o‘tar emish  
korxona – ombor.

Yasanishib meshchanlar

pichirlasharlar

uzunquloq g‘iybatlar  
singadi yog‘day:

– Endi xudo xohlasa...

Oq un ham bo‘lar

Choylar oqar soylarday...

shakarlar tog‘day:

Aylanay, oqginalar.

Ya-qi-i-i-n kelibdur,

Kerenskiy aqchasin

mahkam saqlab tur! –

Biroq, shaharni

uyg‘otdi jar,

plakatlar –

partiyaning xitobi:

«Proletar, otlan!»

Eskadronlar

janubga

yeldirdi otlar –

Mamontov‘ni boplamoq qarori bilan.

Bugun

kunning o‘ziyoq

keldi shoshilib,

soqitlikni

o‘pirib qo‘ydi

<sup>1</sup> K.K. Mamontov – ichki urush yillarida janubdan hujumga o‘tib, o‘z vahshati bilan tanilgan oq gvardiya otliq generallaridan.

bir fig‘on,  
xirilladi  
o‘pkasi o‘qdan teshilib,  
qulab tushdi  
tuproqqa  
usti boshi qon.

Zinalardan pol uzra  
qon oqib tushdi,  
laxta bo‘lib, to‘zonga –  
changa qorishdi.

Yana Kaplan<sup>1</sup> qo‘lidan  
bir o‘q otildi,  
bu o‘qdan maydonga  
qonlar to‘kildi.

To‘rt oyoqli hayvonlar  
suyunib kular,  
qadamlab shaqal kabi  
nuqul uvillar.

Qutlagandek  
bir-birin  
quv savdo ahli,  
shivirlashib  
xotinlar,  
erlar, shuñday der:

– Pitirlashdi  
tumshuqdor cho‘rtonlar hali!

Shoshmanglar  
tez fursatda hammasini yer!–  
So‘ngra birdan  
ko‘zlarin  
olaytiradi–

ana  
nomlar,  
unvonlar  
uzun ro‘yxati...

<sup>1</sup> Kaplan – 1918-yilda suiqasd qilgan terrorist ayol.

Otilgan dushmanlarning

budir ro'yxati,

Uni yirtib

mo'ridan

shamol buraydi.

Yirtqichga changal solar

sinf panjası,

bu-

Lubyansk<sup>1</sup>

atalgan

panjadir: Che Ka.

– Meshchanlar!

Jim!

Tek turing

kun-u kechasi!

– Yov, tebranma!

Lash-lushlar

turing bir chekka!

Oq ajdarning

u qonli jag'iga

qarshi...

Meshchanga

pana bo'ldi

oshxona yo'rgak.

– Bizga tegmang!

Biz – jo'ja,

biz hali go'dak.

Biz, faqat iskab

topar zotidan pashsha,

Bizga biroz yem bo'lsa.

yetadi o'sha!

Payti keldi,

yopingiz,

og'zingizni siz!

Biz meshchan – ojiz!

<sup>1</sup> Lubyansk – Moskvada Cheka (favqulodda komissiya) turgan joy.

Bizni kiyintirsangiz (buni xohlaymiz)–  
sizning

hukumatni ham

bizlar yoqlaymiz.

Ertasiga osmon

yangi jar solar!

Der:

kechagi xabarlar

yolg'on va chirik,

oftob ham,

qushlar ham

jom urib chalar:

tirik, tirik, tirik,

u – tirik!

Yana

kunlar keldilar

saflarni tortib,

qovushdilar

yonma-yon,

qator, batartib:

– Ketimizdan yuringiz! –

Deb qilishdi arz –

«Yana bitta

G'ayrat faraz!»

Jangdan ishga

mehnatdan

hujumga o'tdik.

Sovuqlarda kurashdik,

Och, yupun shuncha...

Qozongan narsamizni

Ko'p mahkam tutdik–

Tirnog'imiz yorilib

To qonaguncha.

Men ba'zi o'lkalarda

Kezganman sayyor,

Unda anjir va behi

unadi tayyor,

ammo, menga  
o‘zga bir yerdir  
u diyor.

Lekin

o‘zing so‘qishib  
qozongan yurting,  
chalajon o‘z yurtinghi,  
sen asrab turding,  
miltiq bilan uxlading,  
o‘q bilan qalqding,  
ko‘pchilik-la baravar  
ter to‘kding, boqding –  
shu yurtni deb  
hayotga  
bo‘larsan xushtor,  
mehnatlarga,  
to‘ylarga,  
o‘limga tayyor!

## 16

Menga shuni aytgandi  
yuvosh yahudiy,  
u – Pavel Ilich Lavut

degan bir kishi  
«Ko‘chaga

endi chiqib  
qarasam, xuddi –  
oqlar qochar,

chatoqkan  
ularning ishi...»

Chopishar  
burqiragan  
paroxodlarga –

ular  
Sevastopolning ko‘chalaridan.  
Bir kundayoq

tagcharmlar

shuncha to‘zigan,  
go‘y

bosib kelganlar

yillik safardan.

Transport kemalari

sohilda qator,  
janjal, talash,

xarxasha,

so‘kish,

qichqiriq.

«Ko‘ngillilar»<sup>1</sup> shimlarin shimarib

ochchar,

kiborlar

ham soldatlar

bari qorishiq...

Biri –

sa’va kutargan,  
boshqasi – royal,  
biri javon tashiydi,

bo‘lagi

dazmol.

Ko‘p «tartibboz»

sanalsa hamki

kadetlar<sup>2</sup>

«onangni» deb jag‘lari

turtishib turar.

Ularda na nomus-u

na moda qolgan,

bir xillarda

paypoq yo‘q.

bir xilda – yubka.

Xonimning

<sup>1</sup> Ichki urush yillarida kontrrevolyutsion oqlar armiyasining boshliqlari, demogoglik qilib shu armiyani «Ko‘ngillilar armiyasi» deb atashar edi.

<sup>2</sup> Kadetlar –(konstitutsiyon-demokratlar partiyasi)– kontrrevolyutsion burjuaziya partiyasi.

tumshug‘iga  
erkak musht solgan,  
polkovnikni  
soldatlar  
irg‘itgan tubga.  
Biznikilar kelardi  
o‘q uzib, chopib,  
yov qochardi sargardon,  
na yo‘l,  
na yo‘riq.

Bo‘s shtabning  
eshigin qars etib yopib,  
Vrangel yo‘lga chiqdi  
raportday quruq.

Ko‘zi pastda,  
oyoqqa qarab,  
o‘zi keskin qadamlar  
tashlab.

Kiyib  
qora cherkascha bir to‘n,  
yurar edi

Vrangel – baron.  
Shahar tashlab ketilgan...  
Xoli...

Liman tomon kimsasiz,  
tanho.

Shunda faqat  
olti eshkakli  
bitta qayiq  
turar muhayyo.

Go‘yo o‘q yeb yiqilgansimon,  
oq murdorlik uzra  
bel bukdi,  
qochayotgan shu bosh qo‘mondon  
qo‘sh tizaalab  
tuproqqa cho‘kdi.  
Ul

uch marta

tuproqni o'pdi,  
cho'qintirdi shaharni

uch bor.

O'q ostida

qayiqqa

o'tdi...

– Oliy hazrat,

boraylikmi?

– Bor!

Eshkaklarni olib qo'yishdi:

Motor

shunda guvillab qoldi.

Qayiq

go'yo suyunib birdan

«Olmos» sari

suzib yo'naldi.

O'qday

uchdi

muhtasham yaxta,<sup>1</sup>

kalish nusxa yuk kemalari –

ekinlardan,

dastgohdan

judo –

tumtaraqay

dochardi

bari.<sup>2</sup>

Vatandan qochib ketmoq

g'arazlariga –

Turkning politsiyasi

solar panjasin,

ular suzib borarlar

<sup>1</sup> Yaxta – yengil kema turlaridan.

<sup>2</sup> Bu yerda gap oq gvardiya boshliqlarining safsatasiga ishonib oqlar armiyasiga kirib qolgan ongsiz mehnatkashlar haqida boradi.

turk darzlariga,<sup>1</sup>  
ko‘rarlar  
Dardanelning  
siquq darasin.

Bular ekan –  
ertangi gallipollilar,<sup>2</sup>  
kecha esa  
ruslar deb atalgan bular.

Og‘ir yillar  
ularni ustma-ust kutar.

Mis qolpoqli  
har ma’mur  
ularga xatar.

Ha, sigirlar  
sog‘arsan  
Argentinada,

Afrikada o‘larsan  
axlatxonada.

Kemalarni chayqatgan  
to‘lqinlar o‘zga,  
yarim oyli  
bayroqlar<sup>3</sup>

tashlanar ko‘zga.  
Ketdagi kemalarda

shovqin va g‘azab,  
baqirarlar

Bir qo‘sishqni jangovar, mardona, yoniq.  
oldingi yaxtaga qarab:

– «Muttahamlar,

<sup>1</sup> Shoir, Qora dengiz bilan O‘rtal dengizni bir-biriga ulab turgan ikki tor bo‘g‘ozni – Bosforini hamda Dardanelni – tuproqda o‘pirilgan darzga o‘xshatadi (shu bo‘g‘ozlar Turkiya territoriyasida bo‘lgani uchun ularni «turk darzi» deb ataydi).

<sup>2</sup> Gallipollilar – muhojir rus oq gvardiyachilarining bir qanchasi Dardanel bo‘g‘ozining g‘arb tomonida mavjud kichik bir yarim orolda joylashtirilgan edi. Bu orolning nomi Gallipoliya (Gelibo‘li) bo‘lgani uchun Mayakovskiy bu muhojirlarni kinoya bilan «gallipollilar» deb, ularning vatansiz va millatsinz odamlar ekanidan istehzo qiladi.

<sup>3</sup> Turkiyaning davlat bayrog‘idagi rasmiy belgi.

bizlarni,  
qildingiz xarob.  
Xazinani  
urdingiz siz jig‘ildonga,  
endi  
qochayotirsiz  
g‘urbat tomonga!»  
Endi  
kema ahliga  
ehtiyot darkor,  
qo‘qqisdan  
o‘q uzilib  
solar vahima.  
Turkiya sohilida  
turar hamqator  
ikki  
amerikalik minonos kema.  
Admiral durbinidan boqib har yoqqa,  
so‘ngra o‘qlar uzilgan  
qirrali toqqa,  
to‘ng‘illab shu payt,  
tashladi:  
Ol rayt!<sup>1</sup>  
Amerikan kemalar  
izma-iz yurdi.  
Shaharga to‘p o‘xtalib,  
Bosforga kirdi.  
Osmon tandirida  
tog‘lar xud jarkop.  
Havoni chechak atri  
sharbatlarda ko‘p.  
Biznikilar  
Jonkoydan<sup>2</sup>  
qo‘shiqlar kuylab.

<sup>1</sup> Juda yaxshi (englizcha so‘z).

<sup>2</sup> Qrimdag‘i bir shahar.

Simferopoldan tushar  
Qrimni bo'yab...  
O'qlarning suhbatini  
qo'shiqlar bo'lar.  
Bayroqlarda jangovar alvon hilpilldr,  
qizillar-la  
tog'lardan tushmoqda qo'shiq,  
bir qo'shiqki,  
U pulemyot o'qidan  
egilmadi hech,  
qo'rg'oshin yomg'irida  
turdi misli er:  
«Voroshilov biz bilan –  
Eng birinchi qizil ofitser!»<sup>1</sup>  
Zambaraklar,  
dengizning alvastilar  
qochganida oyoqni  
qo'lga olib, xor  
tinglaydilar tog'lardan  
sochilgan so'zni:  
«Biz SSSR uchun  
o'pmoqqa tayyor!»  
Peshanasin chimirdi  
shtab boshlig'i,  
uning qo'pol qo'llari  
hafsala bilan –  
beboshvoq harflarni  
eshmoqda edi:  
«Irg'itildi  
dengizga Vrangel butun.  
Jangda olingan emas  
bitta ham tutqun!»  
Hozircha nuqta qo'ydik.  
Bu nuqta, bu gal –  
raportni

<sup>1</sup> Mashur sovet harbiy qo'shig'idan.

va urushni  
bitirdi tugal.  
Eslandi –  
chala qolgan  
ekin va terim,  
esga tushdi  
domnalar,  
pechkalar, konlar.  
Ketdilvar uyga,  
artib peshana terin,  
poyloqlarga tayinlab  
tiyrak posbonlar.

## 17

Ishimizni maqtashga  
boshlasam agar  
bunga na burch qistaydi  
va na misralar.  
Menga qolsa  
Vatanning yarmisin  
buzib,  
qolgan yarimin yuvardim  
qaytadan tazib.  
Ish kunlari  
Vatanda jo'shchin va qaynoq,  
Supurib ko'rganlarga  
men hamkor,  
o'rtoq.  
Bir kuylayman  
hozirgi vatanni,  
biroq,  
bo'ladigan Vatanni  
uch marta ko'proq.  
Planimiz  
hajmiga qalbimda ixlos.  
Sarjinqadam miqyosga

ishqim beqiyos.  
Mehnatda ham,  
jangda ham,  
bizga jo'r marshlar,  
bu marshlarni  
sevinib  
she'rim olqishlar.

Nazarimga tashlanar  
bekor tuproqda chiriyotgan  
xashag-u axlat sarosar,  
ammo  
undan bir sarjin tubda  
pastroqda –  
payqaymanki  
kommuna  
uylari o'sar.

Bir pud  
ayanch pichanin  
ko'rgan dehqonlar  
tabiat tortig'idan  
ra'yłari qaytar,  
dehqonlarning  
u qoloq dillari endi –  
traktorga  
e'tibor qilib o'girildi,  
Azalda  
peshananing turoqlarida  
gadoylikning tormozi  
to'xtatgan plan  
bugun  
moviy kunduzning  
quchoqlarida  
shakllanar  
temirlar va toshlar bilan.  
Mehnatlarda, janglarda  
tug'ilgan, ungan  
insoniyat bahori.

Aziz o'lkamni,  
men kuylayman  
sha'ningni,  
ey ona Vatan!

Men kuylayman  
o'zimning respublikamni!

## 18

Men  
to'qqizta oktabr  
va to'qqiz mayga  
qizil bayroq ostida  
keldim  
bu joyga –  
millionlar qatori  
keltirdim mag'rur  
men qalbimni  
bu joyga  
ishonch-la masrur.

Yov dastidan  
o'lгanning  
sovimay qoni  
hilpirarkan  
qora tug' – motam nishoni)  
hayajon-la chopardim  
g'ovg'ani ko'ray.

Skut etay, tek turay,  
jo'shay, hayqiray! –

Nog'oralar bu yerda  
gumbirlar ekan,  
Izg'irindan  
ko'z yoshlar  
duv to'kilarkan –  
bu maydonda bo'lganman,  
bu yerga yana  
ko'p kelganman

bir o'zim  
yakka-yagona.

Minorlarda  
soqchilar  
poylab turarlar,  
boshlarida qalpoqlar,  
hushyordir bari,  
ularga  
g'araz bilan  
pusib mo'ralar  
cherkovlarning  
qubbali  
quv kallalari.

Tun chog'ida –  
boshimiz ustida shu dam  
oy suzar ildam.  
Qaydan kelar,  
bilamiz  
oy ko'chasini...

Suzib kelar  
Sovnarkom,  
MIK<sup>1</sup> ning ustidan.

Kremlning  
yoritib  
bir parchasini,

O'rmalar kungira  
devor ustidan,

Oy  
sudralib keladi  
keng maydon sari,  
bir soniya  
to'xtaydi

u egib boshni,  
so'ngra yana

<sup>1</sup> Markaziy Ijroiya Komiteti.

oy – kalla

surilib nari

tashlab ketar

maydonda

yalang‘och toshni.

Bu – taxtapul:

qatlgoh.

Albatta bu joy

Kallalarni qo‘yishga

juda noqulay,

Oy

shu’lasi ostida

bo‘lar namoyon

yorug‘ maydon

ko‘p ravshan kunduzday

ayon...

Devor.

Bunga bayroqli bir xotin kelar,

Xok ostida yotganlar

uzra

egilar.

Tosh ko‘chaga

quyilar

oyning simobi,

oy ostida

shtiklar

o‘tkirroq, qaysar,

yana bunda,

uyulgan kitoblar kabi –

ko‘rinmoqda

mujassam

mafvzoley – marmar.

Ammo menga

na qayg‘u,

na qora alam,

bu ostona oldida

chang sola olur –

ruhini

ranjitmayman

o'lgan demayman.

U

basharning

barhayot ko'klamiday nur

yanoqlarda,

qalblarda

doimo tepur.

Ammo

kirish yo'limni

qabrlar to'sar,

bo'sag'ada

to'xgatar tanish ismlar.

Mana bu shaxs: nomini

men o'qib oldim.

Ko'rishgandik

o'lmasdan

bir soat oldin.

Kular edi

berilib qiziq

suhbatga,

yonimda tushgan edi

hatto suratga...

Ammo qonga belanib

Voykov<sup>1</sup>

quladi,

qonlaridan

gazeta

ivib qoladi.

So'ngra

qarshimda

paydo bo'lgandi darhol

xuddi

<sup>1</sup> P.L.Voykov (1888–1927) – SSSRning Polshadagi elchisi, Varshavada oq gvardiyachilar tomonidan vahshiyona o'ldirilgan.

suratdagiday

bir kishi shu dam,

g'ijimlangan shinelda

va cho'qqi soqol,

misli temir

baquvvat, chayir

bir odam.

Kimda bo'lsa

bama'ni yashash niyati,

– Hayotda ibrat olay

qaysi ko'zgudan? –

deb o'ylagan

o'smirga

aytaman qat'iy:

– Namuna ol sen

o'rtoq Dzerjinskiydan<sup>1</sup>.

Bu devor yonida

yotgan zotlardan –

so'ngak qolgan, kul qolgan...

Goho

kul ham yo'q.

Bularni yiqib qo'ydi

zahmat,

zindon, o'q,

lekin,

hech qaysi biri

qarib o'limgan.

Menga shunday tuyular

go'yo har zamon,

qizil go'riston ichra

uyg'onar gumon.

O'rtoqlarni qiynaydi

tashvishli zahar,

U kullardan o'rmalar,

<sup>1</sup> F.E. Dzerjinsky (1877–1926) – bolsheviklar partiyasining va sovet davlatining mashhur rahbarlaridan, revolyutsiyaning otashin ritsari.

suyakdan sizar,  
yer ustida  
gul bo'lib,  
o't bo'lib o'sar.

Shitirlaydi bezovta  
gullar, maysalar:

– Ayting,  
bunda bormisiz?

Mustahkammi bel?  
Olg'a boradilarmi?

Yo turar yo'lida?  
Respublika

avlodni  
qurarmi tugal

kommunaning binosin  
po'latdan, nurdan?

Tinch uxlangiz  
o'rtoqlar...  
Siz tinch yotingiz ...

Sizning  
o'sha o'spirin mamlakatingiz –  
bahorlar

kelgan sayin  
ko'z qamashtirib,  
gurkiraydi,  
binoyi,  
quvvat oshirib.

Ammo yana  
shitirlar  
kul vazalari,  
guldastalar chalmasi  
go'yo qilar do'q:  
– Xo'sh...

Ularning  
Yevropa va Osiyolari,  
xavf ichida, g'aflatda,

kishandami?

– Yo‘q!

Jafo va pul,

qamoqning

dunyolarida,

zindon va dor,

ilmoqning

dunyolarida—

sizning ulug‘ soyalar

yurar doimo,

o‘lkalarni uyg‘otar,

bo‘lar rahnamo.

– Sizni-chi:

yovuz loyqa

yeb qo‘ymasmikin?

Solmabdimi

to‘ralik

miyalarda in?

Aytib bering

yaxlitmi?

Ayting,

hamkormi?

Partiyaning qudrati

Jangga tayyormi?

– Tinch yoting siz, o‘rtoqlar, –

Xotirjam va jim...

Sizlardan farog‘atni

tortib olgay kim?

Biz hammamiz

qalqarmiz

tig‘ olib qo‘lga,

Birinchi buyruq chiqsa:

«Mardona, olg‘a!»

Yerning shari  
garchi ko'p yirik,  
uni kezdim  
marzama-marza,  
g'oyat yaxshi ekan  
tiriklik,  
hayot o'zi  
ko'p tuzuk narsa.  
Lekin bizning  
jangovar yurtda  
qaynar ekan hayot qish-u yoz,  
Yashamoqlik  
hammasidan soz!  
Ilon kabi  
to'lg'anar ko'cha.  
Qator uylar  
ko'chaning cheti.  
Ko'cha – mening  
Uylar – meniki!  
Magazinlar  
har xil mol qo'ygan,  
derazalar og'zi  
anqaygan.  
Derazada  
oziq-ovqatlar,  
sharob, meva-chevalar  
qator.  
Pashshalardan  
doka tutilgan,  
pishloqlar  
ko'p pokiza  
qolgan,  
chirog'lardir –  
porloq – nurafshon.  
E'londa:

«Narx bo'ldi arzon!»  
Mana, menin  
kooperatsiyam,  
pat chiqarib  
jonlanar bardam,  
Tiyin bilan  
uramiz paqqos!  
Ha, bunisi  
juda, juda soz!  
Ko'rgazmada  
kitoblar – uyum.  
Bunda menin  
nomimni ham  
ko'r!  
Suyunaman:  
mehnatim –  
kuyim–  
respublikam  
mehnatiga jo'r.  
Chopib  
labdor  
g'ildiraklar-la  
chang to'zg'itar  
avtomobilim,  
mashinada  
deputatlarim,  
deputatlar –  
mening vakilim.  
Qizil bino tomon yo'nalar,  
borishadi majlisga ular.  
Mossovetim<sup>1</sup>  
majlisida siz  
bo'l mang karaxt,  
bo'l mangiz ojiz!

<sup>1</sup> Mossoviet – Moskva shahar Soveti. Bu yerda shoir erkalab «mening Mossovetim» deydi.

Basharalar

qizil rang, gulgún,  
sarig' rangdir

lekin to'pponcha,  
bunda menin militsiyam  
har kun

qo'riqlaydi xuddi  
mergancha

Ko'lidagi tayoq-ishora.

Yo'lovchini yo'llamoqqa

XOS,

o'ngga desa,

o'ngga yuraman,  
juda soz!

Boshim uzra

moviy osmon–  
zangori bir shohiday

tannoz,

hech qayerda

hech qaysi zamon  
u shunchalar

bo'lgan emas soz!  
Osmonda bulut –

qotqoqday,  
uchuvchilar suzar paydar-pay.

Bular –

mening uchuvchilarim.  
Qaqqayibman

daraxtga o'xshab,  
jangga chiqsa

uchuvchilarim,  
yov kuygusi

birakay qaqshab.

Ko'zim tushar

gazeta birdan.  
Barakalla, venaliklar, ha!

Burjylarning

tepib ortidan  
ablahlarni xo'b boplabdi-da!  
Sudni yoqib  
qilmishlar nobud.

Zer gut!<sup>1</sup>  
Qog'ozlarning sharpasi ichra  
yog'inlarniig olovi  
parvoz.

Bizillaydi  
prokurorlar.

Juda soz!  
Yozilganki

bosh  
maqlolada;  
do'q qilarmish bizga  
yov - iflos.

Eh, tomog'i kuyib  
o'lgirlar!

Do'q qilarmi?  
Mayli – juda soz!

Ko'z oldimda  
qadamlab dadil  
o'tib ketar  
polklar muttasil.

Nog'oranning  
biqinin urar  
gumburlatib  
qo'shinlar yurar.

Qadam shaxdam, bosh tikka,  
bardam.

Suriladi  
to'plar muntazam.

Ana  
qizil yulduzliklar ham...  
Oyoqlarning bosimi qarang,

<sup>1</sup> *Juda soz* – (nemischa).

marshga tushgan qancha hamohang:  
sizning dushman.

Menga ham dushman.

Tumshuqlarin suqar ekan, boz  
tolqon qilib  
ezarmiz ko'p soz!

Mo'rilardan

burqirab tutun  
havolarni qurshabdi butun.

Qani, pishqir.

Pishqirar ko'ring,  
Bular mening fabrikalarim!

Pishqir, pishqir, mashina,  
chaqqon,

nafas uzymay,

o'lkani yolchit,  
yosh komsomol qizlarimga

tez –  
bering ko'proq

chit!

Qo'shnidagi boqchadan sodda –  
esib o'tdi  
salqin shabboda.

Atirlikdir

qancha dilnavoz!

Juda soz!

Dalalar bor

shahardan chetda,  
dalalarga –

qishloqlar payvand,  
qishloqlarda

dehqonlar borki, soqollari  
supurgi monand.

O'tiradi chol otaxonlar,  
har qaysisi quv, ayyor dehqonlar.  
Ular yerni haydar va qazar,

balki shunda

she'r ham yozar.

Tongda ishdan bahra toparlar,  
mehnatga ko'p muxlis, mehribon,

ekar, o'rар, yanchar yoparlar –  
shu qo'llardan

yeb yotibman non.

Sigir sog'ib,

yerni ekamiz,

ov qilinar suvlarda baliq,  
qarang, bizning respublikamiz  
soz qurilar

tiklanar to'liq!

Bo'lak yurtlar

yuzlarga kirgan,

ular uchun –

tarix bir tobut.

Mening yurtim –

bo'z bola o'smir –

yarat, o'yla,

urin, ko'r va yut!

Shodlik tilay...

Sizga ham biroz –

Ulashsakmi?

Hayot juda soz!

Yashamoqlik –

ajib ekan, rost!

Biz yashaylik

olamda yuz yil,

umrlarda qarimay

tetik, yillar sayin

oshsin muttasil –

bizlardagi

so'lmas bardamlik.

Bolg'a ila va she'r ila

sen dunyoning yoshligin kuyl!

Maqsud Shayxzoda tarjiması



## MUNDARIJA

### SHE'RLAR

G'ijjak va sal-pal asabiylilik <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi .....	4
Mana shunday qilib itga aylandim <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi.....	6
Lilyajon! <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi .....	8
Mualif bu satrlarni suygan odamiga, ya'ni o'z-o'ziga bag'ishlaydi.....	10
Javobgarlikka! <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi.....	12
Otlarga yaxshi muomala <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi .....	14
Ishchi shoir. <i>Jumaniyoz Jabborov</i> tarjimasi.....	16
Majlisbozlar. <i>Maqsud Shayxzoda</i> tarjimasi.....	18
O'rtoqlar, yo'l qo'ymaymiz! .....	21
Blek end uayt. <i>Asqad Muxtor</i> tarjimasi.....	23
Shoirlarga maktub .....	27
Laganbardor. <i>Asqad Muxtor</i> tarjimasi.....	30
Tatyana Yakovlevaga xat. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi .....	33
Arbob. <i>Asqad Muxtor</i> tarjimasi.....	37
G'iybatchi. <i>Asqad Muxtor</i> tarjimasi.....	40

### PYESA

Vladimir Mayakovskiy. Muqaddima, ikki voqeа, xotimadan iborat pyesa: <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi.....	44
Muqaddima .....	45
Birinchi voqeа .....	47
Ikkinchi voqeа.....	57
Xotima .....	64

### DOSTONLAR

Ishton kiygan bulut. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi .....	66
Umurtqamning sivizg'asi muqaddima. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi.....	92
Sevaman odatda mana shundoq. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi .....	103
Bolaligimda. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi.....	104
O'smirligimda. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi.....	105
Mening dorilfununim. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi .....	106
Katta bo'lganimda. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi .....	108

Oqibati nima bo'ldi. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi.....	110
Chaqiraman. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi.....	111
Sen. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi .....	112
Hech iloji yo'q. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi .....	113
Men ham shundoqman. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi.....	114
Xulosa. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi .....	115
Bu haqda?. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi .....	116
Reding turmasi. <i>Miraziz A'zam</i> tarjimasi.....	118
Juda soz!. <i>Maqsud Shayxzoda</i> tarjimasi.....	134

**Mayakovskiy Vladimir Vladimirovich.**

M 35

V.V. Mayakovskiy. [Matn]: She'rlar, pyesa va dostonlar /  
Vladimir Vladimirovich Mayakovskiy. – Toshkent: «O'zbekiston»  
NMIU, 2021. – 224 b.

ISBN 978-9943-7331-2-1

UO'K 821.161.1-31  
KBK 84(2Ros-Rus)

## Rus adabiyoti durdonalari

---

*Adabiy-badiiy nashr*

**Vladimir Vladimirovich Mayakovskiy**

### OQ VA QORA

*She'rlar, pyesa va dostonlar*

Nashr uchun mas'ul *A. Boboniyozov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi *M. Xafizova*

Muharrir *M. Xafizova*

Rassom-dizayner *B. Zufarov*

Texnik muharrir *L. Xijova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Musahhih *Sh. Xajiyeva*

Kompyuterda tayyorlovchi *B. Dushanova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 3-iyulda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>. Ofset qog'oz'i. «Times New Roman»  
garniturasida ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 14,0.  
Nashr tabog'i 11,52. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma №. 20-428.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz).  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)





# V.V. Mayakovskiy

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7331-2-1

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-7331-2-1.

9 789943 733121